O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

Saidova Rizvon Mustofo qizi

ADABIY TA’SIR MUAMMOLARI TADQIQI

(Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Tog‘ay Murod ijodi) misolida

Monografiya

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2026

UO‘K: 821.512.133.09:82.091
KBK: 83.3(5O‘z)6
S 73

Saidova Rizvon Mustofo qizi.
Adabiy ta’sir muammolari tadqiqi (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Tog‘ay Murod ijodi misolida) [Matn]: Monografiya / R.M.Saidova. – Toshkent: Bookmany print, 2026. – 138 b.

Mazkur monografiyada adabiy an’ana va ijodiy ta’sir badiiy ijod taraqqiyotining obyektiv qonuniyati sifatida tadqiq etilgan. Unda Alisher Navoiydan XX asr va istiqlol davri adabiyotigacha bo‘lgan adabiy an’analar tadriji, o‘zbek, fors-tojik, arab va turkiy adabiyotlar o‘rtasidagi ijodiy aloqalar, sho‘ro davri adabiyotshunosligida adabiy ta’sir masalasidagi biryoqlama talqinlar tahlil qilingan. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog‘ay Murod asarlarining milliy o‘ziga xosligi, ularning ijodiga rus va jahon adabiyoti ta’siri qiyosiy-tipologik aspektda yoritilgan. Shuningdek, adabiy ta’sir, originallik va taqlidgo‘ylik muammolari bahslari, adiblarning ijodiy an’analari va badiiy mahorat saboqlari ochib berilgan. Monografiya filolog olimlar, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, talabalar, umumta’lim maktablari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari hamda pedagogik mahorat markazlari tinglovchilari uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:
Z.U.Mamadaliyeva – Jizzax davlat pedagogika universiteti “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi professori;
I.Q.Bo‘ronov – Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi mudiri, dotsent.

Ushbu monografiya Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi Ilmiy-metodik kengashining 2026-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9910-15-127-9

© Saidova R.M., 2026.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2026.

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida adabiy ta’sir masalalari bo‘yicha muhim ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Milliy adabiyotlar va janrlarning adabiy an’analar zaminida rivojlanishi, adabiy aloqalar ta’sirida yangilarining paydo bo‘lishi va badiiy-estetik tafakkur tadrijida yuz berayotgan o‘zgarishlar poetikaning muhim kategoriyalari sanaladi. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari, turfa qirralarini yoritish, tasniflash, bugungi globallashuv davridagi badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Milliy adabiyotlar rivoji, genezisi va manba-omillari, adabiy an’ana va yangilanishlar, ijodiy ta’sir jarayoni, janrlar taraqqiyoti va takomilini o‘rganish hamisha dolzarb masalalardan bo‘lib kelgan.

Dunyo miqyosida adabiy an’ana, ijodiy ta’sir muammolarini adabiy jarayon kontekstida o‘rganish badiiy ijod va adabiyotshunoslik rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu sohadagi ilmiy-nazariy ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Alohida shoir va adiblarning yaxlit ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan yoxud muayyan asarlarning yaratilishiga turtki bergan hayotiy va badiiy-estetik omillarni chuqur hamda xolisona tadqiq etish ehtiyoji monografiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Binobarin, ushbu muammoni mumtoz adiblar ijodi misolida turli aspektlarda yoritish o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunosligining takomili hamda jahon badiiy-estetik tafakkuri rivojidagi munosib o‘rnini aniqlashga ham yordam beradi.

O‘zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligida adabiyot va janrlarning shakllanish-rivojlanish tamoyillari va badiiyati masalalari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq adabiy an’ana va ijodiy ta’sir muammolari, ularning badiiy-estetik funksiyalari, tasvirdagi milliy tafakkur va ifodaviylik jihatlari jahon adabiyoti kontekstida alohida tadqiq etilishini taqozo etadi. Shu ma’noda, “…ko‘p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy

xulosalar chiqarish bugungi adabiyotshunoslik fani tadqiqotlarini jahon ilmi bilan sintezlagan holda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mazmun-mohiyati asosida amalga oshirish” vazifalari bugungi kunning zarurati hisoblanadi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-apreldagi PQ–3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ–3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 18-apreldagi PQ–2894-son “Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘da Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Jahon adabiyotshunosligida adabiy ta’sir va vorisiylik masalasining ilmiy-nazariy asoslari V.Blazek, Ch.Wallace-Crabbe, X.Pons, J.Poole, J.Beston va M.Sinha kabi adabiyotshunoslar tomonidan keng tadqiq etilgan[2]. Rus adabiyotshunosligida bu mavzuni V.G.Belinskiy, A.S.Bushmin, K.Zelinskiy, A.G.Seytlin,

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. // Xalq so‘zi. 2018-yil, 8-avgust.

[2] Blazek W. Literary Influences. In: Mangum B, ed. F. Scott Fitzgerald in Context. Literature in Context. Cambridge University Press; 2013:45-55; Wallace-Crabbe, Chris. ‘True Tales and False Alike Work by Suggestion: The Poetry of A.D. Hope.’ Australian Literary Studies, vol. 14, no. 4, 1990, doi: 10.20314/als.6207595ee8, Pons, Xavier. ‘The Battlers: Kylie Tennant and the Australian Tradition.’ Australian Literary Studies, vol. 6, no. 4, 1974, doi: 10.20314/als.b28fefcfb8, Poole, Joan. ‘’Damned Scamp’: Marcus Clarke or James Erskine Calder?.’ Australian Literary Studies, vol. 6, no. 4, 1974, doi: 10.20314/als.7bfac05b25, Beston, John. ‘The Influence of John Steinbeck’s The Pastures of Heaven on Patrick White.’ Australian Literary Studies, vol. 6, no. 3, 1974, doi: 10.20314/als.fe7aecca82, Dr. Manas Sinha , Literary Influence: A Pivotal Aspect In The Domain Of Comparative Literature , Palarch’s Journal Of Archaeology Of Egypt/Egyptology 18(4). ISSN 1567-214x.

G.Lomidze, R.Bikmuxamedov, Z.L.Kasimova, Yu.V.Mann, V.Krilov, Yan Yan kabi olimlar tadqiq etishgan[3].

O‘zbek adiblari, jumladan, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Tog‘ay Murod, Asqad Muxtor ijodiga rus adabiyotining, xususan, Lev Tolstoy, Nikolay Gogol, Anton Chexov, Maksim Gorkiy va Mixail Sholoxov asarlari ta’siri muammolari adabiyotshunosligimizda ma’lum darajada o‘rganilgan[4]. Bu mavzuda qator adabiy-tanqidiy maqolalar yozilgan, yirik tadqiqotlar va ilmiy-adabiy to‘plamlar yaratilgan. Jumladan, 1960-yilda M.Gorkiy ijodi va shaxsining o‘zbek shoir-yozuvchilari ijodiga ta’sirini, uning ustozligi va sotsialistik realizm metodi asoschisi ekanligi kabi masalalarni yorituvchi “Ustoz” nomli to‘plam nashr etilgan. Shunday to‘plam 1979-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari va taniqli adiblar tomonidan yaratilgan bo‘lib, u “Lev Tolstoy va o‘zbek

---

[3] Касымова З.Л. Об одном литературном влиянии // Вестник ТГПУ. 2009. – №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ob-odnom-literaturnom-vliyanii (дата обращения: 22.09.2025); Манн Ю. В. Литературные связи и влияния // Краткая литературная энциклопедия / Гл. ред. А. А. Сурков. – Москва: Сов. энцикл., 1962 – 1978. Т. 4: Лакшин – Мураново. 1967. – С. 313 – -315. https://feb-web.ru/feb/kle/kle-abc/ke4/ke4-3131.html; Вячеслав Крылов, Ян Янь литературное влияние и реминисценции из повести К. Г. Паустовского «золотая роза» в цикле очерков цинь му «отрывочные мысли об искусстве», филология и култура. Philology and culture. 2019. №2(56) УДК 821.161.1.

[4] Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – 262 б; Максим Горький. Адабиёт ҳақида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1960. – 902 с.; Цейтлин А.Г. Труд писателя. – Москва: Худ. литература, 1969. – 542 с.; Қўшжонов М. Ижод масъулияти. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – 344 б.; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 640 б.; Умуров Ҳ. Бадиий ижод асослари. – Тошкент, 2001. – 120 б.; Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 101 б.; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008. – 224 б.; Қосимов У. Адабиётнинг ҳаётбахш кучи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008. – 208 б.; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2011; Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2016. – 232 б.; Қуронов Д. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 480 б.; Раҳимжонов Н. Бадиий асар биографияси. – Тошкент: Фан, 2008. 263б.; А.Қаҳҳор. Асарлар. 6-т. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – 488 б.; Дониярова Ш. Ижодкор ва услуб. – Тошкент, 2014; Дўстмуҳаммад Х. Ёлғиз. // Шарқ юлдузи, 2018. № 5; Солижонов Й. XX асрнинг 80 – 90-йиллар ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол.фанлари д-ри… дисс. – Тошкент, 2002. – 302 б.; Зиёдуллаева Н. Ўзбек адабиётшунослигида ижодкор биографиясини ўрганиш муаммолари. Филол.фанлари д-ри… дисс. – Тошкент: 2000. – 145 б.; Тўлаганова С. Ижодкор шахси ва адабий қаҳрамон муаммоси (А.Қодирий ижоди мисолида). Филол.фанлари д-ри… дисс. 2019. – 148 б.; Қосимов У Адабий-эстетик тафаккур тадрижи: анъанавийлик, ворисийлик ва ўзига хослик (Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор ва Тоғай Мурод ижоди мисолида). Филол.фанлари д-ри… дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 77 б.;

adabiyoti” deb ataladi. 1975-yilda bir guruh shoir-yozuvchilarimiz tomonidan rus adibi Mixail Sholoxov asarlarining o‘zbek adiblari ijodiga ta’siri masalalariga bag‘ishlangan “Asrimizning buyuk adibi” nomli to‘plam nashr qilingan. 1983-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan M.Begjonovaning “Гоголь и Кадыри” nomli monografik tadqiqoti (ilmiy-tanqidiy risola) nashr etilgan. Bulardan tashqari, o‘zbek va rus, o‘zbek va fors-tojik hamda qardosh xalqlar adabiyotlari aloqalari va adabiy ta’sir muammolari ko‘p hollarda biryoqlama o‘rganilgan. Natijada o‘zbek shoir va yozuvchilari, jumladan, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhorning ko‘plab asarlari va ular yaratgan o‘zbekona xarakterlar, ya’ni milliy qahramonlar, asosan, rus adabiyoti ta’sirida yaratilgan degan biryoqlama, yuzaki qarashlar keng tarqalgan. Bunday qarashlar asossiz bo‘lib, ularda adabiy ta’sir jarayonlari bo‘rttirib yuborilgan. Mazkur monografiya ana shunday bo‘shliqni to‘ldirish, tanqidchilik va adabiyotshunoslikdagi biryoqlamaliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Shuningdek, M.Yunusov, O.Sharafiddinov, B.Nazarov, T.Karimova, D.Salohiy, U.Qosimov, N.Soatova, Sh.Davronova, U.Q.Shoymurotov, L.Tojiyeva[5] kabi olimlar ham bu mavzuda qator adabiy-tanqidiy asarlar yozganlar.

Monografiyaning maqsadi adabiy an’ana va ijodiy ta’sirning badiiy ijod taraqqiyotidagi obyektiv qonuniyat sifatidagi mohiyatini ochib berish hamda Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog‘ay Murod ijodiga milliy mumtoz adabiyot, fors-tojik, turkiy, rus va jahon adabiyoti ta’sirini zamonaviy adabiy jarayon bilan uzviy bog‘liqlikda xolis, ilmiy asosda yoritishdan iborat.

[5] Давронова, Ш. (2016). Литературное влияние и творчество. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(2 (59), 40 – 46. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/212; Шоймуротов У.Қ. (2023, май 12). Влияние художественной литературы на художественное мышление.Прикладние науки в соврименном мире:теория и практика пнсм), Uzbekistan. https://doi.org/10.5281/zenodo.7927735; Тожиева, Л. (2023). Влияние зарубежной литературы на современную литературную культуру. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 693 – 697. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/traditions-innovations-language/article/view/27008

Monografiyaning vazifalari:

adabiy an’ana va ijodiy ta’sir tushunchalarining jahon va o‘zbek adabiyotshunosligidagi talqinlarini, ularning genezisini tahlil qilish, bu yo‘nalishdagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish;

o‘zbek mumtoz adabiyotidan XX asr va istiqlol davri adabiyotigacha bo‘lgan adabiy an’analar tadrijini o‘zbek, fors-tojik, arab va turkiy xalqlar adabiyotlari o‘rtasidagi ijodiy aloqalar misolida yoritish;

sho‘ro davri tanqidchiligi va adabiyotshunosligida adabiy ta’sir masalasiga oid mafkuraviy, biryoqlama talqinlarni ilmiy asosda baholash;

Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor asarlarining milliy o‘ziga xosligi va ijtimoiy-estetik omillarini, ularning ijodiy takomilida rus va jahon adabiyotining o‘rnini aniqlash;

Asqad Muxtor ijodi bilan Chingiz Aytmatov va jahon adabiyoti namoyandalari asarlari o‘rtasidagi g‘oyaviy-badiiy hamohanglikni qiyosiy-tipologik aspektda ochib berish;

adabiy ta’sir, originallik va taqlidgo‘ylik tushunchalarini farqlash, ular bilan bog‘liq ilmiy bahslarni tahlil qilish;

Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog‘ay Murod ijodidagi avlodlararo badiiy merosning davomiyligi, ustoz-shogird an’analari va badiiy mahorat saboqlarini yoritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek adabiyotining to‘rt avlod vakillari – Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog‘ay Murodning XX asr va istiqlol davrida yaratilgan badiiy asarlari tanlangan. Mavzuni keng qiyosiy yoritish maqsadida fors-tojik, rus va boshqa xalqlar adabiyotiga mansub manbalar ham tadqiqot doirasiga kiritilgan.

Tadqiqotning predmetini XX asr va istiqlol davri o‘zbek adabiyotidagi adabiy an’ana va ijodiy ta’sir muammolarining Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog‘ay Murod asarlari misolida badiiy namoyon bo‘lish xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tarixiy, biografik, qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Monografiyaning ilmiy ahamiyati adabiy an’ana va ijodiy ta’sir muammolarining Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog‘ay Murod ijodi misolida Navoiy an’analari, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotlari bilan ijodiy aloqalarning tadrijiy davomi sifatida hamda hozirgi adabiy jarayon bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganilganligi, adabiy ta’sirning ijobiy va salbiy qirralari, uni tipologik yaqinlikdan farqlash mezonlari asoslab berilganligi bilan belgilanadi.

Monografiyaning amaliy ahamiyati undagi qarash va xulosalardan XX–XXI asrlar o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiy tanqidchilik tarixi, adabiyot nazariyasi hamda hozirgi adabiy jarayon fanlari bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, mutaxassislik fanlaridan ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar mazmunini boyitishda, umumta’lim maktablarida adabiyot darslarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Monografiyaning tuzilishi. Monografiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. ADABIY TA’SIR BADIIY IJOD TARAQQIYOTINING OBYEKTIV QONUNIYATI

1.1-§. Adabiy an’analar tadriji tarixidan

Adabiy an’analar tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Dastlab xalq og‘zaki ijodi – og‘zaki adabiyot paydo bo‘lgach, vaqtlar o‘tib u o‘zida to‘plagan ijodiy tajribalar, erishgan yutuqlar avloddan avlodga o‘tib boqiy qadriyatga aylangan. Yozma adabiyot vakillari o‘tmish adabiyotining eng sara namunalariga ijodiy yondashadi. Ular adabiy an’analarni ijodiy o‘zlashtirib, salaflaridan o‘rgangan tajribalari asosida o‘z davri qo‘ygan badiiy-estetik vazifalarni bajarishga urinadilar. Tipologik o‘xshashliklar, adabiy aloqalar va ijodiy ta’sir bitta hodisaga – adabiy jarayonning tarixiy birligiga borib taqaladi; bu esa, o‘z navbatida, insoniyat taraqqiyoti qonuniyatlarining birligi bilan belgilanadi.

Har bir davr o‘zidan oldingi davr adabiyotida mavjud eng yaxshi jihatlarni o‘ziga singdiradi va unga nimadir qo‘shishga intiladi. Shu asosda taraqqiyot jarayonining uzluksizligi ta’minlanadi[6]. Ma’lumki, “adabiy an’anaviylik (lotincha traditsiya so‘zi – o‘tkazish, topshirish, yetkazish ma’nolarini anglatadi) ko‘p qirrali jarayon; u voqelikni idrok etish, hissiy bilish-anglash va uni badiiy aks ettirish sohasida davrdan davrga va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan va zamon talablariga javob beradigan adabiy-estetik tajribalar, shuningdek, an’anaviy mavzu-g‘oya, obrazlar, badiiy tasvir vositalari va rang-barang uslublardir. Ular klassiklar ijodida takomillashgan va keyingi avlod tomonidan adabiy meros sifatida qabul qilinib, ijodkorona davom ettirilishi ham nazarda tutiladi. Adabiyotning milliyligi shu xalq folklori va mumtoz adabiyotning barhayot an’analari bilan, bu an’analarning adabiy jarayondagi real o‘rni va ishtiroki bilan belgilanadi”[7]. Taniqli adabiyotshunos D.Quronov va boshqalar muallifligida yozilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da adabiy an’anani o‘tmish adabiyoti erishgan yutuqlar, to‘plagan tajribalarning hammasi emas, balki

---

[6] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 12

[7] Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 228.

uning muayyan davr ijodkorlari tomonidan dolzarb deb topilgan, boqiy qadriyat sifatida baholangan va o‘z ijodiy faoliyatlarida namuna deb hisoblangan qismigina kiradi,[8] deya ta’riflagan. Ushbu lug‘at mualliflari talqiniga ko‘ra badiiy adabiyot taraqqiyotida ko‘plab ilg‘or tajribalar va yutuqlarga ega bo‘lganligi kuzatiladi, biroq adabiy an’ana deganda aynan ma’lum davr ijodkorlari tomonidan muhim va zarur deya topilgan tajriba va yutuqlar nazarda tutilgan. Sababi adabiyotning yanada takomili va rivojiga hissa qo‘shadigan jihatlarga e’tibor qaratish adabiy jarayonning keng qamrovli taraqqiyotiga xizmat qiladi. Adabiy an’ana bilan yondosh bo‘lgan adabiy ta’sir masalasi ko‘p qirrali jarayonlardan biri bo‘lib, insoniyat badiiy tafakkuriga nazar tashlar ekanmiz, hayotiy hodisalarning mohiyati va ifodalanishida an’ana va adabiy ta’sir o‘ziga xos o‘rin tutganligi namoyon bo‘ladi. Gomerning “Iliada”, “Odisseya”, hindlarning “Mahobhorat”, “Ramayana”, turkiylarning “Alpomish” kabi epik asarlaridagi qahramonlik va vatanparvarlik motivlari an’anaviylik va ijodiy ta’sirning ham yorqin namunalaridir.

Ijodiy ta’sir adabiy jarayonning asosiy qonuniyatlaridan biri bo‘lib, adabiyotlarning o‘zaro ta’siri, bir adabiyotning badiiy tajribasini boshqa bir adabiyotning o‘zlashtirishidan iborat. Adiblar o‘z davri ijodkorlaridan, milliy yoki jahon adabiyotidan ijodiy ta’sirlanish natijasida yangi bir badiiy kashfiyotlarni ham yaratishi mumkin. Shuningdek, muayyan bir asar tarjimasiga qo‘l urgan iste’dod sohibi, tabiiyki, ma’lum bir muddat o‘sha asarning ta’siridan xoli bo‘la olmaydi. Balki o‘sha asar unda yangi adabiy niyatning tug‘ilishiga ham ko‘mak berishi mumkin[9].

Har bir ijodkor tor doirada, faqat o‘z milliy adabiy an’analari, xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyoti tajribalaridan o‘rganish bilan cheklanib qolmaydi. Agar u jahon adabiyotining yutuqlaridan bahramand bo‘lmasa, ijodiy prinsiplariga moslashtirib foydalanmasa, ko‘zlagan maqsadiga erisha olmaydi. Bu adabiy jarayonda sinovdan o‘tgan haqiqatdir[10]. Darhaqiqat, ijodkor

[8] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 14

[9] Davronova Sh. Adabiy ta’sir va ijodiylik. // Xorijiy filologiya. №2, 2016 – B. 40

[10] Қурамбоев К. Адабий таъсирдан ўзига хосликка. – Нукус, 2007. – B. 20.

shaxsi milliy va jahon adabiyoti yutuqlarini tahlil etib oʻz ijodida qoʻllashi, ijodiy ta’sirlantirgan an’ana yoki asardan olgan taassurotlarini ijodiy tajribasida foydalanishi natijasida adib mahorati yuksalib, adabiyot taraqqiyoti jadallashadi.

Adabiy ta’sir adabiyotshunoslik doirasida tadqiq etiladigan adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri. Adabiy ta’sir (ruschadan kalka; “литературное влияние”) – adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud boʻlgan, badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa. Adabiy ta’sir adabiy-badiiy hodisalarning zamon va makondan qat’iy nazar oʻzaro aloqada yashashi oqibati oʻlaroq voqe boʻladi. Demak, adabiy ta’sir bitta milliy adabiyot yoki adabiyotlararo aloqalar, bir davr adabiyoti yoki turli davrlar adabiyoti doirasida ham kuzatiladi. Shunga koʻra, adabiy ta’sirning koʻlami va darajasi turlicha (umumiy va shaxsiy) boʻlib, ular bir qator omillarga bogʻliqdir[11]. Adabiyot va san’atning uzoq asrlik tarixidan ma’lum boʻlishicha, faqat oʻz milliy qobigʻiga oʻralib olgan, boshqa xalqlar asarlaridan ilhomlanmagan yozuvchilar boʻlmagan. Milliy va jahon adabiyoti an’analarining sintezlashuvi ilgʻor estetik qarashning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

“Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati”da adabiy ta’sir – bir yozuvchi dunyoqarashi va ijodiy usullarining boshqa bir yozuvchi ijodiga ta’siri deya izoh berilgan. Hech bir yozuvchi oʻz ijodi bilan adabiy harakatni boshdan boshlab yubormaydi, balki oʻziga qadar oʻtgan qalam ahllarining ilgʻor traditsiyalari ta’sirida, ulardan oʻrgangan holda yangi asarlar yaratishga intiladi[12].

Adabiyotshunoslik nazariyasi darsligida adabiy ta’sir masalasi juda murakkab va sertarmoq masalalardan biri ekanligi ta’kidlanib, oʻz oʻrnida, avvalo, tashqi va ichki ta’sir turlariga ajratilgan. Ichki ta’sir – bir xalqning oʻz adabiyoti doirasida davom etadigan hodisa boʻlib, oʻtgan asrning yirik yozuvchisi keyingi asr yozuvchilariga oʻlmas gʻoyalarni ifoda etishdagi uslubi, tili va janrlar xilma-xilligi bilan ta’sir etishi koʻzda tutilgan.

---

[11] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 16.

[12] Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С., Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 298 б.

Adabiyotshunos A.S.Bushmin ta’sirni: birinchidan, ta’sir etish vaqtiga qarab tasodifiy, vaqtinchalik va uzoq muddatli hamda doimiy ta’sirga; ikkinchidan, badiiy ijodning ta’sir etuvchi tomonlariga qarab, g‘oyaviy, axloqiy, estetik, problematik, tematik, stilistik ta’sirga; uchinchidan, qo‘zg‘atuvchi sabablar (ichki yaqinlik yoki qarama-qarshilik, munozaralik) tufayli kelib chiqadigan ta’sirga, aloqa xarakteri (bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) bilan bog‘liq bo‘lgan chuqur ijtimoiy yoki yuzaki stilistik, epigonlik, taqlidiy ta’sirga ajratib turli aspektlarda qaraydi[13]. XX asrning mashhur mutafakkir-shoirlaridan biri, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovga ham qadrli ustoz bo‘lgan Qaysin Quliyev bu jarayonni bamisoli uchar qushning ikki qanotiga qiyoslagani ham chuqur ma’no anglatadi.

Adabiyotshunos A.S.Bushminning adabiy ta’sir haqidagi qarashlari ilmiy jihatdan yuqori darajada asoslangan. Har bir ijodkor boshqa bir ijodkordan ta’sirlanar ekan, bu ta’sir jarayoni tasodifan, vaqtinchalik, uzoq muddatli yoki doimiy ravishda amalga oshishi mumkin. Olim badiiy asarning ijodkorga ta’sir etish tomonlariga qarab adabiy ta’sirni g‘oyaviy, axloqiy, estetik, problemali, tematik, stilistik ta’sirga ajratadi. Ijodkorlar o‘rtasidagi o‘zaro yaqinlik yoki qarama-qarshi mulohazalar ham adabiy ta’sirni yuzaga keltiruvchi sabab bo‘la oladi. Shuningdek, bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot yoki bilvosita holatlar bilan ham adabiy ta’sir hodisasi yuzaga kelishi mumkin. Ma’lum ijodkor ijodida adabiy ta’sir muammolari tadqiq qilinayotganda A.S.Bushmin aspektida o‘rganish tushunarliligi, keng qamrovga egaligi va aniqligi bilan ajralib turadi.

Ayrim maqolalarni tadqiq qilish asnosida shunday xulosa qilish mumkinki, ayrim tadqiqotchilar adabiy ta’sirni biroz jo‘n tushunadilar. Suxrob Saitov “AQSh va o‘zbek adabiyotida adabiy ta’sir va milliy mentalitet” nomli maqolasida adabiy ta’sir hodisasining bir qator kelib chiqish tamoyillarini keltiradi:

1. Ma’lum bir ijodkor boshqa bir so‘z san’atkorining asarlarini bevosita o‘qib chiqadi, undan xabardor bo‘ladi va shu asosida uning asarlarida qaysidir holatda zuhurlanadi;

[13] Адабиёт назарияси. Икки томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 68-69

2. Tarjimalar asosida yuzaga chiqadigan adabiy ta’sir: bu o‘z holatida ayni ijodkorning o‘zi tomonidan tarjima qilinadi yoki tarjima qilingan asarni mutolaa qilish natijasida adabiy ta’sir tamoyili yuzaga keladi.

Fikrimizcha, muallif adabiy ta’sirning kelib chiqish tamoyillarini tor doirada ifodalaydi. Birinchi keltirgan tamoyil ancha mavhum xarakterga ega. Bir ijodkorning boshqa bir ijodkor asarini o‘qib ta’sirlanishida ushbu ta’sir qaysi jihatdan (g‘oya, mavzu, estetik, muammo, uslubiy kabi) ta’sir etishi va asarlarida shu nuqtayi nazardan aks etishi hisobga olingan holda ifodalanmagan.

Adabiy ta’sir xususida so‘z yuritganda, faqat masalaning sirtiga qarab mulohaza yuritish ushbu murakkab estetik hodisani bir tomonlama tushunish bo‘lib, butun mohiyatni chuqur ochib berolmaydi. Bundan tashqari, adabiyotshunoslikka doir aksar tadqiqotlarda agar gap mumtoz adabiyot namunalari haqida bo‘lsa, fors-tojik adabiyotining roliga urg‘u qaratilar, zamonaviy adabiyotimizga kelganda esa rus adabiyotining ta’siri bo‘rttirilar edi[14]. Shu sababli ham adabiy ta’sir masalasini aniq va xolis o‘rganish adabiyotshunoslik nazariyasi uchun ijodkorlar asl mahoratini yuzaga chiqarish va milliy adabiyotimiz o‘rnini ko‘rsatishda bir mezon vazifasini o‘taydi.

Adabiy jarayonda adabiyotlarning bir-biriga ta’sirisiz rivojlanish bo‘lmaydi. Sivilizatsiyalar xilma-xil davrlarda turlicha bo‘lganligi sababli adabiyotlarning o‘zaro aloqa va ta’siri uzoq davrlar davomida muayyan tajribalarga ega bo‘ldi. Ko‘p asrlik xalq og‘zaki ijodiga xos badiiyat namunalarida xalqimizning azaliy orzu-umidlari, Vatan erki va ozodligi tushunchasi teran badiiy talqin etilganligi, ezgulik, adolat, haqiqat g‘oyalari Vatan obrazini yoritishga, vatanparvarlik tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qilgan. Turkiy xalqlarning madaniy yodgorligi hisoblangan O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida bu mavzu juda go‘zal tarzda ifodalangan. Ilk yozma manbalardayoq Vatan tushunchasining o‘ziga xos turfa talqinlari barobarida Vatan obrazining genezis-ildizi namoyon bo‘ladi. Adabiyotda Vatan tasvirini yaratishda har bir yetuk shoirning alohida tasvir uslubi bo‘lganidek, buyuk Alisher

[14] https://malumot.ru/navoiy-ijodi-va-adabiy-ta%CA%BCsir/

Navoiyning ham o‘z uslubi, so‘zi va tasvir ifodalari e’tiborga loyiqdir. Navoiy o‘zining turli janrlarda yozgan asarlarida ona-yurt timsolining mukammal poetik tasvirini yaratadi. U turkiy ulusning xalqparvar rahnamosi sifatida yurti uchun qayg‘urgan, uning obodligi va farovonligi uchun astoydil niyat qilgan. “Saddi Iskandariy” dostonida ona-Vatan shunday ulug‘lanadi: *“Angakim vasat mehri raxshon kelib, Mungalek mulki Xuroson kelib. Xuroson badandur, Hiriy jon anga, Hiriy jon, badandur Xuroson anga”*[15]*.* Dostonning boshqa bir o‘rnida Vatanning muqaddas qadriyat ekanligidan yana ogoh etadi: *“Vatan tarkini bir nafas aylama, Yana ranj-u g‘urbat havas aylama”*[16]*.* Buyuk shoir va adiblar ijodidan bunday hikmatomuz satrlarni ko‘plab keltirish mumkin. Shu bilan birga buyuk so‘z san’atkorlarining ilg‘or an’analarini davom ettirish passiv jarayon bo‘lmay, balki ularni ijodiy o‘zlashtirishda shoir va yozuvchilarning dunyoqarashi, g‘oyaviy-badiiy mushohadakorligi, iste’dodi va poetik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

An’ana va novatorlik, ijodiy ta’sir hamisha badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur rivojining muhim va zaruriy bir sharti, qudratli omili bo‘lib xizmat qilishini jahon adabiyoti, xususan, XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti to‘la tasdiqlaydi. Bu mavzuni yoritishni ham Alisher Navoiy ijodiy faoliyatidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Zero, Navoiy ijodi o‘zida adabiy ta’sir, an’ana va novatorlik fazilatlari va komponentlarini ajib bir tarzda mujassamlashtirgani bilan alohida ajralib turadi. Alisher Navoiyning quyidagi satrlarida she’riyat va badiiy ijodning asosiy talabi, adabiy an’ana va novatorlikning mohiyati sodda va lo‘nda qilib bayon etilgan:

Ani nazm etki, tarxing toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay…
Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsun aning surati har ne durur. (“Hayrat ul-abror”)

---

[15] Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. To‘la asarlar to‘plami, 8-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMUY, 2011. – B. 219.

[16] Vohidov E. Saylanma. 1–4-jildlar. – Toshkent: Sharq, 2000–2001; Шарафиддинов О. Халқ устозим, мен эса толиб. – ҳақиқатга саодат. – Тошкент, 1989. – B. 267. Vohidov E. Shoir-u she’r-u shuur. – Toshkent. 1987. – B. 68.

Ya’ni chinakam shoir hamisha kitobxonlar uchun yangi ohorli asar yaratishga intilishi va, eng avvalo, sara ma’no-mazmuni bilan insonlar e’tiborini jalb etishi, ularning qalbiga va didiga yoqimli bo‘lishi lozim. Ne baxtki, Alisher Navoiy butun hayoti va ijodi davomida shu yuksak a’moli, muqaddas ijodiy-estetik dasturiga qat’iy amal qilgan va shogird va izdoshlaridan ham shuni talab qilgan. So‘z va amal birligiga hamda an’anaviylik va novatorlik – adabiy yangilik tamoyillariga izchil amal qilgan Navoiy “Xamsa” dostonlarini yaratishda ham salaflari Firdavsiy, Ganjaviy, Dehlaviylar qo‘llashini va Jomiy kabi pirlar madadkor bo‘lishini orzu qiladi, ulardan ilhomlanadi va ijodiy ta’sirlanadi. Navoiy bilan ular o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik va adabiy ta’sir jarayoni, tom ma’noda, ijodiy yo‘nalishda bo‘lgan. Navoiy ustozlari an’analarini muvaffaqiyatli davom ettirish bilan cheklanib qolmaydi, aks holda, oddiy bir ergashuvchi ijodkor bo‘lib qolar edi. Balki ular bilan ijodiy musobaqaga kirishib, ulkan badiiy “kashfiyot”lar yarata oldi. Yirik olim A.Hayitmetov ta’kidlaganidek, Navoiy zamon talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib, ustozlarining she’rlarini ham ruhan, ham ma’nan ijodiy davom ettirib, o‘lmas asarlar yaratadi[17].

Traditsiya (an’anaviylik) va novatorlik, originallik, ya’ni o‘ziga xoslik mavzular, g‘oya-obrazlar, adabiy janrlar va poetik tasvir vositalari shakllarida ham namoyon bo‘lishi jahon adabiyotidagi ko‘p qirrali ijodiy jarayondir. Fikrimizning isboti uchun o‘quvchilarga ham ko‘p jihatdan ibratli bo‘la oladigan bir misol keltiramiz. Chunonchi, Sharq va turkiy xalqlar adabiyoti va folklorida keng tarqalgan, Sa’diyning “Guliston” va Jomiyning “Bahoriston” asarlarida an’anaviy “Hotami Toy” hikoyati keltirilgan. Unda Hotami Toyning saxovatpeshaligi ulug‘lanadi. Navoiy ham “Xamsa”ning “Hayrat ul-abror” dostonida bu mashhur sayyor obrazga alohida hikoyat bag‘ishlagan. O‘zidan oldin yashab ijod qilgan ustozlaridan farqli ravishda bu obraz talqiniga muayyan darajada o‘zgartirish qiladi va hikoyatida Hotami Toy bilan birga oddiy o‘tinchi chol obrazini ham yaratadi. Eng muhimi, hikoyatida bu obrazga katta e’tibor berib, asar g‘oyaviy-badiiy va axloqiy mazmunini kengaytiradi. Saxovatpeshalik ulug‘ fazilat, ammo

[17] Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти – Тошкент: 1996. – Б. 69.

oʻzgalardan taʼma kutmay, halol mehnati bilan yashash undan ham yuksak insoniylikdir, degan chuqur falsafiy gʻoyani olgʻa suradi:

Sen dagʻi chekkil bu tikan mehnatin,
Tortmagʻil Hotami Toy minnatin.
Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj.

Koʻramizki, Navoiy ustozlar asarlaridan ijodiy taʼsirlangan holda ularning asarlaridagi gʻoyaviy mazmunni yanada takomillashtiradi va ularni boyitadi. Qadimiy folklorimizdan va ayniqsa, Navoiyning Vatan mavzusidagi mashhur manzuma-hikmatlaridan ilhom olgan E.Vohidov, A.Oripov, Shafoat Rahmatullo, S.Sayyid, Sh.Qurbon, H.Ahmedova kabi koʻplab zamonaviy shoirlarning bu mangu va anʼanaviy mavzudagi sheʼrlarida ijodiy bardavomlik va oʻziga xoslik ham yorqin aks etib turadi. Bulbulni chamansiz sayratib boʻlmas yoxud bulbul chamanzorsiz yashay olmagani kabi insonning ham Vatansiz umrguzaronlik qilishi juda ogʻirligi, Vatanning ham onaday moʻtabar va yagonaligiga urgʻu berilgan.

Alisher Navoiyning vatanparvarlik mavzusidagi sheʼrlaridan ilhomlangan va ularga hamohang asarlardan biri sifatida yosh shoir Fitratning Turkiyada 1913-yili nashr etilgan “Sayha” nomli ilk sheʼriy toʻplamidagi forsiyda bitgan quyidagi ruboiysini yaqqol misol qilish mumkin:

Bimo, sahari azim tavofi Vatani man.
Oh-oh chi Vatan, sajdagohi, jonu tani man.
Ham mohi manu osoyishi, izzu sharafi man.
Ham kabaʼi man, qiblayi man, ham chamani man.
(“Sayha”)

Bu ilhombaxsh anʼanalarning davomiyligini koʻplab zamonaviy shoirlarimiz ijodida ham koʻramiz. Masalan, mumtoz janrlarda yetuk ijod qilgan shoir Erkin Vohidov toʻrt jildlik saylanmasini Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”siga munosib tarzda jamlaydi. Ushbu saylanmaning birinchi jildining ilk sahifasida shunday jonbaxsh satrlar bitilgan: “Bagʻring tole nuriga toʻlsin, Ona-yurtim – munis makonim. To tirikman, seniki

bo‘lsin She’rim, umrim, yuragim, jonim”. Bu muxtasar she’r ona-Vatanga bo‘lgan cheksiz sadoqat va fidoyilikning Erkin Vohidovga xos teran va hikmatomuz bir ifodasi bo‘la oladi. Bu asarlar faqat shoir qalbining, kechinmalarininggina emas, balki xalq hayotining ham bir ko‘zgusidir. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o‘tgan va o‘tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug‘yonli, goh iftixorli yo‘llarining manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she’riyatida to‘la mujassam edi deyilsa, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. E.Vohidovning mumtoz adabiyotimizning eng qadimiy janrlaridan bo‘lgan g‘azal janridagi rang-barang mavzu va g‘oyalarni tarannum etgan go‘zal she’rlaridan dastalangan “Yoshlik” devoni nashr etilishi adabiyotimizda quvonchli bir voqea bo‘lgan. Devondagi she’rlar ko‘hna aruz vaznida qalam tebratuvchi yosh ijodkorlar uchun o‘ziga xos bir mahorat maktabi bo‘lib xizmat qilganligini deyarli barcha ustoz va zamondosh adiblar ham tan olganligini ta’kidlash joiz. Buning dalili sifatida O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning faxr bilan aytgan so‘zlarini keltirish lozim: “Mana, bir necha o‘n yillardirki, biz dilbar bir she’riyatning muattar havosidan bahramand bo‘lib kelayotirmiz. Bu – Erkin Vohidov she’riyatidir. Men Erkin Vohidovni she’riyatda o‘ziga xos sehr sohibi deb bilaman. O‘lmas aruz vazniga bepisand qarash hali hukmron bir sharoitda mumtoz g‘azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekiladi deya karomat qilishayotganda Erkin Vohidov birinchilardan bo‘lib aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig‘ paydo bo‘ldi. Shu ma’noda g‘azalga tavajjuh bildirgan yoshlarimizga hozirgi zamon shoirlarimizdan Erkin Vohidov ijodi maktab bo‘la oladi”[18]. Yoki Sirojiddin Sayyid ham o‘z ijodini to‘rt jildlik qilib chop ettirar ekan, azaliy an’anaga muvofiq Navoiy va Erkin Vohidov kabi o‘z she’rlarini yosh davrlariga ko‘ra ketma-ketlikda joylashtiradi hamda har bir jildda mumtoz janrlarda yozgan she’rlarini maxsus boblarda beradi. Zamonaviy shoirlarimiz, xususan, Sirojiddin Sayyid she’riyatida ham mumtoz adabiyotimiz, ayniqsa, Navoiyning ta’siri yosh shoirning g‘azal, muxammas, masnaviy

[18] Абдулла Орипов. Сўз сеҳри – Эркин Воҳидов. Яхшидир аччиқ ҳақиқат. – Тошкент: 1992. – Б. 5.

kabi janrlarda samarali qalam tebratganida, mumtoz adabiyotda mavjud badiiy obrazlarga munosabati va badiiy talqinlardagi poetik tasvir ifodasining o‘ziga xosligi, salaflar va ustozlar an’analariga munosabati va novatorligida yaqqol ko‘rinadi[19].

So‘z san’ati rivojining ushbu obyektiv va subyektiv faktor-omillari qanday namoyon bo‘lishini mumtoz adabiyotimiz bosqichlarida, xususan, XX asr adabiyotida, ayniqsa, Navoiy an’analarining o‘z davri va keyingi asrlarda ko‘plab shoirlar, yorqin iste’dodlar tomonidan ijodiy davom ettirilishi misolida ham tahlil etish mumkin. XX asr adabiyoti, xususan, G‘afur G‘ulom va Erkin Vohidov ijodida ham Navoiyning ilhombaxsh nazmiy an’analari va badiiy til saboqlari nechog‘lik samarali bo‘lganligi adabiyotimizning yorqin bir sahifasidir.

Darhaqiqat, Erkin Vohidov ijodi misolida an’ana-vorisiylik, o‘ziga xoslik, adabiy muhit va iste’dod haqida ham fikr yuritish joiz. Jahon adabiyotidan ma’lumki, ijodkor iste’dodi tabiiy, tug‘ma bo‘lishi bilan birga uning kamol topishi, o‘ziga xos novator ijodkor bo‘lishi ko‘plab obyektiv-subyektiv shart-sharoit va omillarga bog‘liqdir. Darsliklarda va adabiyotshunoslik tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, badiiy adabiyot taraqqiyoti ko‘p jihatdan ijtimoiy-siyosiy davr, sharoit bilan bog‘liq ravishda yuz beradi. Adabiy jarayonni davrlashtirishda adabiy davr, adabiy asar, adabiy avlod tushunchalari bilan ish ko‘riladiki, bunday yondashuv tarixiylik tamoyiliga ham mos keladi. Ijodiy ta’sir, an’ana va novatorlik hamisha badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur rivojining muhim omili bo‘lib xizmat qilishini o‘zbek-fors-tojik, o‘zbek-rus va boshqa qardosh xalqlar adabiyoti aloqalari va badiiy tarjimalari misolida o‘rganish ham bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Shunday ijodiy an’anaviylik Navoiyga voris va izdosh bo‘lgan Bobur va Fuzuliy, Nodira va Ogahiylar yoxud necha o‘nlab zamonaviy shoirlar asarlari misolida ham bardavom bo‘lganligi badiiy ijod rivojining tabiiy va samarali jarayoni, obyektiv bir qonuniyati sanaladi.

[19] Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazining poetik talqini. Filol.fan.diss.avtoreferati. – Jizzax, 2024. – B. 47.

An’ana-novatorlik va tipologik mushtaraklik sintezi xalq ogʻzaki ijodining ajralmas rishtasi, unda millatlararo tafakkurdagi oʻzgarishlar, jahon adabiyotidagi ilgʻor tamoyillarni oʻzlashtirish mayli ancha teranlashdi. Arab, fors-tojik va turkiy adabiyotlarning oʻzaro bir-biriga ta’siri, ilgʻor tajribalarining boshqa adabiyot vakillari tomonidan oʻrganilib, oʻzlashtirilishi, ijodiy rivojlantirilishi dunyo badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotining muhim xususiyati boʻlib kelmoqda. Masalan, Abdulla Oripov hozirgi davr oʻzbek she’riyatida inson qalbidagi murakkablik, ziddiyatlar, haq-nohaqliklarni, adolat-razolatni teran, haqqoniy va oʻziga xos betakror tarzda kuylagan ulkan ijodkordir. Ayni paytda, u oʻz asarlarining tub mohiyati bilan Yassaviy va Navoiy, Bobur, Choʻlpon, Gʻafur Gʻulom, qolaversa, Dante, Lermontov va Rasul Hamzatovlarning ham ijodiy an’analarining mohir davomchisi sanaladi. Shu bilan birga, an’anaviylik va originallikka asoslangan Abdulla Oripovning ijod yoʻli ham bir tekisda kechmagan. Bu yoʻlda shoʻro hukumati davrida haqiqatni ayta olmaslik azoblari-yu, aytilgan haq soʻzlari uchun ta’na-dashnomlar ham, hukmron mafkura ta’sirida uning gʻoyalarini kuylash va milliy mustaqillik yoʻlidagi shijoat va fidoyilik bilan kurashlar ham boʻlgan.

Ma’lumki, Islom-Sharq adabiyotida “Arba’in” an’anasi mavjud boʻlib, eng sahih hadislardan qirqtasini saralab, ularning mazmuni ruboiy janri orqali talqin qilingan. Alisher Navoiy ustozi Jomiyning shu yoʻlda yozilgan “Chil Hadis”ini turkiyga tarjima qiladi va “Arba’in” deb nomlaydi. Turkiy adabiyotimizda Qur’on va Hadislardan ta’sirlanib, ijodiy ilhomlanib islomiy ruh bilan yoʻgʻrilgan asarlar yozishni dastavval Ahmad Yugnakiy oʻzining “Hibat ul-haqoyiq” dostoni bilan boshlab berganligini olimlarimiz Qosimjon Sodiqov va Boqijon Toʻxliyevlar ta’kidlashadi. A.Oripov, S.Sayyid, Sh.Qurbonlar ham hadislardan saralab, bu an’anani ijodiy davom ettirdilar.

Oʻzbek mumtoz adabiyoti nihoyatda boy, janrlar rang-barangligi, mavzular koʻlami kengligi, har bir ijodkorga xos uslubiy jilolar bugungi kunda zamonaviy oʻzbek adabiyoti rivojiga katta ta’sir koʻrsatib kelmoqda. Jumladan, an’anaviy she’riy san’atlar har bir davr she’riyatiga xos yuksak badiiylikka erishish

omillari sifatida yangi davr lirikasi va koʻplab zamonaviy shoirlar sheʼriyati uchun ham xos adabiy hodisa ekanligi eʼtiborga loyiqdir. Sharq mumtoz adabiyotida keng qoʻllangan tashbeh sanʼati, jumladan, mumtoz sheʼriyatimiz namunalarida nay ham anʼanaviy ramziy timsollardan biri boʻlib, keyingi davr zamonaviy sheʼriyatimiz poetik ifoda yoʻsinida oʻziga xos maʼno qirralariga ega boʻlib bormoqda. Masalan, XX asr sheʼriyatida betakror shoirlardan biri Usmon Nosir “Tilimni nayga joʻr etding” misralari orqali nay timsolini yangicha ifodalagan. Yoxud zamondosh shoirlarimizdan Shafoat Rahmatullo Termiziyning mumtoz sheʼriyatdagi anʼanaviy timsollarni tanlash va qoʻllashdagi poetik mahoratini va yangi soʻzlar yaratishi bilan tilimizni boyitishdagi samarali izlanishlarini quyidagi satrlari misolida ham koʻrish mumkin:

Dunyo turar zangor kuyga shaylanib,
Gʻuncha ruboblanib, maysa naylanib.

Shuningdek, S.Sayyidning “Bellari bordir qamishning beliday Nola qilgum men misoli nayqamish” baytida shoir yorning belini qamishga oʻxshatadi. Oshiq esa nayqamishga aylanib, ishq otashida nola chekadi. Maʼshuqa nayga, oshiq nayqamishga oʻxshatilgan. Shuningdek, Halima Ahmedovaning tasavvufona ruhdagi sheʼriyatida mohirona qoʻllangan birgina “yashil” rang bilan bogʻliq poetik timsol-tashbehlar ham yangi va yuksak tafakkur namunalari sanaladi. XX asrda ijod etgan oʻzbek shoirlari aruz vazni bilan birga, asosan, sheʼriyatning barmoq vaznlarida badiiy sanʼatlardan mohirona foydalangan holda qalam tebratdilar. Adabiyotimizda aruz vaznida bitilgan aksar sheʼrlarda ham badiiy sanʼatlarning goʻzal namunalari yaratilgan. Chunonchi, Abdulla Oripovning ijroviy lirikaga mansub “Hamza nidosi” (1989) sheʼrida “Tosh boshimga tosh yogʻildi ming kasofatlar bilan” kabi mohirona qoʻllangan takrirlar shoirning yuksak poetik mahoratini, soʻz sanʼatkorligini yaqqol namoyon etgan. Bunday poetik anʼanaviylik Erkin Vohidov, J.Jabborov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Abdulla Sher, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim kabi shoirlar sheʼrlarida ham gʻoyaviy-estetik taʼsirchanlikni yuzaga chiqarishga xizmat qilganiga guvoh boʻlamiz. Anʼana va

originallikning yetuk namunalari sifatida yaratilgan she’r va dostonlarga xos yana bir mushtaraklik shundaki, ularning barchasida badiiylik, obrazlilik va emotsionallikning yuzaga kelishida sifatlash (epitet), o‘xshatish, takrir, metafora va mubolag‘a singari tilning badiiy tasvir vositalari ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, Azim Suyunning “Sajdagoh” deb atalgan she’rida inson uchun eng muqaddas va buyuk qadriyat sanalmish Vatan madhi, Vatan g‘ururi an’anaviy va o‘ziga xos tarzda ifodalangan:

Qadim erka soylardan oqib kelar gul isi,
Olma gulining isi, zardoli gulin isi.
Yulduzlarmi, oylardan qalqib kelar gul isi,
Jiyda gulining isi, qaroli gulin isi.
Gullar atrin taratgan tog‘imsan, Vatan o‘zing,
Ko‘ngillar qulfin ochgan bog‘imsan, Vatan o‘zing.

Haqiqiy she’r va san’at “yuqumli” bo‘lganidek, she’riy misralar orqali o‘quvchi ona-yurtimizning xushbo‘y havosini tuygandek, uning purviqor tog‘lari va qadrdon bog‘larini kezgandek his etadi o‘zini. She’rda aks ettirilgan Vatan timsollarining haqqoniyligi va tabiiyligi shoirning mahorati va so‘z san’atkorligi tufayli yuzaga keladi. She’rdagi qadim, erka soylar, gul isi oqib, qalqib kelishi kabi sof milliy tasvirlar yoxud “qulfi-dili ochilishi” singari o‘zbekona ifodalar she’rning hayotiyligini va huzurbaxsh ohangdorligini kuchaytirishi bilan birga kitobxon qalbidagi Vatan mehrini ham jonlantiradi.

Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek adabiyoti va badiiy-estetik tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan nodir ijod sohibi Erkin Vohidov she’riyatini kuzatar ekanmiz, ijodkorning o‘ziga xos, takrorlanmas uslubda ijod etganligidan hayratlanamiz. Ko‘p shoirlar she’r bitayotganlarida ma’lum bir vaznni me’yor qilib oladilar va, asosan, shu yo‘nalishda ijod etadilar. Erkin Vohidov kabi shoirlar esa bunday an’anaviy uslubdan chekingan holda she’riy vazn va janrlarning deyarli barchasidan erkin foydalangan. Shoir bu an’anaviy vazn va poetik janrlarda qalam tebratar ekan, ularning qonun-qoidalariga rioya qilibgina qolmay, balki adabiyotimizning ziynati, ko‘rki bo‘lgan she’riy san’at turlaridan

ham ustalik bilan foydalangani betakror mohir ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

Barcha ulug‘ adiblar badiiy asar tiliga va undagi har bir so‘z va iboraga alohida e’tibor bilan qarashgan. Ijod jarayonining eng mas’uliyatli va sermashaqqat bosqichi – bu, shubhasiz, badiiy asar tili ustida ishlashda namoyon bo‘ladi. Jahon adabiyoti tarixiga nazar solsak, Navoiy va Tolstoylar, Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon, Abdulla Qahhor va Mirtemirlar yoxud Erkin Vohidov va Abdulla Oripovdek mumtoz shoir va yozuvchilarning badiiy asar tili ustida zargarona mehnat qilganliklari va so‘z tanlash, qo‘llash mashaqqatlari nechog‘lik ulkan mas’uliyat talab qilishini ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, o‘zbek tilimizning davlat tili, millat ruhiyati sifatida uning ravnaqi yo‘lida barchamiz mas’ul ekanmiz, buyuk adiblarimizning ijodi va badiiy saboqlari yanada chuqur ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan mumtoz adiblarimiz asarlariga yondashilganda, ularning hammasi ham jonli xalq tili boyliklari va rangdorligini adabiy tilga san’atkorona payvand qilib, har bir so‘z va iborani mahorat bilan qo‘llaganliklarini ko‘ramiz. Asrlar davomida rivojlanib davom etib kelgan bu an’ana badiiy ijodning muqaddas bir qonuniyatiga aylangan desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Badiiy til va uslub, ularni o‘rganish muammolari hamisha dolzarb sanaladi. Turkiy tilimiz va adabiyotimizning buyuk yalovbardori Navoiyning ayni paytda fors va arab tillarini ham mukammal bilganligi uning favqulodda nodir iste’dodining yorqin bir qirrasi edi. Ulug‘ shoirning “Devoni Foniy” va piri komil Jomiy asarlaridan ta’sirlanib va ilhomlanib yaratgan “Tuhfat ul-afkor” qasidasi, shuningdek, ko‘plab ruboiylaridagi so‘z san’atkorligi ham fikrimizga dalil bo‘la oladi. She’rlarining deyarli barchasiga xos bo‘lgan yorqin fazilat bor: bu – ularning ham ma’nan, ham shaklan poetik mukammalligidir. Bunday g‘oyaviy-badiiy yuksaklikka erishishda, avvalo, Navoiyning o‘zbek tilimizning serjilo, ma’nodorligi kabi o‘ziga xos jihatlari va boy imkoniyatlaridan mohirona foydalangani asosiy ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga she’r va dostonlarida keng qo‘llangan fors va arabcha so‘z-iboralarning ham beqiyos o‘rni borligi ayni haqiqatdir. “So‘z va iboradan maqsad ma’nodir” deb

bilgan Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida turkiy tilning oʻziga xosligi va cheksiz imkoniyatlarini yoritish bilan birga arab va fors tillarining ham fasohat va tafovutlarini, ularning badiiyat ziynati yuksak qadrlanishini ham e’tirof etadi. Bu ilmiy-nazariy qarashlar qanchalar asosli ekanligiga Navoiy va boshqa mumtoz adiblarimiz ijodi misolida ham ishonch hosil qilish mumkin. Chunonchi, benazir zullisonayn shoirimizning ruboiylaridan biriga razm solaylik:

Xub el bila suhbat tutubon, xub oʻlgʻil,
Yaxshini talab qilgʻil-u matlub oʻlgʻil.
Shirin soʻz ila xalqqa margʻub oʻlgʻil,
Yumshoq de hadisingni-yu mahbub oʻlgʻil.

Tomchida quyosh aks etganidek, Navoiyning hamisha insonlarni komillikka boshlashdek oliyjanob maqsadi va chuqur hayotiy gʻoya-fikrlarni goʻzal shaklda ifodalash san’ati ushbu muxtasar she’rida ham yaqqol namoyon boʻladi. She’r matnidagi barcha soʻzlar ma’nodor va ohangdorligi bilan uning ta’sirchanligini oshiradi. Garchi qofiyalari arabcha va forscha soʻzlar boʻlsa-da (xub – yaxshi, matlub – talab qilingan, margʻub – yoqimli, mahbub – sevimli, doʻst ma’nolarida qoʻllangan), ular oʻzbekcha soʻz-iboralardek asosiy fikr va tuygʻularni kuchaytirib, she’rning gʻoyaviy mazmunini yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Soʻzni gavhar va malham deb bilgan Navoiy ruboiy matnidagi har bir soʻz, tovush-ohangigacha e’tibor bergan. Navoiyning adabiy-estetik qarashlari va badiiy til boʻyicha bunday mahorat saboqlari va qutlugʻ an’analari keyingi asrlarda ham koʻplab ijodkorlar tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi. Ular tilimiz ravnaqi uchun yanada muhim va zarurdir.

Navoiy davrida arabcha-forscha soʻz va iboralar qoʻllanishi ham ijodiy bir an’ana boʻlib, ular xalqlarning tarixiy oʻtmishidan guvohlik berishi bilan birga ularning yashash tarzi, tili, dini, madaniyati va ruhiyatidagi oʻzaro yaqinlik hamda mushtaraklikni ham aks ettirib turadi. Bu esa tillarning bamisoli bir guldasta yanglig‘ oʻzaro bir-birini boyitishidan hamda adabiy asarlar mazmuni, ohangdorligini kuchaytirishidan ham yorqin dalolatdir. Navoiyning zullisonaynlik bobidagi bunday mahorat saboqlari va

qutlug‘ an’analari keyingi asrlarda ham ko‘plab yetuk shoir-u yozuvchilarimiz tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi. Jumladan, Gulxaniy, Uvaysiy va Nodira, Muqimiy va Furqat she’riyatida fors-arabcha so‘zlarning keng qo‘llangani badiiy tilning serqirraligini ko‘rsatadi. Gulxaniyning “Zarbulmasal”idagi tuyaning bo‘taloqqa aytgan “Menda bo‘lsa edi ixtiyor, Bo‘lmas edim zeri bor” (ya’ni yukning ostida) degan so‘zlarida forscha ibora orqali mehnatkash xalqning erksiz, haq-huquqsiz yashagani obrazli tarzda chuqur ifodalanganini anglash qiyin emas.

Navoiy, Boburlar qat’iy amal qilgan bu estetik tamoyillar adiblar uchun ijodning muhim qoidalaridan biriga aylangan. Bunday xususiyatlar zamonaviy adabiyotimizga ham xosdir. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida ham ko‘plab arab-forscha so‘zlarga duch kelamiz. Bulardan tashqari, ushbu romanlarda fors adabiyotining buyuk namoyandasi shayx Sa’diy, ulug‘ ozarbayjon shoiri Fuzuliylarning nodir asarlaridan iqtiboslar ham keltirilgan. “Mehrobdan chayon” romanida Sa’diyning quyidagi hikmatomuz she’ri Anvar, Ra’no va Sultonalilarning chinakam do‘stlik haqidagi umumiy qarashlarini teran ifodalagan:

“Bisho‘y, ey xiradmand, az on do‘st dast,
Ki bo dushmanonat buvad ham nishast”[20].

(Ya’ni: Ey hushyor kishi, dushmanlaring bilan birga o‘lturishkan-hamsuhbat bo‘lgan do‘stingdan qo‘l yuvgil).

Fors va arab tillarini yaxshi bilish va bu tillardagi so‘zlarning ma’nolarini chuqur tushuna olish nafaqat mumtoz adabiyotimiz, balki hozirgi zamon adiblarining ham asarlari ma’no-mazmuni va muallifning g‘oyaviy-badiiy maqsadini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Fors-tojikcha so‘z va iboralar Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayev asarlarida ham san’atkorona qo‘llangan.

Muayyan milliy adabiyot rivoji va u yoki bu yozuvchi mahoratining takomillashuvi qator obyektiv-subyektiv omillarga bog‘liq bo‘lib, jumladan, ijodiy an’ana, adabiy ta’sir, ya’ni genealogiya va tipologiya shakllari muhim ahamiyat kasb etadi. Genealogik asos har bir xalq adabiyotining o‘zligi, milliy badiiy-

[20] Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Media press, 2008. – B. 537.

estetik tafakkuridagi xosliklar va ularni ifoda etuvchi an’ana va yangiliklar uyg‘unligidir[21]. Adabiy ta’sir qo‘shni, yondosh, zamon va makon doirasi turlicha bo‘lgan adabiyotlar va mumtoz adiblar ijodidan o‘rganish asosidagi takomillashuv manbayi, jarayoni va mahsulidir, deb tavsiflash mumkin.

Tipologiya – ilmiy-nazariy manbalar va lug‘atlarda izohlanishicha, vaqt va makon, davr va zamondan qat’iy nazar, turli adiblar ijodi va milliy adabiyotlararo dunyoqarash, irq, din, taraqqiyotiga bog‘lanmagan ravishda, badiiy tafakkur xosliklarida zohir bo‘luvchi ijodiy metod, yo‘nalish, oqim, ijod tipi va uslubdan tortib, har bir san’atkor ijodida dunyo va insonni ko‘rish, ularni badiiy aks ettirish masalalarida namoyon bo‘luvchi yaqinlik, o‘xshashlik, muqobillik, hamohanglik, ayniyatdoshlikdir. Badiiy adabiyotning bu qonuniyati aniq yozuvchi ijodi hamda muayyan milliy adabiyotni qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida jahon adabiyoti yoki muayyan regionlar kontekstida o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Shoir-yozuvchilar, milliy adabiyotlarning keng miqyosli adabiy jarayondagi o‘rnini yorituvchi turkum asarlar va tadqiqotlar yuzaga kelishiga manba bo‘lishi mumkin. Biroq bu o‘rinda adabiy ta’sir masalalariga doir izlanishlarda e’tiborli ishlarimizdan tashqari, sho‘ro davrida ko‘plab biryoqlamalik va xatoliklarga yo‘l qo‘yilganini aytish joizdir. Ya’ni sho‘ro davrida, umuman, sobiq Ittifoq miqyosida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham adabiy ta’sir masalasiga badiiy mezonlardan ko‘ra, asosan, sotsialistik g‘oya, muammo, mavzu, dunyoqarash nuqtayi nazaridan qaraldi. Shuningdek, tajribali, mahoratli yozuvchilarimiz jahon adabiyotining ilg‘or namunalaridan ijodiy o‘rganishi, ilhomlanishi va ta’sirlanishi mumkin bo‘lgani holda, xorij adabiyotini va tillarni yaxshi bilmasligimiz va, ayniqsa, mafkuraviy tushov, xususan, mumtoz asarlar va adiblar ta’sirini hisobga olmaganda, bu masaladagi zamonaviy jarayonga panja orasidan qarash keng yoyildi. Taniqli adiblarimiz va olimlarimizning bu ijobiy omilga ijobiy va ijodiy munosabatiga ham jiddiy e’tibor berilmadi. XX asr adabiyoti vakillari ijodiga bag‘ishlangan ayrim adabiyotshunoslik tadqiqotlarida va ba’zi

[21] Nazarov B. Ijodning jon tomiri. – Toshkent, 2024. – B. 25.

darslik-qo‘llanmalarda adabiy ta’sir masalalarini o‘rganishda ham sotsialistik inqilobiy g‘oya va hukmron partiyaviy mafkura bilan bog‘liq ko‘plab biryoqlama talqinlar va bahsli qarashlarga duch kelamiz. Masalan, ko‘p yillar davomida eng asosiy va nufuzli darslik bo‘lib kelgan o‘zbek va rus tilida nashr qilingan “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi ocherklari”da ham adabiyotimizga Gorkiy va Mayakovskiy ta’siri haddan oshirib, maqtab, bo‘rttirib yuborilgan: “Davrimizning buyuk shoiri Mayakovskiy o‘zbek shoirlarining ijodiy o‘sishida katta rol o‘ynagan. Mayakovskiy maktabini o‘tamagan, undan o‘rganmagan bironta ham o‘zbek shoiri yo‘q”[22]. Taassufki, maktablarimizdagi yuqori sinflarning “O‘zbek adabiyoti” darsliklari ham shu ikki adibning revolyutsion asarlari bilan boshlanar, adabiyotimizdagi ijodiy izlanish va poetik yangilanishlar ham, asosan, sovet adabiyoti, ayniqsa, Gorkiy va Mayakovskiy ta’siri samarasi degan sun’iy ko‘pirtirishlar urf bo‘lgandi. Adiblarimiz ijodining hayotiy manbalariga ko‘proq e’tibor berish o‘rniga ularning iste’dodi va o‘ziga xosligini kamsituvchi biryoqlama talqin-xulosalar takrorlanib kelindi. Bunday kamchilik-bo‘shliqlarni bartaraf etish ham darsliklarimiz mualliflaridan biri – O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek, yangi istiqlol davri adabiyotshunosligining muhim bir vazifasi bo‘lishi lozim. Adiblarimiz asarlarining hayotiy va badiiyligi sirlarini revolyutsion g‘oyalar ta’siridan emas, balki mumtoz adabiyotimiz, milliy tafakkurimiz ildizlaridan izlash to‘g‘riroq bo‘ladi. Badiiy ijod va adabiyotshunoslikning bunday muhim muammolari ham jiddiy o‘rganishni taqozo etadi. Adabiyotimiz va tanqid-adabiyotshunosligimizga siyosiy mafkuraning g‘arazli bosimi, g‘ayriilmiy talqinlarining salbiy oqibatlari endilikda ayon bo‘lmoqdaki, bunday qusurlar ham adabiyotimiz tarixi va tadrijiy rivojlanish jarayonlarini chuqur yoritishga xalal beradi. Shu bois, ishimizda bu muammoni kengroq yoritishga e’tibor qaratildi.

Hukmron kompartiyaning san’at va adabiyot tabiatiga zid bo‘lgan siyosiy qarashlari sotsialistik realizm metodi tamoyillarini ham mafkuraviy qolip-quyushqonga aylantirdi. Yuqorida ko‘rsatilgan ikki jildlik fundamental “Adabiyot nazariyasi”da

[22] Ўзбек совет адабиёти тарихи очерклари. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1962. – 720 б.

romantizm va realizm ijodiy metodlariga bag‘ishlangan bobida Moskvada (Rossiya) chop etilgan “Теория литературы” (“Высшая школа”, 1970) darsligidagi noto‘g‘ri fikrlar muhim ilmiy-nazariy asos sifatida aynan takrorlangan:

“Романтизм обычно рассматривается лишь как литературное направление, сложившееся в Европе в конце XVIII – начале XIX века” (Теория литературы. – «Высшая школа», 1970. – С. 232). “Romantizm ijodiy metodi XVIII asr oxiri – XIX asr boshida Yevropa va Amerika adabiyotida paydo bo‘ldi”[23].

Holbuki, romantizm va gumanizmning yuksak bir cho‘qqisi bo‘lgan Nizomiy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Atoiy, Sakkokiy, Fuzuliylar ijodi XIV–XVII asrlardayoq shuhrat qozongani va XVI asrda realizmning betakror bir namunasi sifatida yaratilgan “Vaqoye” (“Boburnoma”)dek asarlar dunyo adabiy jamoatchiligiga yaxshi ma’lum edi. Yoxud qator darsliklarimizning asosiy mualliflaridan bo‘lgan va “ijodning jon tomiri”ni chuqur anglagan zabardast adabiyotshunoslarimizdan akademik Baxtiyor Nazarovning “O‘zbek adabiy tanqidchiligi” (1979) nomli monografiyasida ham adabiyotimiz va tanqidchiligimiz shakllanishi va rivojida Oktabr revolyutsiyasi va marksizm-leninizm ta’limotining roli behad ulug‘langan. G‘arazli mafkuraning talab va ta’qiqlari shu darajada ediki, o‘zbek tanqid-adabiyotshunosligi tarixiga bag‘ishlangan ushbu yirik kitobda Marks, Engels, Lenin asarlari (anchayin xatlarigacha) o‘nlab sahifada yuqori baholangan. Biroq turkiy (o‘zbek) tilimizda ilk bor yaratilgan va tanqid-adabiyotshunoslikning betakror namunasi bo‘lgan “Majolis un-nafois”dek ilmiy-adabiy va tarixiy jihatdan nodir asar esa bir o‘rindagina tilga olingan, xolos. Boz ustiga, hanuzgacha adabiyot tarixi va tanqid-adabiyotshunoslik bo‘yicha eng mo‘tabar manba bo‘lib kelayotgan va to‘rt marta fors tiliga tarjima qilingan ushbu betakror tazkira xususida biror iliq so‘z aytilmay, aksincha, Navoiy davrida “badiiy asarning shakliga e’tibor berildi”, – deya bahsli fikr bildirilgan (9-bet). Sovetlar davrida yozilmagan “temir qonun”ga aylangan bunday mafkuraviy talqinlar birgina akademik B.Nazarovning asarida emas, balki aksariyat adabiyotshunoslik tadqiqotlarida va darslik-

[23] Адабиёт назарияси. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 232.

qo‘llanmalarimizda ham asosiy o‘rin egallagan edi. Endilikda tanqid-adabiyotshunosligimiz mumtoz adabiy merosimizga nisbatan g‘arazli mafkuraviy biryoqlamaliklar va ta’qiqlar bilan bog‘liq jiddiy qusurlardan asta-sekin qutulib bormoqdaki, bu ham yangicha tamoyillardan guvohlik beradi.

Adabiy janrlar borasida ham adabiy an’ana va ijodiy ta’sir masalalari xususida turli xil fikr-qarashlar davom etib keladi. Masalan, hassos adabiyotshunos Normamat Yo‘ldoshevning “Cho‘lpon she’riyati poetikasi va janrlari” (2024) mavzusidagi zalvorli tadqiqotida she’riy shakllar va vaznlar, asosan, to‘g‘ri tasniflangani holda “Bag‘ishlov janri o‘zbek she’riyatiga rus va Yevropa adabiyotidan kirib keldi va Oktabr revolyutsiyasidan keyin rivoj topdi”, degan xulosasi ilmiy-nazariy, tarixiy jihatdan bahsli ko‘rinadi. Birgina hazrat Navoiyning Said Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Jomiy va Husayn Boyqarolarga bag‘ishlangan asarlari yoxud Jomiy vafoti (1492) munosabati bilan bitgan “Qani” radifli mashhur marsiya she’ri “bag‘ishlov” janrining yetuk namunalari ekanligi shubhasiz. Cho‘lpon, S.Ayniylarning Behbudiy vafotiga bag‘ishlangan marsiya she’rlari yoxud Shayxzoda va Abdulla Oripovlarning G‘afur G‘ulom vafoti munosabati bilan yaratgan ko‘rkam she’rlari ham bu janrning yetuk namunalari bo‘la oladi. Ular Navoiy kabi buyuk ustozlarning yuksak poetik an’analarining ijodiy bardavomligini ko‘rsatishi bilan birga o‘ziga xos zamonaviy ifodalari bilan ham kitobxonlar e’tiborini jalb etadi.

Shu munosabat bilan akademik B.Nazarov ta’kidlaganidek, adabiy ta’sir degan tushunchaning jahon adabiyoti tarixida bu miqyosda kamdan-kam uchrovchi bir muammosi, ya’ni uning salbiy qirrasi ham mavjud ekanligiga e’tibor qaratish lozim. Biz adabiy ta’sir degan tushunchani faqat ijobiy ma’noda tushunib va ishlatib kelamiz. Holbuki, sho‘ro adabiyoti tarixi, uning sotsialistik yo‘nalishdagi mamlakatlararo adabiyot, shuningdek, o‘zbek adabiyotiga bir qator adabiy-badiiy qadriyatlarda salkam bir asr mobaynidagi ta’siri shunday xulosa chiqarishga asos beradiki, adabiy ta’sir zarur, ijobiy, maqbul va matlub bo‘lishi bilan bir qatorda, salbiy bo‘lishi ham mumkinligini inkor etib bo‘lmaydi.

Ayniqsa, Oktabr revolyutsiyasini madh etish, Lenin va partiyani ulug‘lash kabi shiorbozliklar, formalizm va deklarativlik kabi illatlar butun sovet adabiyotida ommaviy tus olgani achchiq tarixiy haqiqat. Biroq shuni ham tan olmoq kerakki, avvalgi davr mobaynidagi adabiyotimiz yutuqlari ham, kamchiliklari ham tarixan haqqoniy va xolis o‘rganilmog‘i kerak. Shunda o‘sib kelayotgan yangi avlod XX asr adabiyotimiz manzaralari haqida haqqoniy tasavvurga ega bo‘ladi. Sho‘ro davrida jadid adabiyotini kamsitib-qoralab, nuqul sovet zamoni adabiyotini o‘rganish va madh etish asosiga qurilgan tadqiqotlar ham o‘zining munosib tahlili va bahosini oladi.

Adabiy ta’sir deganda biz ko‘pincha ijodiy yaqinlik va o‘xshashliklarni, adabiyotimizda ta’sir tufayli paydo bo‘lgan yangiliklarni nazarda tutamiz. Lekin adabiyot tarixining dalolat berishicha, ayrim adiblar ijodida adabiy ta’sir sifatida paydo bo‘luvchi yangilik faqat o‘xshashlikkina emas, bu yuksak mahorat belgilaridan biridir. Masalan, L.N.Tolstoy va A.M.Gorkiyning “Bolalik”, “O‘smirlik”, “Yoshlik”, “Odamlar orasida”, “Mening dorilfununlarim” kabi asarlarining Abdulla Qahhor qalamiga mansub “O‘tmishdan ertaklar” qissasiga ko‘rsatgan ta’siri natijalari, nazarimizda, shunday xulosa chiqarishga asos beradi. Yuqoridagi ustoz yozuvchilarning bir qator ijodiy tamoyillari nechog‘lik faol ta’sir etmasin, “O‘tmishdan ertaklar”da Abdulla Qahhor o‘ziga ta’sir etgan adiblarga nisbatan uslub, shakl, ayniqsa, kompozitsiya masalalarida o‘xshamaslikka harakat qiladi va bunga erishadi ham. Bu yozuvchi ijodida ta’sir nechog‘lik muhim ahamiyatga ega bo‘lmasin, teran badiiy asarda genealogik asos yetakchilik qilishiga yorqin misoldir. Shuningdek, bizning adabiyotimizga Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatov, Qaysin Quliyev, Dovud Kug‘iltinov, Mustay Karim asarlari ta’siri va o‘z navbatida, o‘zbek adabiyotining turkman, tojik, qoraqalpoq, qozoq adiblari ijodiga ta’sirini keng yorituvchi salmoqli tadqiqotlar yaratilmaganligi ham tanqid va adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridan sanaladi. Shu ma’noda, Yevtushenko, Voznesenskiy, Rojdestvenskiy, Dementev asarlari bilan E.Vohidov, A.Oripov, M.Ali, O.Matjon asarlari o‘rtasida XX asrning 70–80-

yillarida namoyon boʻluvchi ayrim oʻxshashliklarga, mushtaraklikka adabiy ta’sirdan koʻra tipologik yaqinlik sifatida qarash toʻgʻriroq boʻladi. Zero, bu – oʻzbek shoirlari ijodida bot-bot koʻrinib, borgan sari kuchaygan oʻzlik va uning dardlarini bugun va oʻtmish misolida aks ettirish rus shoirlaridagi kabi, asosan, shoʻro tuzumini fosh etish, tanqid qilishgina emas, shu bilan birga, dil tubida choʻkib yotgan istibdoddan, mutelikdan, qullikdan qutulish istaklarining ham ifodasi edi. Buni anglash uchun tamomila bir-biriga oʻxshamaydigan E.Vohidovning “Ruhlar isyoni” bilan R.Rojdestvenskiyning “Oʻttizinchi asrga maktub” hamda Muhammad Alining “Gumbazdagi nur” bilan A.Voznesenskiyning Vasiliy Blajenniy ehromi quruvchilari haqidagi “Ustalar” nomli dostonlarini qiyoslashning oʻzi kifoya.

Adabiy ta’sir masalasi oʻzbek adabiyotiga rus adabiy ta’siri muammosi bilangina chegaralanmaydi, albatta, u mumtoz adabiyotimizdagi ta’sirlanish masalalarini, shuningdek, oʻzbek adabiyotining jahon adabiyotidan oʻrganish orqali boyish va yangilanishlarni, qiyosiy adabiyotshunoslikning tarjima va ta’sir kabi muhim yoʻnalishini hamda oʻz adabiyotimizda bir yoki bir necha bosqichlarda roʻy bergan hodisalarni ham oʻzida namoyon etadi.

XX asrning soʻnggi choragiga kelib mutaxassislarimiz bu masalada xalqaro miqyosdagi kasbdoshlarining izlanishlariga hamohang boʻlishga intildilar. Ma’lumki, konvergensiya badiiy ijoddagi mustaqil sifatlarning ba’zi belgilari va alomatlariga koʻra bir-biriga oʻxshashligi va yaqinligidan iborat hodisadir. Ana shu tipologik hodisalarning yuzaga kelish sabablarini ochish, ularning badiiy asar yoxud milliy adabiyotdagi boshqa komponentlar bilan aloqadorligi va bogʻliqligini koʻrsatish va, ayniqsa, bu oʻxshashlik va yaqinlikda zohir boʻluvchi farqni ham aniqlay bilish, ularning aniq san’atkor yoxud milliy adabiyotdagi yangilanuv va takomilda oʻynovchi rolini ilmiy yoritish va dalillash tipologiya hodisasini oʻrganuvchi tadqiqot metodologiyasiga qoʻyiluvchi asosiy talablardir. Masalan, oʻzbek adabiyotida roman janrining paydo boʻlishiga ta’sir etgan omillar sifatida, koʻpincha, muayyan ma’noda, “Xamsa”miz, turli dostonlarimiz, “Boburnoma”, “Qissayi

Rabg‘uziy”ni ko‘rsatamiz, so‘ng rus va jahon adabiyoti ta’sirini, albatta, ta’kidlaymiz. Bular to‘g‘ri, lekin o‘zbek adabiyotida roman janri paydo bo‘lishiga sabab, asosiy omil – xalqning, millatning romantik tafakkur natijasidagi yangicha shakldagi qamrovli asarga bo‘lgan ehtiyojidir. Konkret asardagi, muayyan milliy adabiyotdagi jahonning turli davrlari va xalqlari adabiyoti bilan qiyosan o‘rganilib aniqlanayotgan tipologik hodisa ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan natija emas, u ham yozuvchining, millat adabiyotining, bu adabiyotga mansub xalqning estetik ehtiyoji sifatida tug‘iluvchi hodisadir.

Anatol Fransning “Farishtalar isyoni” romani bilan buyuk jadid adibimiz Abdurauf Fitratning “Shaytonning Tangriga isyoni” o‘rtasidagi ayrim jihatlarda namoyon bo‘luvchi tipologik muqobillikda, fransuz adibining o‘z davridagi fransuz jamiyatida hukm surgan nohaqliklar keskin tanqid etilsa, Fitrat asarida esa Turkiston xalqini ozodlikka chorlash, istibdodga qarshi isyon ko‘tarishga da’vat etish g‘oyalarining ilgari surilishi zamirida tagqatlamli, yashirin, ko‘chim ma’noli maqsadlar yotadi. Yoki mashhur adib, Nobel mukofoti sovrindori Ivan Buninning “Amir Temur haqida qo‘shiq” (1921) hikoyasi bilan Fitratning “Temir sag‘anasi oldida” (1917) nasriy she’ri o‘rtasidagi ayrim g‘oyaviy-badiiy va tipologik yaqinlikni ko‘rib hayron qolmaslik mumkin emas. Holbuki, o‘zbek adibi asari 1917-yilda, rus yozuvchisi hikoyasi 1921-yilda yozilgan. Ivan Bunin Fitratning bunday asar yozganidan bexabar bo‘lgan. Bu qadar yaqinlik, o‘xshashlikning sababi shundaki, sohibqiron ruhiga lirik qahramon (bu o‘rinda Fitratning o‘zi) murojaatida o‘zbek adibi qalbidagi Istiqlol g‘oyalarining besabr va teran nidolari o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, Bunin hikoyasidagi qahramon nolalarida sho‘ro inqilobini qabul qilmagan, unga qarshi bo‘lgan va hatto Vatanini tashlab, Fransiyada muhojirlikda yashashni afzal ko‘rgan rus adibining qalb iztiroblari, sho‘ro hukumatining yashirin bosqinchi niyatlarini fosh etuvchi qarashlar o‘z ifodasini topgan. Yana bir xarakterli misol: Monteskyening “Fors nomalari”idagi qator jihatlar bilan Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” o‘rtasidagi o‘zaro namoyon bo‘luvchi tipologik hodisalar o‘z-o‘zidan yaralmagan,

ular taraqqiyotga chorlab, oʻzbek xalqining koʻzini ochish, uni uygʻotish, xurofotdan qutqarish, bosqinchilar oyogʻi ostida toptalmasligi uchun ijtimoiy ehtiyojning badiiy-publitsistik koʻrinishlari sifatida paydo boʻlgan. Ota-bobolariday el-yurtga sodiq boʻlgan Togʻay Murod ham soxta va mash'um sotsializmning nogʻorasiga oʻynamadi, Vafo Fayzullo kabi ijodkorlar faxrlanib aytganidek, zamonga, tuzumga yaltoqlanmadi. Yosh adib oʻzi orzu qilganiday, A.Qodiriy, Choʻlpon, Oybek, A.Qahhorlar yoʻlini tanladi. Qodiriyning kichik epik asarlarini kuzatar ekanmiz, uning ilk hikoyalari misolida adibning mumtoz adabiyot daholarining asarlaridan oziqlanganini, yozma adabiyot an'analaridan xabardorligini va shu an'analarning ijodiy hosilasi sifatida oʻziga xos ijod namunalari yarata olish salohiyatiga ega boʻlganini koʻramiz. Togʻay Murodning quyidagi fikrlari uning asarlaridagi tabiat va inson ruhiyatini tasvirlashdagi oʻziga xoslikni tushunishimizda alohida e'tiborga molikdir: "Hayotni ushlab turadigan, hayotni olgʻa olib boradigan katta bir kuch bor, oʻzgarmas bir qudrat bor. Bu – tabiat. Tabiatning rangi koʻk, koʻm-koʻk. Shunday ekan, hayotning rangi-da koʻm-koʻk. Yozuvchi-shoir ana shu koʻm-koʻklikka qaytadi. Asr-asrlardan buyon ana shunday boʻlib kelgan…".[24] Togʻay Murod oʻz xarakteriga koʻra tabiatga yaqin yozuvchi ekanligi, hayvonot olamini sinchiklab oʻrgangani, ot va boshqa hayvonlarga xos xususiyatlar yuzasidan yetarlicha bilimga egaligi asarlarining poetik jihatdan ta'sirchan, haqqoniy va ishonchli chiqishiga yordam bergan, albatta. Ayniqsa, Chingiz Aytmatov asarlarida hayvonlarning obrazlari insoniyat dunyosini aks ettirish, tabiatni himoya qilish va avaylab-asrash borasidagi gʻoyalarni tashishga xizmat qiladi. Bunday tasviriy uslub dunyo adiblari ijodiga, shu jumladan, oʻzbek adiblariga ham qaysidir ma'noda oʻz ta'sirini oʻtkazdi. Bu masalada professor Y.Solijonov: "Chingiz Aytmatov asarlarida ifodalangan gʻoyaviy fikrlar, inson va jamiyat, inson va tabiat, inson va hayvonot olami, inson va din, muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik singari umumbashariy muammolar, uni ifodalashga xizmat qiladigan obrazlar galereyasi, ular oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, ziddiyatlar tasviri oʻzbek

[24] Togʻay Murod. Saylanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – B. 93

ijodkorlari asarlarida ham muhim o‘rin egallayotgani quvonarlidir”, – deb o‘rinli ta’kidlaydi. Bu fikrga umuman qo‘shilgan holda, unda ma’lum darajada o‘ylab ko‘riladigan bahsli jihat ham bordek ko‘rinadi. Taniqli adabiyotshunos Y.Solijonovning N.Norqobil va T.Murod kabi adiblar ijodida tabiat tasvirining keng o‘rin tutishini ko‘proq Ch.Aytmatov asarlari bilan bog‘lab izohlashi bahslidir: tabiat tasvirining yuksak namunalarini Aytmatovdan yuz yillar avval Navoiy, Bobur va Qodiriylar yaratib bergan va bular keyingi avlod vakillari uchun ijodiy an’ana bo‘lib xizmat qilgan.

XXI asrdagi o‘zbek tanqidchiligi va adabiyot ilmining muvaffaqiyatlari badiiy asarlarni, yozuvchi mahoratini genealogik, adabiy ta’sir hamda tipologiyaning o‘zaro uyg‘unligida nechog‘lik teran o‘rgana olishiga ham bog‘liq bo‘ladi[25].

1.2-§. Adiblar ijodida an’ana va ijodiy ta’sir omillari

Adabiyot tarixi va tadrijiy muammolarini o‘rganish hamisha dolzarb mavzu sanalgan. Zero, badiiy ijod va san’at sohasining ham o‘ziga xos rivojlanish omillari va qonuniyatlari mavjud. O‘tmishda yashab ijod etgan mumtoz san’atkorlar asarlarini o‘rganish va ulardan ilhomlanib, ijodiy ta’sirlanish, ustoz-salaflarning ilg‘or adabiy an’analarini ijodiy davom ettirish, ya’ni adabiyot va san’atda an’anaviylik va novatorlik badiiy ijod va san’at taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlari sanaladi. Muayyan xalqlar adabiyotida ko‘p asrlar davomida shakllangan va rivojlangan adabiy an’analar badiiy ijodning keyingi taraqqiyotiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Jahon adabiyoti tarixidan va hozirgi adabiy jarayondan ham bunga ko‘plab misollar topiladi, biroq ba’zi adabiyotshunoslar ijodiy ta’sir jarayonini yuzaki tushunadi va ularning xulosalari ham ko‘pincha adabiy hodisalarning tashqi jihatlariga tayanib chiqarilgan bo‘ladi. Jumladan, rus va o‘zbek adabiyoti o‘rtasidagi adabiy aloqalar va ijodiy ta’sir muammolarini o‘rganishda ana shunday bo‘rttirish va biryoqlamalik ko‘zga tashlanadi. Masalan, adabiyotshunos M.A.Begjonovaning rus tilida nashr etilgan “N.V.Gogol va Abdulla

[25] Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари. Биринчи мўъжиза. – Тошкент, 1979. – Б. 292-293.

Qodiriy”[26] nomli risolasida bu ikki ulug‘ yozuvchi ijodi xususida ko‘pgina qimmatli mulohazalar bayon etilgan. Ammo shu bilan birga, Abdulla Qodiriyning deyarli har bir asari va undagi turli holat va epizodlardan ijodiy ta’sirning izlarini topishga ortiqcha harakat qilinganga o‘xshaydi. Shu tariqa Abdulla Qodiriy asarlaridagi ayrim hayotiy voqea-hodisalar tasvirini ham adabiy ta’sirlanish natijasi sifatida talqin etish hollari uchraydiki, bular, albatta, kitobxonda haqli e’tiroz tug‘diradi.

Masalan, buyuk adibimiz o‘zining “O‘tkan kunlar” romanida “To‘y. Qizlar majlisi” deb nomlangan faslida Kumush va uning yaqin dugonalarining tog‘asining uyidagi o‘tirishlarini xalqimizning milliy va azaliy urf-odatlariga muvofiq tarzda “gullar, lolalar, to‘tilar, qumrilar majlisi” degan shoirona tashbeh-o‘xshatishlar bilan g‘oyat jozibador qilib tasvirlab beradi. Kumush va uning yaqin dugonalarining o‘y-kechinmalari va ruhiy holatlari hayotiy va haqqoniy ifodalangan mana shu tasvirlarni tadqiqotchi M.Begjonova rus adibi Gogol ijodining ta’siri bilan bog‘lab izohlaydi, ya’ni Qodiriy Kumush va dugonalarining to‘y kechasi oldidan yasanib-tusanishi kabi harakatlarini Gogolning qahramonlaridan biri bo‘lgan o‘n olti yashar qiz Oksananing ko‘zguga qarab o‘ziga oro berishi va “rojdestvo” diniy bayramiga tayyorgarlik ko‘rishi tasviridan ilhomlanib, go‘yo unga taqlid qilib, unga o‘xshatib tasvirlagan emish.

Xuddi shunday, tadqiqotchi Gogolning “Taras Bulba” nomli qissasidagi bosh qahramon keksa Taras Bulba bilan Abdulla Qodiriy yaratgan Obid Ketmon obrazining polvonsifat tashqi o‘xshashliklarida ham adabiy ta’sir hodisasini “kashf” etgandek bo‘ladi[27]. Aslida har qanday balog‘atga yetgan qiz yoki yosh kelinning, ular qaysi millatga mansub bo‘lmasin, to‘y kechasi yoki bayram arafasida yasanib-tusanishi, oynaga qarab o‘zlariga oro berishi kabi harakatlari azaldan ma’lum urf-odatlar-ku. Fikrimizning dalili sifatida Abdulla Qodiriyni o‘ziga ustoz deb bilgan yosh adiblarimizdan Tog‘ay Murodning chuqur milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan “Oydinda yurgan odamlar” qissasidan xalq

[26] Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. – Toshkent: Navoiy nomli O‘MK, 2008. – B. 57.
[27] Бегжонова М. Гоголь и Абдулла Кадыри. Тошкент: Фан, 1983. – Б. 76

turmushi va bayramlari bilan bog‘liq bir kichik lavha tasvirini ko‘zdan kechiraylik: “Qurbon hayit bo‘ldi. Ahli mo‘minlar hayitlik kiydi. Ahli mo‘minlar orolandi”[28].

Xalq hayoti va ruhiyatini haqqoniy aks ettirgan bu ixcham, lekin ma’no-mazmuni keng bo‘lgan realistik tasvirni izohlashga hojat bo‘lmasa kerak. Demak, bunday hayotiy va yorqin lavha va epizodlar tasviri ham Gogol va Qodiriylarning hech kimga taqlid qilmasdan chinakam mohir yozuvchilar sifatida realistik san’atning asosiy bir talab-mezonidan kelib chiqib, o‘z qahramonlarining xatti-harakati va ichki kechinmalarining haqqoniy va ishonarli ifodalanishini ta’minlaganini ko‘rsatib turadi. Bunday hayotiy va tabiiy holatlar tasviridan taqlidchilik belgisini izlash tuxumdan tuk qidirishdek kulgili ish bo‘lar edi. Taassufki, yuqoridagi misollarni adabiy ta’sirga bog‘lashga uringan munaqqid yozuvchi asarlarining hayotiy va milliy manbalariga ko‘proq e’tibor berish o‘rniga, Abdulla Qodiriydek buyuk iste’dod sohibining badiiy tasvirlash mahoratini va ijodkor sifatidagi o‘ziga xosligini kamsitishga yo‘l ochuvchi asossiz fikrlarni taqdim qilgan. Bunday biryoqlama va sun’iy talqin va muqoyasalar, afsuski, o‘quvchilarni ham chalg‘itishi mumkin. Yana bir shunday bahstalab misolni ko‘rib o‘taylik. O‘zining ibratomuz ma’naviy va axloqiy mavzulardagi asarlari bilan xalqimiz orasida tanilgan sermahsul yozuvchimiz Tohir Malikning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” ro‘znomasida hamda Abdulla Qodiriyning “Diyori bakr” nomli to‘plamiga yozgan so‘zboshisida bildirgan quyidagi fikri ham shunday biryoqlamalikning bir ko‘rinishi bo‘lib tuyuladi. Ya’ni yozuvchi Tohir Malikning yozishlaricha, Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida dolzarb hayotiy muammolarni va muhim ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiqishni rus adabiyotidan va rus shoir-yozuvchilaridan o‘rganibdi ekan. Bu xulosa ustida jiddiy o‘ylab ko‘raylik. Avvalo shuki, ko‘p asrlik adabiyotimiz tarixi, xususan, Navoiyning o‘z davrining eng murakkab va dolzarb muammolarini yoritgan yirik dostonlarini esga olaylik. Yoki buyuk shoirimizning to‘rt yo ikki misradan iborat kichik manzumalarida ham qanchalar chuqur va insoniy fikr va g‘oyalar teran ifodalangani

[28] Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Sharq NMAK, 2018. – B. 44

isbot talab qilmasa kerak. Ularning deyarli barchasida inson hayotining maqsad-mohiyati to‘g‘risida jiddiy mushohada yuritilganiga minglab kitobxonlar amin bo‘lishgan. Yoki XIX asrda Muqimiy va Furqatlarning sof ishqiy she’rlarida ham muhim ijtimoiy g‘oya-fikrlar ifodalanmaganmi va ulardan Qodiriydek ulug‘ san’atkorimiz bexabar bo‘lganmi?

Shu munosabat bilan yana bir adabiy an’anaviylikka e’tibor qaratish o‘rinli bo‘ladi. Ma’lumki, ko‘p asrli xalq og‘zaki ijodida ham, mumtoz va XX asr adabiyotimizda ham hajviy asarlar katta o‘rin tutadi. Bu holat ham, avvalo, ijtimoiy hayot va davr-muhit bilan chambarchas bog‘liq hamda shoir va yozuvchilarimiz iste’dodining serqirraligi bilan ham izohlanadi. Jumladan, Navoiy ham zulm va adolatsizlik avj olgan nobop jamiyatdagi illatlarni keskin qoralab, zolim hukmdorlar, din-u diyonatsiz va maxluqsifat kimsalarning qabihlik va pastkashliklarini o‘tkir hajv tig‘i bilan ayovsiz fosh etganligi alohida e’tiborga loyiqdir. Yoxud ijtimoiy mazmundorligi va yuksak poetik mahorati bilan adabiyotimiz tarixida yangi sahifa ochgan Turdi, Muqimiy, Maxmur va So‘fizodalarning kuchli hajviy asarlari xalqimiz tafakkuri va ma’naviyatini yuksaltirishda beqiyos ahamiyat kasb etganligini ta’kidlash lozim. Bu adabiy izdoshlik XX asr adiblari ijodida muvaffaqiyatli davom etgani va badiiy so‘z rivojining samarali bir yo‘nalishini tashkil etgani ayni haqiqatdir. Bu jihatdan Qodiriy so‘zlari yanada chuqur mazmun kasb etadi: “Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dostonchilik, ro‘monchilik va hikoyachiliklarda ham yangi asarlar yaratishga, xalqimizni shu zamonning “Tohir-Zuhra”lari, “Chor darvesh”lari, “Farhod-Shirin” va “Bahromgo‘r”lari bilan tanishtirishga o‘zimizda majburiyat his etamiz”. Yuz yil avval aytilgan bu fikrlar bugun ham yosh adiblarga muhim ijodiy bir dastur bo‘la oladi.

Darhaqiqat, jahon adabiyoti tarixida yangi bir ijodiy maktab bo‘lgan o‘zbek romanchiligiga asos solgan Abdulla Qodiriyning yangi davr o‘zbek satirasining shakllanishi va rivojida ham xizmati beqiyosdir. Ulug‘ adibimizning “Toshpo‘lat tajang nima deydi?”,

“Kalvak maxzumning xotira daftaridan” va “Sharvon xola nima deydi?” kabi turkum hikoyalaridan tashqari ijodining boshlanishida yozgan “Ahvolimiz”, “Millatimga” kabi she’rlarida, “Juvonboz” dramasi va qator publitsistik maqolalarida ham uning noyob iste’dodining muhim bir qirrasi bo‘lgan hajvchilik iqtidori yorqin namoyon bo‘lgandi. Adibning mashhur romanlari kabi satirik asarlari ham ijtimoiy hayot haqiqatini haqqoniy aks ettirganligi va chuqur xalqchilligi bilan ajralib turadi va ular o‘zbek adabiyoti va badiiy publitsistikasi tarixida ham munosib o‘rin tutishi shubhasizdir. Mustaqillik sharofati bilan buyuk adib ijodi va uning o‘lmas romanlari behad qadrlanmoqda. Ammo adibning betakror talanti va badiiy mahoratining samarasi sifatida yaratilgan satirik asarlari yetarli darajada tadqiq etilgan deb aytolmaymiz.

Mashhur so‘z san’atkorining “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” satirasida qahramon hayoti va tabiatining yoritilishi va “Kalvak maxzumning xotira daftaridan” asarida satirik tiplar psixologiyasining aks etishi muammolari mazkur asarlarning nafaqat Qodiriy ijodida, balki o‘zbek adabiyotining keyingi davridagi rivojida ham muhim ahamiyat kasb etganligi chuqur tahlilga munosib.

Qodiriy hajviy asarlari bilan ham folklor va o‘zbek adiblarining satira va yumor sohasidagi an’analarini izchillik bilan ijodiy davom ettiradi. Birgina misol: Gulxaniy hajviyotida ayrim kosiblar, jumladan, no‘noq po‘stindo‘zlar kulgi ostiga olinadi. U tikkan po‘stinning tikishi orasidan musht o‘tkazsa bo‘larkan. Shunday obrazlarni A.Qodiriy ham yaratadi, ammo Gulxaniy obrazi va uslubini aynan takrorlamaydi. Bunday an’anaviylik va mushtaraklik ham Abdulla Qodiriy satirasining ijtimoiy va g‘oyaviy ildiz-manbalari milliy zaminga asoslanganidan guvohlik beradi va ularni e’tiborga olish adib ijodining o‘ziga xosligi va xalqchilligini chuqur yoritishga ham yordam beradi.

Adabiy ta’sir masalalarini o‘rganishda sho‘rolar davri va sotsialistik inqilobiy g‘oya va hukmron partiyaviy mafkura bilan bog‘liq biryoqlama qarashlarga ham guvoh bo‘lamiz. Nihoyat, istiqloldan keyin yaratilayotgan ilmiy-adabiy nashrlarda, darslik va qo‘llanmalarda bunday biryoqlamaliklarga barham berilmoqda.

Hech bir san’atkor yo‘qki, o‘tmish adabiyotining ilg‘or tajribalaridan ibrat olmagan, qo‘shni xalqlar adabiyotlari namunalaridan ilhomlanmagan bo‘lsin. Hamisha bir xalq ikkinchi xalqdan, yosh avlod keksa avloddan, bir yozuvchi ikkinchi yozuvchidan ijodiy o‘rgangan[29].

Ma’lumki, “Adabiyot hayotning in’ikosi, ammo uning suratga tushirilgan asl nusxasi emas”. Badiiy ijod murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikr, kitobxonga yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oya, albatta, adib yuragida ma’lum hayotiy voqea-hodisaga munosabat tarzida tug‘iladi yoki o‘tmish voqealari, ma’lum davrdagi ijtimoiy o‘zgarishlar, zamondoshlari hayoti yozuvchining asar yozishiga turtki bo‘lishi mumkin. Ijodkorlar ma’lum asarlarni yozishi uchun o‘zidan oldin yashab o‘tgan ustoz salaflari ijodining adabiy ta’siri muhim o‘ringa ega ekanligini maqolalarida, yoshlar bilan bo‘lgan uchrashuvlarda, jurnalistlarga bergan intervyularida va kundalik daftarlarida ham ta’kidlab o‘tganlar. Bu kabi maqolalar yoshlar uchun badiiy asarni qanday o‘qish, qanday qilib uning tub mazmun-mohiyatini anglash, ijodkor aytmoqchi bo‘lgan g‘oyani muallif darajasida tushunish imkonini beradi. Xususan, Abdulla Qodiriy o‘z adabiy tajribalarini yosh yozuvchilar bilan o‘rtoqlashar ekan, o‘z ijodining muhim tomonlarini yoritib, haqiqiy yozuvchi bo‘lmoq uchun turmushni har taraflama o‘rganish, buning uchun uning har sohalaridan xabardor bo‘lish kerakligini, yozuvchi bo‘laman degan har bir kishi turmushning mayda-chuydalarigacha kuzata oladigan bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi: “Yozuvchi bo‘laturg‘on har bir kishi adabiyotdagi oqim va maktablarni yaxshi bilib olishi kerak. Eng yaxshi yozuvchilarning asarlarini bir necha qaytalab o‘qish zarur. O‘qiganda ham yozuvchining nima demoqchi ekanini va o‘z fikrini qanday yo‘l bilan o‘quvchiga anglata olganini diqqat qilib surishtirib borishi kerak. Shundagina yozuvchilardan hunar o‘rganishi mumkin”, –[30] degan edi. Adib shu o‘rinda adabiy ta’sir masalasi haqida fikr yuritmoqda, ya’ni asarni qayta va qayta

[29] Шукуров Н., Хатамов Н., Холматов Ш. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 157.

[30] Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 392.

oʻqish natijasida oʻquvchiga ta’sir kuchi ortishini, mohiyat chuqur idrok etilishini hamda yangi gʻoyalarning tugʻilishiga turtki boʻlishini nazarda tutmoqda. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, yosh yozuvchilar buyuk asarlarni takror oʻqishlari, asar gʻoyasini va muallif aytmoqchi boʻlgan xulosani chuqur anglamogʻi, shu asnoda ijodkor mahoratini tahlil etishi lozim. Yosh yozuvchilar adiblarning oʻziga xos mahoratini anglab borar ekan, ijod qonuniyatlarini ham izchil oʻrganib boraveradi. Yozilajak asarlarida ijod qonuniyatlari an’anaviy qoidalarga asoslangan holda yangi asar yaratishida adiblarning tajribalari va oʻgitlari yosh yozuvchilar uchun ijod maktabi vazifasini oʻtab kelmoqda. Shuningdek, adibning yosh ijodkorlar yozuvchi aytmoqchi boʻlgan fikrni diqqat bilan kuzatib borishi lozimligi haqidagi fikri iste’dodli ijodkor mahoratini anglay olish, uni tahlil qila bilish, oʻz ijodiy laboratoriyasida qoʻllay olish hamda ustozlar tajribalaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. Abdulla Qodiriy “Oʻqish-oʻrganish” sarlavhali maqolasida rus yozuvchisi Chexovni mayda hikoyalar ustasi deb ataydi va uning soʻz qoʻllash bilan bogʻliq mahoratini yoritadi. Maqolaning hech bir oʻrnida Chexov asarlariga taqlidan biror asar yaratganini soʻzlamaydi. Bir adibning ikkinchi bir adib ijodiga yuksak baho berishi yoki undan ta’sirlanishi bir asardan nusxa olishni anglatmaydi. Biroq Bahodir Karim “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur” kitobida amerikalik olim Edvard Olvortning “Oʻzbek adabiy siyosati” kitobida Abdulla Qodiriy Behbudiyning “Padarkush”iga taqlidan “Baxtsiz kuyov” dramasini yozgani masalasini tilga olganini keltiradi. Bundan tashqari, “Oʻtkan kunlar”ning dastlabki tanqidi va unga Abdulla Qodiriyning javobi xususida toʻxtalar ekan, S.Husayn adibni asossiz ravishda koʻchirmachilikda ayblaganini qayd etadi[31]. Bu kabi tahlillarga biz yozuvchi Tohir Malikning “Benazir doʻst” maqolasida keltirilgan quyidagi fikrlar bilan javob bermoqchimiz. Adib Chexovni ustoz oʻrnida koʻrgan ekanlar. Bu “Yozishni Chexovdan oʻrgangan”, degan gap emas. Juda koʻp odam Chexovni oʻqigan, juda koʻp odam uni ustoz deb bilib, intilgan. Biroq Abdulla Qodiriy darajasiga yetish barchaga ham nasib

[31] Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. Internet saytidan

etavermagan. Bu oʻrinda gap Chexovni ustoz deb bilishda emas, gap – Xudo bergan iste'dodda[32].

Darhaqiqat, oʻzbek klassik adabiyotining bilimdoni, ijod jarayoniga, oʻz faoliyatiga talabchanlik bilan yondashadigan, ustozlar ijodiy mahoratini topib, uni baholay oladigan hamda shogirdlarni ijod sirlari bilan bahramand eta oladigan iste'dodli ijodkor asarlaridagi mushtarakliklar sababi koʻchirmachilik emas, aksincha, sinchiklab oʻqish-oʻrganish, tinimsiz mehnat, xalqimizga boʻlgan muhabbat, mashaqqatli mehnat samarasidir. Rus yozuvchisi A.M.Gorkiy "oʻrganmoq – nimagadir taqlid qilish emas, balki mahorat priyomlarini oʻzlashtirish demakdir", deganida ham adabiy ta'sir, ijodkor sinchkov nigohi va mushohadali tahlil masalalarini nazarda tutgan edi. Yoki Sh.Xolmirzayev: "Haqiqiy yozuvchi hayotni oʻz koʻzi bilan koʻradi, borinki, "bola koʻzi" bilan koʻrsin. Tabiiy, unda hayot voqealaridan ma'no chiqarish qobiliyati, aniqrogʻi shu ma'noni kitobxonning oʻziga chiqartira olish salohiyati ham boʻlishi kerak",[33] degan fikrni ilgari surganda ham yosh ijodkorlarning oʻta sinchkov nigohga ega boʻlishi, yuksak mahorat ila qalam tebratmogʻi kerakligi nazarda tutilgan deyish mumkin.

Koʻp hollarda adabiy ta'sir asosida yangi badiiy asarlar yaratiladi. Badiiy adabiyotning oʻziga xos moʻjizalaridan biri shundaki, turli millat va turli xalq vakillari kitob sahifalari orqali bir-birlariga qalban yaqinlashadilar va qadrdon boʻlib qoladilar. Bizda "Oʻtkan kunlar" qanday yuksak qadrlansa, turkmanlarda ham turkman yozuvchisi Xidir Deryayevning "Qismat" romani shunday qadrlanadi. Ma'lumotlarga koʻra, Xidir Deryayevning "Qismat" romanining yozilishiga "Oʻtkan kunlar" turtki boʻlgan ekan.

Ma'lumki, adabiyot haqida mustaqil, yaxlit ta'limotni dastlab boshlab bergan olim Aristotelning "Poetika" asari san'at va adabiyotning mazmuni kishilar hayotidan olinishi lozimligini tasdiqlaydi. Aristotel san'atkorning oʻzidan avvalgi namunalarga taqlid etmay, original asarlar yaratish huquqini yoqlaydi, san'at

[32] Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 6.

[33] Асримизнинг буюк адиби. Тошкент, 1975. – Б. 86.

nazariyasi zamonasining konkret badiiy mahsuloti asosida maydonga keltirilishi lozimligi koʻrsatiladi[34]. Hayot, uning faktlari taassurotlar orqali yozuvchining ongiga kiradi, ma'lum ma'no kasb etadi (ma'lum gʻoyani tugʻdiradi) va adabiyot asari shaklida bizning koʻz oldimizda namoyon boʻladi. Demak, badiiy asar hayotning kishi ongidagi in'ikosi tariqasida maydonga keladi[35]. Shu in'ikosni aks ettirishda yozuvchiga adabiy qonuniyatlar, ustozlar ijodidan olgan ilmlari, adabiy ta'sir asosida tugʻilgan gʻoyalar yordam beradi. Har bir yozuvchi qalb amri bilan ijod etadi. U yoki bu asar adiblarga ta'sir koʻrsatar ekan, ijodkorni oʻyga toldiradi, oddiy kitobxon koʻzi ilgʻamaydigan goʻzalliklarni ilgʻaydi, voqelikdagi narsalardan ramziy xulosalar chiqara boshlaydi va bu holat yoziladigan asarida oʻz izini qoldiradi.

Voqelikdagi narsa-hodisalar yoki koʻngil hollari bilan moddiy olam orasidagi bizga koʻrinmagan, biroq san'atkorona oʻtkir nigoh bilan ilgʻangan oʻxshashliklar asosidagi koʻchimlar oʻquvchini hayratlantiradi, unga zavq bagʻishlaydi. Faqat shugina emas, bu nav koʻchimlar oʻsha narsa-hodisaga oʻzgacharoq nazar solish, koʻngil holini teranroq his qilishga yordam beradi[36]. Chunonchi, Said Ahmad adabiy ta'sir masalasi haqida ushbu fikrlarni bayon qiladi: "Qirqinchi yillarning boshida Abdulla Qahhor Chexov hikoyalarini tarjima qila boshladi. Pesh chiqqanini pesh oʻqiyman. Hikoya qanaqa boʻlishini oʻshanda bilganman. Chexov ta'sirimi yo koʻp oʻylaganimdanmi bir zoʻr hikoya yozdim"[37]. Demak, adabiy ta'sir ongga ta'sir etuvchi moʻjizaviy kuch, adabiyotni yangi asarlar bilan boyituvchi vosita ham boʻlishi mumkin. Umuman olganda, adabiy ta'sir masalasi haqida gap ketganda, ijodkor unga boʻlgan munosabati, u haqidagi umumiy fikrlarini ifodalashi bilan birgalikda asarining yozilish tarixini ham guvohlik berishi muhimdir. Bu kabi qizgʻin mushohadalarda, bir tomondan qaraganda, asar yozilishiga turtki boʻlgan adabiy ta'sir hodisasiga izoh kiritilsa, ikkinchi tomondan esa, adib oʻzi ta'sirlangan

---

[34] Шукуров Н., Хатамов Н., Холматов Ш. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б. 2.

[35] Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Oʻqituvchi, 1986. – Б. 56.

[36] Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – B. 299

[37] Said Ahmad. Tanlangan asarlar III jild. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 93.

ijodkorning mahoratini, ilhomlangan asar tahlilini keltirib o‘tadi. Bir asardan yoki ma’lum ijodkor mahoratidan ilhomlanish natijasi bo‘lgan tahlil boshqa tahlillardan chuqur mushohada etilganligi bilan ahamiyatlidir.

Har qanday xalqning san’ati taraqqiyotida an’anaviylik, davomiylik va bog‘liqlik bo‘ladi. Yetuk badiiy asarlar yoki san’at hodisasi o‘tmishdagi eng yaxshi an’analarning ijodiy davomi natijasida yuzaga keladi. Ijodiy ta’sir, an’ana va novatorlik hamisha badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur rivojining muhim bir omili bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini o‘zbek-rus adabiyoti aloqalari va badiiy tarjimalari misolida o‘rganish ham adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari sirasiga kiradi[38].

Adabiy an’analarning avloddan avlodga o‘tib kelishida, rivojlanib, boyib borishida adabiy ta’sir masalasi ham o‘z o‘rniga ega. Ijodkor hayot haqiqatini badiiy haqiqat asosida tasvirlar, badiiy adabiyotdagi mavjud adabiy an’analarni davom ettirar ekan, ilgari surgan g‘oyasini asoslash, tasvirlash, kitobxonni bunga ishontirish uchun o‘qib o‘rgangan va qalbiga mahkam o‘rnashib qolgan asar, asar qahramonlari yoki unga ta’sir o‘tkazgan asar g‘oyasiga zarur o‘rinlarda murojaat etadi. Aytmoqchi bo‘lgan g‘oyasini, xulosalarini asardan parcha keltirish yoki asar voqealariga ishora tarzida ham ifodalashi mumkin. Ijodkor o‘qigan asarining ta’siridan ilhomlanish natijasida asarini yanada sayqallashi va, aksincha, uyg‘un asarlardan keskin farq qiluvchi xulosalar bilan yakunlashi mumkin. “Yozuvchi bo‘lmoq qalbingni odamlarga ishonib ochib bermoqdir”, – deya ta’riflaydi adibni “Yozuvchi bo‘lmoq nima degani” maqolasida Yuxan Borgen. Darhaqiqat, ijodkor ongidagi fikrlarini, ko‘nglida asrab-avaylab yurgan tuyg‘ularini kitobxon bilan bo‘lishadi. U bilan maroqli suhbat quradi. Hayotni kuzatish asnosida olgan tajribasini kitobxonga yetkazadi. Yozuvchilarning oddiy kitobxondan farqi ham shundaki, oddiy odamlar ilg‘amagan haqiqatni ijodkorlar ilg‘ay oladi. Kitobxonning nazari tushmagan voqea-hodisalar yozuvchi nigohida alohida mavzu sifatida gavdalanadi. Hech bir

[38] Qosimov U. Adabiy estetik tafakkur: Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Tog‘ay Murod. Toshkent: 2023. – B. 78

ijodkor yo‘qki, biror mutolaa qilgan asaridan ta’sirlanmagan yoki adabiy ta’sir samarasi asarlarida iz qoldirmagan. Noyob iste’dod egasi Abdulla Qodiriy asarlarining boshqa buyuk ijodkorlar asarlari qatori ko‘plab adiblar ijodiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani, adabiy ta’siri yozilajak asarlariga turtki bo‘lganligi, asarlarda adabiy an’analar davomiyligini aks ettirgani xususida turkman yozuvchisi Berdi Kerboboyev shunday deydi: “Mening o‘zim ham Tolstoydan, Gorkiydan, Sholoxovdan o‘rganmasam, tatar yozuvchisi Ibrohimovning “Bizning kunlar”ni, “Qozoq qizi”ni, o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ini, “Mehrobdan chayon”ini o‘qib, shulardan ibrat olmasam “Dadil qadam”ni boshlay olmagan bo‘lardim”, – deya ta’kidlasa[39], taniqli shoir E.Vohidov “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari ta’sirini e’tirof etib quyidagicha baholaydi: “Kishi umrida o‘qigan kitoblari ichida shundoq kitoblar bo‘ladiki, ular umrining bir qismiga, inson o‘zligining tarkibiga aylanib qoladi. “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” men uchun ana shunday kitoblardan. Ular meni odam qilib shakllantirgan. Dunyoqarashim, yuragim holatini belgilagan, umrim boyligi bo‘lgan kitoblar sirasiga kiradi”[40]. Yuqoridagi fikrlar Abdulla Qodiriy asarlariga berilgan yuksak baho bo‘lishi bilan bir qatorda adabiy ta’sir jarayonining natijasini ham ko‘rsatadi. Badiiy so‘z qudratini bevosita his etmagan, uning ilohiy ta’siriga berilmagan o‘quvchida tuyg‘u uyg‘onmaydi[41]. Oddiy kitobxon sara asarlardan ta’sirlanishi, yillab asar voqealarini unutolmasligi mumkin. Ammo unda tug‘ma iste’dod, san’atkor qalbi, turmush hodisalarini, odamlar hayotini, qalbidagi nozik jarayonlarni ko‘rish, ko‘rsatish bilan barobar ularni butun vujudi bilan his etish, shu nozik tuyg‘ularni boshqalarga yetkaza olish xislati bo‘lmas ekan, adabiy ta’sir natijasida asar tug‘ilmaydi. Shunday ekan, adabiy ta’sir iste’dod egalarini yana bir bor kashf etuvchi va adabiy an’analarni rivojlantiruvchi vositalardan biri desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

[39] Karimov B. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 142.
[40] Yuqoridagi manba. – B. 165.
[41] Yo‘ldoshev Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Toshkent: Tafakkur, 2023. – B. 283.

Abdulla Qahhor san’atkorlarning badiiy adabiyot durdonalarini o‘qib-o‘rganib tengi yo‘q asarlar yaratilish jarayonini quyidagicha baholaydi: “Oqsoqol yozuvchilarimiz katta ish qilishdi: rus va o‘zbek klassik adabiyoti, xalq adabiyotidan bahra olib, umuminsoniy g‘oya bilan qurollanib, hozirgi yangi adabiyotni yaratdi”. Demak, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, muhabbat va nafrat, do‘stlik va sotqinlik kabi badiiy adabiyotdagi umuminsoniy g‘oyalar va mavzular turli janrdagi asarlarda turlicha tasvirlanishining zamirida xalq og‘zaki ijodiyoti ta’sirining o‘rni beqiyos. Har bir xalqning og‘zaki ijodi, avvalo, avlodlariga, shuningdek, dunyo kitobxonlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Ijodkorlarning asarlari yaratilishida folklor namunalarining ta’siri o‘rni ham beqiyos ekanligini ta’kidlash joiz. H.Homidiy, Sh.Abdullayeva va S.Ibrohimovalar tomonidan tuzilgan “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘” nomli she’riy ertaklari o‘zbek xalq ertaklari asosida yaratilgani haqida ma’lumotlar bor. Bu ma’lumotlarga “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonining yozilishiga yana shoirning buvisi o‘zbek xalq ertaklarini mahorat bilan ijro etganligi va bu bo‘lajak shoirning ijodkor sifatida shakllanishida o‘z ta’sirini ko‘rsatganligini va yillar o‘tib ham yodida qolganligini qo‘shimcha qilmoqchimiz. Zero, mahorat bilan ijro etilgan asar va ijro qonuniyatiga asoslanmay ijro etilgan san’at hodisalari o‘rtasida farq katta. Ijro mukammal bo‘lsa, o‘sha asarning kitobxonga ta’siri ham yuqori bo‘ladi. Shu bois ham, bizningcha, H.Olimjon “Oygul bilan Baxtiyor” asarida ertakni buvisidan eshitganini ta’kidlaydi:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko‘p ertak eshitardim,
So‘ylab berardi buvim.

Shuningdek, Abdulla Qodiriy tarbiyasi, ijodi va romanlarining maydonga kelishiga otasidan eshitgan voqea-hodisalar kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham adib o‘z asarlarida otasini ehtirom bilan tilga oladi, hikoyalaridan birini otasiga bag‘ishlaydi[42].

[42] Karimov B. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 6.

Jumladan, “Jinlar bazmi” hikoyasidagi voqelikni adibning otasi yosh Abdullaga so‘zlab beradi yoki adib “O‘tkan kunlar” romanidagi ayrim voqealarni otasidan eshitganligini ta’kidlaydi. Abdulla Qodiriy asarlari yaratilishiga turtki bo‘lgan omillardan biri hayot bergan materiallar, turmush saboqlari, otasidan eshitgan hikoyalar hamda ularning ta’siri demakdir. “Biz haqiqatni hayotdan oldik. Hammadan ilgari shaxs o‘zini tanisin! Zero, “O‘zini bilmagan o‘zgani bilmas” so‘zi turmush onasining dard chekib tuqqan to‘ng‘ich o‘g‘lidir”, – deydi adib Abdulla Qodiriy bu xususida.

“Ijodiy ta’sir jarayonidagi tadrijiylikni har bir iste’dodli san’atkor u yoki bu tarzda bosib o‘tishi mumkin bo‘lgan an’anaviy bosqich deb ta’riflasa bo‘ladi”, – deya ta’kidlaydi adabiyotshunos olim U.Qosimov. Darhaqiqat, har bir ijodkor kitob mutolaa qilar ekan, o‘z hissiyot dunyosidan kelib chiqib, asarni o‘zicha tushunib, o‘zicha xulosa chiqarishi mumkin. Ijodiy jarayonda ilhomlanib asar yozayotgan, bir vaqtlar o‘qib ta’sirlangan, ulug‘ adiblar ijodi bilan yaqindan oshno bo‘lgan san’atkor ularning yuksak g‘oya va an’analaridan ta’sirlanmasligi, oziqlanmasligi mumkin emas.

Rus adabiyotining mashhur yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiyning “Telba” romanida buyuk masalnavis Ezop va XIX asr rus adabiyoti masalnavisi Krilov masallariga murojaat etganligini ko‘rishimiz mumkin. Asarda Ferdishchenko generalga o‘z mavqeyi haqida shunday so‘zlaydi: “Men buni o‘tgan safar ahli jamoatga batafsil aytib bergan edim, siz zoti oliylari uchun yana bir karra takrorlayman. Ko‘rib turibsiz, zoti oliylari, hammaning zehni o‘tkir, mening esa zehnim o‘tkir emas. Mana shuning evaziga men rost gapirishim huquqini o‘zimga tilab oldim. Hammaga ma’lum zehni o‘tmas odamlargina doim rost gapiradilar. Buning ustiga men juda kekchi odamman, kekchilligimning sababi ham zehnim o‘tmasligidan. Men birov ozor bersa, bo‘ynimni egib turaveraman, dilozor sal qoqilguncha shunday: qoqildimmi, tamom, darhol unga eslatib qo‘yaman va shu zahoti o‘chimni olaman, Ivan Petrovich o‘zi hech qachon Ptisinning ta’biri bilan aytganda, tepaman, lekin Ivan Petrovichning o‘zi hech qachon hech kimni tepmagan. Krilovning zarbulmasali esingizda bormi,

zoti oliylari: “Arslon va eshak”? Ana xuddi o‘sha siz-u men, biz haqimizda yozilgan”[43].

Muallif antik davrning buyuk masalnavisi Ezop hamda rus masalnavisi Krilov asarlarini puxta o‘zlashtirgan va ularning ta’sirida bo‘lgan. Adib bu adabiy ta’sir samarasidan “Telba” romanida kerakli o‘rinlarda mahorat bilan foydalangan.

Biz badiiy ijod deganda san’atkor ongida ijodiy niyat yetilib, “bo‘shanish” zarurati yuzaga kelgan paytdan to asarga so‘nggi nuqta qo‘yilguniga qadar bo‘lgan vaqtni ko‘zda tutamiz. Ayni shu vaqt oralig‘ida san’atkor ongida kechgan ijodiy-ruhiy jarayon badiiy asarda akslanadi. Shu boisdan, mazkur jarayonning o‘ziga xos xususiyatlariga ayricha e’tibor zarur. Avvalo shuki, ijod onlaridagi ijodiy-ruhiy holat san’atkorning bungacha kechirgan hayoti, ko‘rgan-kechirganlari zaminida yuzaga keladi. Yunon masalnavisi Ezop va rus masalnavisi Krilov masallariga “Telba” romanida zarur o‘rinlarda muallif tomonidan foydalanilishi, avvalo, ijodkorning badiiy adabiyotning yetuk bilimdoni ekanini ko‘rsatishi bilan birga, qahramonlar aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni masal tilida so‘zlashi yozuvchi mahoratini ochib beradi.

Abdulla Qodiriy kabi mumtoz adiblarning yorqin insoniy xarakter yaratish mahorati va inson ruhiyatini tasvirlash xususidagi qarashlari jahon adabiyotining mashhur adiblari fikrlari bilan hamohang. Masalan, XIX asrda yozuvchilarining ko‘pligi bilan adiblarning havasini keltirgan Norvegiyaning mashhur adibi, Nobel mukofoti laureati **Knut Gamsun** ham garchand, u mamlakatda bizning yurtimizdagi kabi mafkuraviy repressiya siyosati ijodkorlarni ommaviy qirg‘in etmagan bo‘lsa-da, adabiyot uchun ijodiy erkinlik va inson qalbi va kechinmalarini haqqoniy aks ettirish asosiy maqsad bo‘lishini orzu qilib, 1890-yilda ijodiy kredosini shunday ifodalagan: “Men uchun personajlarimning xatti-harakatlari yig‘indisini tavsiflash yetarli emas. Ularning qalbi, ichki dunyosini yorqin tasvirlash zarur. Ular qalbidagi his-tuyg‘ularni xuddi mikroskop orqali ko‘rgandek eng nozik qirralarigacha aks ettirish muhimdir”[44]. A.Qodiriy va boshqa

[43] Dostoyevskiy F. Telba. – Toshkent, 2019. – B. 190.

[44] Гамсун Кнут. Голод. – Москва: Иностранная литература, 1992. – С.692.

yetuk adiblar ham insonni har tomonlama, to‘laqonli va jonli qilib tasvirlash adabiyotning oliy maqsadi ekanligini qayta-qayta ta’kidlagan: “Men mutlaqo aminmanki, inson qanday bo‘lishi kerak, qanday bo‘lmasligi lozim ekanini, yozuvchi qalbining chuqur joylarigacha ko‘rsatadigan ikki sahifalik chinakam proza pala-partish, lekin ustaroq so‘zlar bilan yozilgan “silliq” asardan ko‘p darajada foydaliroqdir. Adabiyot haqida men bilgan gapning javhari – shu” (A.Qahhor). Dunyo adabiyotida tan olingan realist adiblarning mushtarak fikrlaridan ayonki, inson va uning his-tuyg‘ulari va o‘y-kechinmalarini haqqoniy tasvirlash hamisha badiiy mahoratning asosiy mezoni bo‘lgan.

Haqiqatan ham, ulkan so‘z san’atkorlari yaratgan asarlardagi inson xarakterlari bamisoli bir butun mikrokosmos, chunki tomchida quyosh aks etganidek, bu to‘laqonli va jonli xarakterlarda muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlar va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar majmuasi takrorlanmas shakl va ko‘rinishlarda aks etadi. Shu bois ham obraz, inson xarakterini badiiy adabiyotning o‘zagi – o‘q ildizi deyishadi. Adabiyotning hayot va davr voqeligini butun murakkabligi bilan keng aks ettirishdek og‘ir vazifa hamisha o‘sha davrning yetakchi shaxslari xarakterini yorqin ifodalash orqali amalga oshirilgan. Qodiriyning har ikki romani bosh qahramonlari: Otabek va Kumush, Anvar va Ra’nolarning yuksak insoniy fazilatlari, boy ma’naviyat va ruhiyati ular o‘qigan diniy va badiiy kitoblar bilan ham shakllangani bugungi yoshlarga ham ibrat bo‘la oladi. Har jihatdan mukammal bu obrazlarni yaratishda yozuvchi, ba’zi adabiyotshunoslar aytganidek, rus adibi N.V.Gogoldan yoki Valter Skott va Jurji Zaydonlarning asarlaridan emas, balki, eng avvalo, xalq og‘zaki ijodi va Alisher Navoiy dostonlaridagi yorqin timsollardan ta’sirlangani haqiqatga yaqin: Anvar bilan Ra’noning she’riy aytishuvlaridagi Farhod-Shirin va Layli-Majnun obrazlari shunchaki mumtoz “talmeh” san’ati namunalarigina emas. Otabek va Kumushning Fuzuliy devoni, “Boburnoma” kabi mumtoz adabiyot durdonalaridagi teran ma’no va oliyjanob tuyg‘ulardan mutaassir bo‘lishlari orqali Abdulla Qodiriy ulug‘ maqsadlarni ko‘zda tutganligi ayon. Zero, badiiy mahorat – bu, avvalo, yozuvchi

qalbidagi oliyjanob maqsadni, olamga sochmoqchi bo‘lgan muhabbat va nafratni chuqur ifodalay oluvchi yorqin obrazlar yaratishdir. “Badiiy mahorat – chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kulgili yo qayg‘uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan zarur so‘zimizni kitobxon qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish demakdir”. San’atkor hayotni obrazlar orqali tadqiq etar ekan, barcha fikr-tuyg‘ulari, kitobxonga aytmoqchi bo‘lgan “dard”ini shu obrazlarda mujassamlashtiradi. Shu bois “yozuvchining xalqqa aytadigan gapi naqadar muhim, naqadar zarur bo‘lsa, buni kitobxonlarning qalbiga olib kiradigan obraz ham shu qadar kuchli bo‘lishi kerak”.

Adib va olimlar yakdillik bilan e’tirof etganlaridek, obraz tushunchasi aksar shoir, adib va adabiyotshunoslar nazdida, asosan, xarakter ma’nosida talqin qilinadi. “30-yillar boshida “So‘nggi kecha” degan bir film ko‘rgan edim. Bu film o‘ttiz yildan beri esimdan chiqmaydi, bunga birdan-bir sabab – filmdagi qari bir ishchining alomat obrazidir. Bu insonning qalbiga chuqur qo‘l solib, zargarning sabr-hafsalasi-yu naqqoshning hunari bilan oro berilgan obrazdirki, bunaqa obraz asarning qanoti bo‘lib, uni zamondan zamonga, makondan makonga parvoz qildiradi”. A.Qahhor fikricha, har jihatdan mukammal, to‘laqonli inson obrazini yaratish haqiqiy san’at asari yaratish demakdir.

Davrning makkor mafkurasi ijodkorlarni qanchalar cheklaganiga qaramasdan, Abdulla Qahhor ham 1930-yillarda ilk romani – “Sarob” sahifalari ustida qalam tebrata boshlaganda u turli qoliplarni yorib chiqa olgan, inson ruhiyatining tubsiz qatlamlariga dadil kira olgan. Inson degan oliy mavjudot zinhor-bazinhor ikki rangli yoki bir o‘lchamli maxluq bo‘lishi mumkin emasligini anglab yetgan ekan. Va buni roman obrazlari tizimida salbiy yoki ijobiy degan qoliplar emas, balki ularni ichdan inkor qilgan holda ko‘rsatib bera olgan (Ozod Sharafiddinov).

Jonli inson obrazi yaratilmagan asarlar – har qancha “muhim” va “yirik” mavzuni ko‘tarib chiqmasin, har qancha silliq va ustaroq so‘zlar bilan yozilgan bo‘lmasin, ular – o‘lik narsalar[45]. San’at asarining noyob fazilati, Tolstoy, Cho‘lpon, M.Svetlovlar aytganidek,

[45] Абдулла Қаҳҳор. Ёшлар билан суҳбат. Тошкент, 1968. – Б. 117-118.

“yuqumli” bo‘lishidadir. Iste’dod bilan yozilgan asarning qahramonlari kitobxonga jonli odamlardek ta’sir qiladi va uning ongi-yu qalbidagi yot “unsur”larni yo‘qotishga yordam beradi. Kitobxon qalbiga ta’sir etmaydigan narsaning adabiyotga tegishliligi yo‘q. *“Yozuvchining yozuvchiligini,* – deydi Qahhor, – *u yaratgan obrazlariga, adabiyot “domovoyi”ga yozdirgan yangi odamlariga qarab baholash kerak”.* Binobarin, o‘zining haqqoniyligi va betakror jozibasi bilan kitobxonlarning ardoqli qahramonlariga aylangan obrazlarni hamisha mehr bilan eslaymiz. Ular ko‘p asrli yozma va og‘zaki adabiyotimizning o‘lmas an’analari zamirida mohirona yaratilgan va adabiyotimiz xazinasidan mustahkam o‘rin olgan yangi timsollardir. Yozuvchi iste’dodining kuchi ham, asarlarining umrboqiyligi ham mana shunda.

Abdulla Qodiriy ijodi, badiiy mahoratini o‘rganish borasida salmoqli tadqiqotlar yaratilgan. Biroq adib ijodining o‘ziga xosligi va romanlari poetikasini o‘rganishda ayrim muammolar mavjud. 1970–1980-yillarda ham Abdulla Qodiriyni “ijodiy metodi cheklangan” deb, hatto ijtimoiy muammolarni aks ettirishida va obraz yaratishida ham taqlidchilikda ayblashda davom etdik. Bunday biryoqlamaliklarni bartaraf etish ham qodiriyshunoslikni boyitishi bilan birga tarixiy haqiqatni oydinlashtiradi.

Mutafakkirlar ta’kidlaganidek, badiiy adabiyotni “obrazlar orqali fikr yuritish”, “obrazli tafakkur” (“образное мышление”) deb ham ta’riflashadi. Bu jihatdan Abdulla Qahhorning quyidagi fikri muhimdir. Adib “1965-yil prozasi” maqolasida badiiy mahorat masalasi haqida fikr yuritib shunday yozadi: “Badiiy mahorat chiroyli iboralar, chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kulgili yoki qayg‘uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan zarur so‘zimizni kitobxon qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish demakdir. Yozuvchining xalqqa aytadigan gapi naqadar muhim, naqadar katta, naqadar zarur bo‘lsa, buni kitobxon qalbiga olib kiradigan obraz shu qadar kuchli bo‘lishi kerak. Asarga baho berilganda, uning qalin yoki yupqaligiga, uni kim yozganligiga, hatto nima haqida yozganligiga emas, undagi obrazlarga qarab

baho berilsa, yaxshiroq bo‘ladi”, – degan edi. Darhaqiqat, bu adabiyotning va badiiy ijodning o‘zak masalasidir.

Aksariyat adiblarning estetik qarashlari silsilasidagi “oltin halqa”lardan biri – badiiy mahorat, obraz yaratish bobidagi fikr-mulohazalaridir. Ya’ni har jihatdan mukammal, to‘laqonli inson obrazini yaratish chinakam san’at asari yaratish demakdir. Darhaqiqat, betakror jozibasi bilan kitobxonlarning ardoqli qahramonlariga aylangan Yusufbek hoji, Otabek va Kumush, Anvar va Ra’nolar yoki usta Olim, Safar bo‘zchi va Sultonmurod kabi obrazlarni hamisha mehr bilan eslaymiz. Asar qahramonlarining to‘laqonli, o‘ziga xos va jonli inson kabi yaratilishida ularning ichki va tashqi portretlari ham muhim badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Bu borada ham individuallashgan va tipiklashgan obrazlar sifatida mumtoz asarlardagi turfa qahramonlar obrazlari ijodiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, inson obrazi, xarakterining to‘laqonli bo‘lishida ularning portret-siyratlari tasviri ham o‘ziga xos individual va ishonarli tarzda yaratilishi talab etiladi. Masalan, Qodiriyning Ra’no obrazi yoxud Oybekning Mirzakarimboy portretlari tasvirini esga olaylik. Yoki Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi yorqin portretlardan birini ko‘z oldimizga keltiraylik.

“Akbarali mingboshining belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo‘lmasa, hech kim uni amaldor demaydi. Oddiy kiyimda ko‘rganlar yo oddiy bir qishloq boyi, yo Yettisuv bilan aloqasi bor qo‘ychi, yo bo‘lmasa, yaylov tomon bilan ish ko‘radigan tuyachi deb o‘ylaydilar. Chakka suyaklari turtib chiqqan, peshona – bo‘yiga tor, eniga keng va ham uzun-uzun uch chuqur ajinga ega”. Ushbu portret asardagi turli voqealar davomida va boshqa personajlar bilan, ayniqsa, Miryoqub bilan munosabatlarda yanada to‘ldirilib, individual o‘ziga xos jihatlari ochilib boradi. Muhimi yana shundaki, boshqa obrazlar singari Akbarali mingboshiga nisbatan ham yozuvchining munosabati namoyon bo‘lib boradi. Ulug‘ adiblar yaratgan qahramonlar xarakterlarida buyuk mutafakkir Arastuning adabiy asarlarda xarakterga nisbatan qo‘ygan talablarining badiiy

ifodasini koʻrish mumkin. Ya’ni san’at asarida inson xarakteri haqqoniy, oʻziga xos va dinamik boʻlishi talab qilinadi. Bu muhim nazariy qoida va badiiy-estetik mezon ijod jarayonida qanday namoyon boʻlishi Oybekning “Qutlugʻ qon” romanidagi Mirzakarimboy va Yoʻlchi xarakterlari misolida ham ochiqlanadi. Asar boshida Yoʻlchi bilan boy togʻasining ilk uchrashuvi va ular oʻrtasidagi suhbati davomida Yoʻlchiga zimdan razm solgan Mirzakarimboyning koʻnglidan kechgan oʻy-tavsifi beriladi. Yoʻlchining butun koʻrkam gavdasida ichki bir gʻurur boyga yoqmaydi. Chunki bu fazilat Yoʻlchining kelgusida ozodlik uchun kurashda namoyon boʻladigan mardligining ilk kurtagi edi, deyish mumkin. Mana shu kichik tavsifiy detal ham Oybekning inson xarakterini yorqin tasvirlay olganini koʻrsatadi.

Boshqa adiblar ijodini kamsitmagan holda, qayd etish lozimki, Qodiriyning ulkan jasorat va mahorat bilan yaratgan asarlari nafaqat oʻzbek adabiyotida, balki jahon adabiyoti prozasida ham yorqin bir sahifa ochdi. Ya’ni san’atkor yangi davr bilan hamnafas boʻlishi, xalqimizni shu zamonning vatanparvar, millatparvar qahramonlari, komil insonlari obrazlarini yaratishi chinakam ijodning ham muhim talabi ekanligini hayratomiz tarzda isbotladi. Bu yuksak mezon, shubhasiz, bugun ham badiiy ijod rivojining asosiy bir omilidir. Millat va xalq dardi, orzu-ehtiyoji va kelajagi Abdulla Qodiriy uchun hamma narsadan ustun edi. Oybek ta’kidlaganidek, “tabiatan tugʻma epik yozuvchi”[46] boʻlgan Qodiriyning koʻp asrlik oʻzbek adabiyoti uchun mutlaqo yangi janr boʻlgan roman janriga murojaat qilishi ham, eng avvalo, mana shu ma’naviy-ruhiy ehtiyoj bilan izohlansa toʻgʻri boʻladi. “Oʻtkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari jahon adabiyoti tarixida ham buyuk voqea – oʻziga xos badiiy kashfiyot boʻlganini koʻplab yirik adib va adabiyotshunoslar faxr bilan e’tirof etganligi ham oʻzbek adabiyotimizga olamshumul shuhrat keltirish bilan birga xalqimiz va millatimiz saviyasini, sha’ni va qadrini ham bir pogʻona yuksaklikka koʻtaradi. Bu romanlar, adibning kamtarona soʻzlari bilan aytganda, ilk tajriba boʻlsa-da, lekin gʻoyaviy-badiiy

[46] Ойбек. Абдулла Қодирийнинг ижодий йўли. Тўққизинчи том. – Тошкент, 1978. – Б. 173

mukammalligi, xalqchilligi va milliyligi bilan san’atning yuksak mezonlariga to‘liq javob bera oladigan asarlar bo‘lganligi bilan o‘quvchilarni hayratga solib keladi. “Abdulla Qodiriyning 20-yillarda yaratgan romanlari go‘yo tep-tekis sahroda to‘satdan Pomir tog‘lari kabi vujudga kelganday paydo bo‘ldi” (Muxtor Avezov). Bu – Qodiriyning novator ijodkor ekanligining yuksak bir e’tirofi. Qodiriyning romanchilik maktabi va ijodiy mahoratidan Oybek, Mirkarim Osim, O.Yoqubov, P.Qodirovlar va keyinroq esa Tog‘ay Murod, Nurali Qobul, Isajon Sulton, Asad Dilmurod, Shahodat Isoxonova kabi adiblar ham ijodiy foydalanganliklarini minnatdorlik bilan tilga olishadi. Jumladan, Odil Yoqubov o‘zining tarixiy romanlarini yaratishida Abdulla Qodiriy va Oybeklarning romannavislik mahorati va xarakter yaratish usullaridan ta’sirlangani va ilhom olganligini o‘z xotiralarida e’tirof etgan. Shuningdek, Pirimqul Qodirov ham A.Qodiriyning ijod jarayoni va milliy xarakter yaratishdagi yuksak san’atkorligini “Xalq tili va realistik proza” nomli tadqiqotida keng bayon etgan. Xuddi shuningdek, Tog‘ay Murod uchun ham Abdulla Qodiriy ijodi va shaxsi yuksak ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, yosh adibga katta shuhrat keltirgan “Ot kishnagan oqshom” qissasidagi quyidagi lavhada Abdulla Qodiriy va folklorning ijodiy ta’siri yaqqol namoyon bo‘lgan: “Ziyodulla chavandozning jo‘shib aytgan “Alpomish” va “Kuntug‘mush”day go‘zal dostoni, ming hafsala-yu bor ishtiyoqi bilan chizgan ardoqli surati. Tarlon – Ziyodulla chavandozning go‘yo ilhom bilan bitgan, sayqal topgan mukammal she’riy bir kitobi!” (Ta’kid bizniki. – R.S.)

Sezgir kitobxon bu tasvirlarni o‘qiganda, beixtiyor Abdulla Qodiriyning ijodiy ta’sirini xayolidan o‘tkazishi ehtimol va bu hol badiiy-estetik tafakkur va an’anaviylik tadrijining samarali bardavomi ekanligi bilan izohlanadi. Qodiriy romanida Ra’noning beqiyos husn-u latofatini “she’riy bir husn” deya ta’riflagani, Anvar va Sultonalining qalbi pok Toyir akanikida gulxan atrofida bir piyola choy bilan dildan gurunglashishida “shoirona, darveshona bir ma’nosi bor”, – degan tashbehlari ham xalqimiz

zakosining ifodasidir.[47] Qolaversa, bu xalq ogʻzaki ijodi namunalariga xos boʻlgan Togʻay Murod isteʼdodi, baxshiyona badiiy tasvir uslubining ham bir namunasidir.

Koʻplab yirik adiblar va adabiyotshunoslar yakdillik bilan taʼkidlaganidek, Abdulla Qodiriy romanlari “adabiyotimizda chinakam badiiy choʻqqi ekanligini” yaqqol koʻrsatish maqsadida XX asr rus va jahon adabiyotining shoh asarlaridan biri deb tan olingan, mashhur adib Mixail Sholoxovning “Tinch Don” romani bilan muqoyasa qilishni lozim topamiz. Bu muqoyasa jahon adabiyoti tarixi va tanqid-adabiyotshunosligi uchun ham muhim boʻlgan yana bir achchiq hayotiy haqiqatni anglashga imkon beradi. Yaʼni bu ikki buyuk realist adibning ikki durdona asari deyarli bir vaqtda va bir-biridan bexabar holda yaratilgan. Ushbu romanlar gʻoyaviy-badiiy yuksakligi, qahramonlarining murakkab taqdirini haqqoniy aks ettirganligi va soʻz sanʼati jihatidan qator mushtaraklikka ega ekanligini ham isbotlash qiyin emas. Ammo bu asarlarga hukmron sovet mafkurasining munosabati va adiblar taqdiri oʻrtasida yer bilan osmoncha farq bor va bu dahshatli haqiqat sogʻlom fikrli har bir kitobxonni larzaga solishi tabiiy.

Muallifi ancha bahslarga sabab boʻlgan “Tinch Don” nafaqat XX asr sovet adabiyotida, balki dunyo miqyosida Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopeyasidan keyingi tengsiz monumental asar deb baholandi va butun sovet tanqid-adabiyotshunosligida jar solindi. Asar matnidagi “чёрный диск солнца” (“quyoshning qora gardishi”) kabi ibora va detallar jahon prozasidagi noyob badiiy kashfiyot deb taʼriflandi. Roman necha oʻnlab xorijiy tillarga tarjima qilindi, asar asosida koʻp qismli badiiy filmlar, radiopostanovkalar yaratildi. Muallifiga esa Davlat mukofoti va sovet hukumatining eng oliy mukofoti – Lenin mukofoti ham, Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvonlari-yu hatto Nobel mukofotigacha berildi. Adibga yaratilgan sharoitlar-u shaxsiy samolyotini aytmasa ham boʻlar.

Shunday katta mahorat bilan yaratilgan, dunyo adabiyoti tarixida, xususan, romanchilik taraqqiyotida yangi oʻzbek romanchiligini boshlab bergan va Yevropa romannavisligining

[47] Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён. Тошкент, 1994. – Б. 535.

yuksak mezonlariga har jihatdan javob bera oladigan, chinakam milliy, xalqchil va to‘laqonli birinchi o‘zbek romani muallifi Abdulla Qodiriy esa taqdirlanish o‘rniga ko‘rmagan azob-uqubat, tahqir-haqorat, qiynoq-xo‘rlik qolmadi va alal-oqibat 1938-yili vahshiylarcha qatl etildi. O‘zbek xalqi shu kuni yana bir asl farzandidan, ulkan iste’dod sohibidan ayrildi. Bu mustabid tuzumning adabiyotimizga va xalqimizga qilingan minglab qabohatlaridan biri edi.

Aslida, Qodiriyning xalqi va Vataniga sadoqat va e’tiqodi, iste’dod va mahorati ham Sholoxov kabi buyuk adiblarnikidan aslo kam emasdi. Ijodni millat ravnaqi yo‘lidagi “muqaddas ish” deb bilgan A.Qodiriyning yozuvchilik mas’uliyati va millat oldidagi burchiga vijdon va e’tiqod nuqtayi nazaridan yondashgani butun ijodiy faoliyatida va teran adabiy-estetik qarashlarida ham yorqin aks etib turadi. Bunga ishonch hosil qilish uchun birgina dalil kifoya qilsa kerak. Millat va xalq ruhiyati va ong-tafakkuri rivoji uchun roman janri zarurati va uning ma’naviy-estetik ahamiyati bobida bu ikki ulug‘ adib fikrlarining hayotiyligi va mushtarakligiga zehn bilan razm solaylik. Agar Sholoxov adabiyot, xususan, roman janri xalqi va kitobxonlari uchun xuddi dehqonga bug‘doy nonday zarurligi haqidagi muhim xulosalarini 60-yillarda aytgan bo‘lsa, bunday hayotiy va haqqoniy fikr va adabiy-estetik qarashlar A.Qodiriy tomonidan 20-yillardayoq ilk romani va teran maqolalarida katta ishonch va qat’iyat bilan ifodalanganligiga adabiy jamoatchilik guvoh.[48]

I bob bo‘yicha xulosalar

1. Adabiy ta’sir va an’anaviylik, xususan, o‘zbek-fors-tojik adabiyotlarining o‘zaro ta’sirining ijodiy xarakteri va samaradorligiga Navoiy kabi buyuk siymolarning o‘ziga xos ijodi va yuksak san’atkorona asarlari yorqin va ibratomiz namuna bo‘la oladi. Adabiy ta’sir va an’anaviylik serqirra va xilma-xil jarayon bo‘lib, mavzu-g‘oya, janrlar bardavomligida, xarakter yaratish, tasvirlash, til, uslub va poetik detal-ifodalardagi mushtaraklikda

[48] Шолохов М. Тинч Дон. Асарлар, 5-том. – Тошкент: Ўздавнашр, 1963. – Б. 551. О.Шарипов таржимаси.

ham namoyon bo‘lishi mumkin. Adabiy ta’sir, an’anaviylik badiiy ijod sohasida samarali bo‘lishi bilan birga yosh adiblarning adabiy-estetik qarashlari shakllanishi va boyishida ham muhim ahamiyat kasb etishini ibratli misollar tahlili ko‘rsatadi.

2. Adabiy an’ana va ta’sirning alohida bir ko‘rinishi mashhur shoir va adiblarimiz asarlarida fors-tojik va arabcha so‘z-iboralarning qo‘llanishida, zullisonaynlik va polifonizm an’analarining ijodiy bardavomligi va g‘oyaviy-badiiy natijadorligida namoyon bo‘ladi.

3. Klassiklardan o‘rganish ularning mumtoz asarlaridagi go‘zallik sirlarini kashf etish va ulardan mohirona, ijodiy foydalanishdan iborat bo‘lishi jahon adabiyotida o‘z isbotini topgan. Sho‘ro davrida sobiq Ittifoq miqyosida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham adabiy ta’sir masalasiga badiiy mezonlardan ko‘ra, asosan, sotsialistik g‘oya, muammo, mavzu, dunyoqarash nuqtayi nazaridan qaraldi. Adabiyot kommunistik partiyaning mafkuraviy nazorat vositasi va totalitar sovet tuzumini mustahkamlovchi qurol sifatida talqin qilindi. XX asr mobaynida, xususan, sho‘ro davrida har bir yozuvchimiz mahorati takomili ko‘p hollarda faqat rus adabiyotiga bog‘lab qo‘yildi va bu masala ba’zan zo‘rma-zo‘raki, majburiy, sun’iy ravishda izlab topishlarga ulanib ketildi.

4. Adabiy ta’sir degan tushunchani faqat ijobiy ma’noda tushunib va ishlatib kelamiz. Holbuki, sho‘ro adabiyoti tarixi, uning sotsialistik yo‘nalishdagi mamlakatlararo adabiyot, shuningdek, o‘zbek adabiyotiga bir qator adabiy-badiiy qadriyatlarda salkam bir asr mobaynidagi ta’siri shunday xulosa chiqarishga asos beradiki, adabiy ta’sir zarur, ijobiy, maqbul va matlub bo‘lishi bilan birga, salbiy bo‘lishi ham mumkinligini inkor etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, Oktabr revolyutsiyasini madh etish, Lenin va partiyani ulug‘lash kabi shiorbozliklarning butun sovet adabiyotida ommaviy tus olgani achchiq tarixiy haqiqatdir. XX asr o‘zbek adabiyoti rivojini va adiblarimiz ijodini ham, asosan, sotsializm g‘alabalari va Oktabr revolyutsiyasi bilan bog‘lab talqin etish, Gorkiy, Mayakovskiy kabi adiblar ijodining ta’siri deb tavsiflanishi kabi sun’iy bo‘rttirishlar ham ildiz otganligining sabab-oqibatlari ayon.

II BOB. ADIBLAR IJODIGA RUS VA JAHON ADABIYOTI TA’SIRI

2.1-§. Adib asarlarining milliy o‘ziga xosligi: ijtimoiy-estetik omillari

XX asr o‘zbek adabiyotini Abdulla Qahhor ijodisiz to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, o‘zbek hikoyachiligining shakllanishi va taraqqiyotida adibning xizmati beqiyosdir. Bizning fikrimizcha, o‘zbek romanchiligi rivojida Abdulla Qodiriy qanchalar yuksak mavqeni egallasa, o‘zbek realistik hikoyachiligi sohasida Abdulla Qahhor shunday sharafli o‘rinni egallagan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Abdulla Qahhor realistik hikoyachilikda nafaqat o‘zbek yozuvchilariga, balki ko‘plab rus va jahon adiblariga ham ustoz hisoblanishi hech kimda shubha uyg‘otmasa kerak. Abdulla Qahhor asarlari haqiqiy iste’dod mevalaridir. Bu iste’dodning nodir qirralari va nurli jilolari bor[49]. Yangi davr o‘zbek nasri, xususan, realistik prozamiz rivoji, shubhasiz, Abdulla Qahhor nomi bilan bog‘liqdir.

Adibning “Sarob” asari romanchiligimizda oldinga tashlangan bir qadam bo‘lsa, “Sinchalak” qissasi mahorat jihatdan mukammal asarlardan biri bo‘lsa, “O‘tmishdan ertaklar” adabiyotimizda yangi bir sahifa ochdi (Sh.Xolmirzayev). Abdulla Qahhor o‘zining “Shohi so‘zana” (Yangi yer), “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush” (So‘nggi nusxalar) va “Ayajonlarim” komediyalari bilan ulkan dramaturg sanaladi. Respublikamizdagi yagona satira teatri Abdulla Qahhor nomi bilan atalishi be’jiz emas. Adib adabiyotimizning cho‘ng chinorlari – Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon va Maqsud Shayxzoda kabi ko‘p qirrali iste’dod sohibi edi. Abdulla Qahhor ham boshqa adiblarimiz kabi davr farzandi edi. U ham Oktabr inqilobi va komfirqaning “jozibador” va’dalari-yu shiorlariga ishonib, qalam tebratgan va muayyan darajada zamon talablariga bo‘ysunishga majbur bo‘lganini inkor etib bo‘lmaydi. Masalan, adibning adabiyotshunoslar e’tiboridan chetda qolgan “Hamqishloqlar” hikoyasida real voqelik davr talabi va mafkura ta’sirida birmuncha bo‘yab-bejab tasvirlangan.

[49] Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Тошкент, 1988. – Б. 17

Bundan 65 yillar ilgari yozilgan, ammo adibning biror to‘plamiga kiritilmagan va adabiyotshunoslikda o‘rganilmagan “Hamqishloqlar” hikoyasida davr muhiti aniq sezilib turadi. Ya’ni urushdan keyingi davrda hukm surgan “konfliktsizlik nazariyasi” va madhiyabozlik kabi illatlar Abdulla Qahhor asarlariga ham salbiy ta’sir o‘tkazganini shu hikoya misolida ko‘rish mumkin. Hikoyani o‘qigan o‘quvchi ko‘z oldida 50-yillardagi og‘ir qishloq hayoti emas, balki zamonaviy bir shahar manzaralari gavdalanishi turgan gap. “Biz boqqa kirganda, xiyobonlarda odam kezar, qizil choyxona va qiroatxona gavjum, gulzorda ikki odam bo‘yi otilib, rang-barang chiroqlar yog‘dusida yuz tovlanib tushayotgan fontan atrofida bolalar u yoqdan bu yoqqa yugurishar edi”.[50]

Iste’dodli qahhorshunoslarimizdan U.Qosimov va R.Qo‘chqorovlar aytganidek, Abdulla Qahhordek haqgo‘y yozuvchi ham ba’zi asarlarida realistik san’at prinsiplaridan bir qadar chekinishga majbur bo‘lgani va asarlarida shunday bo‘yab-bejashlar o‘rin olganiga sabab hukmron mafkura va g‘arazli tanqidning asossiz talablari edi[51]. Hikoyada mashhur “Sinchalak” qissasidagi ayrim voqea va xarakterlarning dastlabki chizgilarini ham uchratish mumkinki, bular ham asarning o‘quvchi va tadqiqotchilar uchun muayyan adabiy-tarixiy qimmatga ega ekanligidan guvohlik beradi.

Tanqid va adabiyotshunosligimizda turli xil talqin va bahslarga sabab bo‘lib kelayotgan yana bir holatga to‘xtalish lozim. Abdulla Qahhorning xalqimiz hayoti va tarixini yorituvchi “O‘tmishdan ertaklar” qissasi va qator hikoyalariga nisbatan noxolis bir qarash davom etib keladi. Ya’ni emishki, adib xalqimiz o‘tmishini butkul qoralab yozadi va hatto “uydurmachilikka berilib” ketadi, degan ayblovlar ham bo‘lgani adabiy jamoatchilikka ma’lum. Bunday biryoqlama qarashlar asossizligi “O‘tmishdan ertaklar” qissasidagi muxtasar so‘zboshida ham qahhorona qayd etilgan. Afsuski, bunday qarashlarga adib ijodini chuqur o‘rgangan atoqli olim M.Qo‘shjonov va I.Haqqulovlar ham qo‘shilib, bu xulosaga moyillik bildiradilar: Abdulla Qahhorning “deyarli barcha asarlarida moziy

[50] Ҳикоя ва очерклар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955. – Б. 10.
[51] Қўчқоров Р. Истеъдод қадри. – Тошкент, 1989. – Б. 66-67.

juda nursiz va qop-qora bo‘yoqlarda namoyon bo‘ladi”, – deydi hassos adabiyotshunos I.Haqqulov.[52]

Bizningcha, eng avvalo, mazkur asarlar yaratilishi bilan bog‘liq hayotiy va adabiy-estetik omillarni nazarda tutish lozim. Zero, muayyan asar, avvalo, muallif shaxsi, iste’dod xarakteri, hayot tajribasi, voqelikni hissiy-emotsional idrok etishi va badiiy-estetik tafakkuri mahsuli bo‘lib maydonga keladi. Bu murakkab va ma’lum darajada sirli bo‘lgan ijodiy-ruhiy jarayonda yozuvchining shaxsiy hayoti, ko‘rgan-kechirganlari, biografik unsurlari ham muhim o‘rin tutishi tabiiy. Bu jihatdan Abdulla Qahhorning “Hayot hodisasidan badiiy to‘qimaga” nomli maqolasi va “O‘tmishdan ertaklar” qissasidagi so‘zboshisi alohida ahamiyatga ega. Taniqli adabiyotshunos Hotam Umurov ta’kidlaganidek, sobiq sovet davridagi eng nufuzli adabiy jurnallarda nashr qilingan va adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otgan ushbu salmoqli maqolada “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Adabiyot muallimi” hikoyalari yaratilishi bilan bog‘liq yosh ijodkorlar uchun ijodiy laboratoriya vazifasini o‘tovchi ko‘plab hayotiy va badiiy lavhalar keltirilgan.[53]

Abdulla Qahhor shaxsi, asarlari ijodiy tarixini tushunishda o‘ziga xos ochqich bo‘lgan bu maqolada adabiyot va hayotning uzviy bog‘liqligi haqida shunday deydi: “Ko‘plar qatori men ham o‘z tajribalarim, shaxsiy taassurotlar adabiy asar uchun eng qimmatli material ekanini tushunib olgunimcha “yozuvchilik”da ko‘p sarson bo‘lganman”. Darhaqiqat, Chingiz Aytmatov, A.Tvardovskiy kabi mashhur shoir va yozuvchilar ham bolalikda ko‘rgan-kechirganlari va xotiralarini ijod ahli uchun “oltin zahira” deb ta’riflashadi. Binobarin, “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Anor”, “Dahshat” singari mumtoz hikoyalar va “O‘tmishdan ertaklar” qissasi yaratilishida Abdulla Qahhordek yirik shaxs va ijodkorning o‘ziga xos badiiy-estetik tafakkuri, ijodiy mushohada quvvati, hayotiy voqelik, tarixiy o‘tmish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, yozuvchining turmush tajribasi va hasbi hol unsurlari ham muhim omillar bo‘lgan.

---

[52] Adabiyotimiz faxri. – Toshkent, 2007. – B. 30-31.

[53] Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Тошкент, 1988. – Б. 34.

Ayrim adabiyotshunoslarning Abdulla Qahhorning “deyarli barcha asarlarida moziy juda nursiz va qop-qora bo‘yoqlarda namoyon bo‘ladi”, degan xulosasi bahsli ekanligini adib asarlari ham tasdiqlashi mumkin: “Bemor”da qo‘shni kampir kasal ayolga va yosh qizchasiga hamdardligi va chorasizlikdan, rahmdilligidan yig‘lashi, uning odamiyligi va mehr-oqibati kitobxonni befarq qoldirmaydi. Yoki “O‘g‘ri” hikoyasidagi qo‘shnilarning oqibati-chi? Ular ham qashshoq, bechorahol bo‘lsa-da, uyida borini mushtipar Qobil boboga berishadi.

“O‘tmishdan ertaklar”da Abdullalar yangi mahallaga ko‘chib kelgan kuniyoq hali durustroq tanishib ulgurmagan qo‘shnisi To‘xta xola osh qilib chiqadi. Abdulla Qahhor mana shunday oddiy odamlarning o‘zaro mehr-oqibatlarining odatiy ifodasi bo‘lgan hayotiy lavhalarni, aslida, xalqimizning yuksak bir fazilati sifatida tasvirlagan.

Yoki quyidagi lavhada ham insoniylik, diyonat kabi azaliy fazilatlar aks etgan: “Olim buva, saharda turib non yopadi, nonni do‘konning oldidagi taxtaga dastalab qo‘yganidan keyin chorvog‘iga kirib ketadi-yu, shom qorong‘isida chiqadi; do‘konga kelib nonni, tushgan pulni sarflaydi, pul ba’zan kam kelsa kerak, javraydi, pul yoki non kam kelganiga emas, pul tashlamasdan non olib ketgan kishi birovning haqini yeb, gunohkor bo‘lganiga kuyadi”.

Yoki usta Abduqahhor bilan temirchi hamkasblarining o‘zaro muomala-munosabatlaridagi mehr-oqibat, samimiyatdan kitobxon dili yorishmaydimi? Usta birdan-bir boyligi “Zinger” tikuv mashinasini sotib, pulini shogirdi Kulalaga beradi va tanishlaridan ham kerakli asbob-uskunalarini olib, uning hamma ishkalini but qilib beradi. Qaysi tadbirkor yo ustoz o‘z dastgohi-ish qurolini ham shogirdiga berib, yana bunday odamgarchilik-himmat ko‘rsata oladi? Yoki Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” qissasida ham bir necha o‘rinda oddiy temirchilar xira shamchiroqda kitobxonlik qilib o‘tirganlari tasvirlangan. Bularni “o‘tmishning qop-qora lavhalari” deb atasak, adolatdan bo‘ladimi? Nihoyat, Abdulla Qahhor asarlarida ham yaqqol namoyon bo‘lib turgan shafqatsiz realizmni hamda xolis va haqqoniy tasvirlash

mahoratini his etish uchun kitobxondan Maksim Gorkiy orzu qilgan ziyraklik va nekbinlik bilan birga asar qahramonlariga hamdardlik tuyg‘usi ham talab qilinadi. Butun hayoti davomida kitob mutolaasini asosiy mashg‘ulot deb bilgan Maksim Gorkiy sevimli ustozi A.P.Chexov asarlarining g‘oyat ta’sirchanligini ta’kidlab shunday yozadi: “Chexov hikoyalarini o‘qiganimda, donishmand bir odamning chuqur g‘am-anduhini eshitgandek bo‘laman…”[54]. Bunday teran xulosa Abdulla Qahhorning yuksak mahorat bilan yaratilgan ko‘plab realistik asarlariga nisbatan ham munosib bir ta’rif bo‘lishi mumkin, deb o‘ylaymiz. Zero, hamisha xalq dardi va tilining uchidagi muhim gap, ya’ni hayot haqiqatini aks ettirishni o‘zining oliy maqsad va a’moli deb bilgan Abdulla Qahhor asarlarining tag zaminida ana shunday millatparvar ulkan qalb sohibining nurli dard-armonlari ifodalangan.

Istiqlol sharofati bilan o‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi ham g‘oyaviy, ham badiiy-estetik saviyasi jihatidan yangi bir bosqichga ko‘tarildi. Shu munosabat bilan adabiyotshunos U.Qosimovning bir xotirasini keltirish lozim. Qahhorshunos olim yozishicha, Abdulla Qahhor uy-muzeyida an’anaviy xotirlash kechasida aytilgan muhim bir haqiqat alohida e’tiborga loyiq. Taniqli adiblar, akademiklar, adabiyotshunos-muxlislar qatnashgan anjumanda E.Vohidov tarixiy bir voqeani sharqona lutf bilan e’tirof etgan edi: “Istiqlol davrida ijod ahliga e’tibor va g‘amxo‘rlik beqiyos ortdi. Mashhur ijodkorlar – Said Ahmad, Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov va To‘lepbergan Qayipberganov Vatanimizning oliy mukofoti “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. Ularning barchasi Abdulla Qahhor mehridan va unutilmas saboqlaridan bahramand bo‘lgan. Shu bois ustozimiz Abdulla Qahhorni to‘rt marta adabiyotimiz Qahramoni bo‘ldi, deb e’zozlaymiz”[55]. Bu – samimiy va adolatli e’tirof edi!

Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhorning ustoz sifatidagi faoliyatidan bahramandlik keyingi avlodlar tafakkuri va ijodida, tili va uslubida ham rivoj topmoqda. Abdulla Qahhorning butun ijodida, xususan, adabiy-tanqidiy asarlarida katta o‘rin tutuvchi

[54] Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Тошкент: 1988. – Б. 178.
[55] Qosimov U. Yozuvchining sirlari. Abdulla Qahhor saboqlari. – Toshkent, 1995. – B. 47.

muammolardan biri, hech shubhasiz, badiiy asar tili masalasidir. Chunki til uning uchun hamisha eng muhim sohagina emas, balki adabiyot rivojining asosiy sharti, omili bo‘lgan**.** A.Qahhor tasavvuriga ko‘ra, til yozuvchining asosiy quroli, adabiy formaning muhim bir elementi bo‘lishi bilan birga asar mazmunining munosib bir shaklda namoyon bo‘lishi hamdir. Bu haqda yozuvchi shunday deydi: “Adabiyot – bu til! Men shu vaqtga qadar biror yozuvchi tilsiz, imo-ishoralar bilan badiiy asar yaratganini eshitganim yo‘q… Agar hozir mendan “Siz uchun til badiiy ijodning boshqa muammolari orasida qanday o‘rin tutadi?” – deb so‘rashsa, men javob berishga qiynalaman. “Asosiy o‘rinni”, – deyishdan boshqa so‘zim yo‘q”. Adibimizning bu fikrini uning tilga bo‘lgan g‘oyat mas’uliyatli munosabatini va badiiy til haqidagi qarashlarining tub mohiyatini belgilovchi negizi deb qarash mumkin.

Abdulla Qahhor asarlarida fors-tojikcha so‘z va iboralar ham san’atkorona qo‘llangan. Yozuvchining “To‘yda aza” hikoyasiga “Zo‘ri behuda miyon meshikanad” (“Behuda chiranish belni sindirar”) degan maqol epigraf qilib olingan (A.Qahhor. Asarlar. 1-t. – B. 374). Bu mashhur ibora Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ham Yusufbek hoji tomonidan qo‘llanilib, muhim g‘oyaviy-badiiy funksiyani bajarganligiga guvoh bo‘lamiz. Abdulla Qahhor ham bu an’anaviy iboradan mohirona foydalangan. Hikoya qahramoni keksa domlaning yoshgina bir tannozga uylanib, o‘zini yosh yigitday ko‘rsatishga behuda urinishlari, chamandagul do‘ppi, tor shim kiyib yurishi-yu, nomunosib qiliqlari alal-oqibat uning ham ma’nan, ham jisman o‘limiga sabab bo‘lganligini chuqurroq tushunishimizda bu maqol o‘ziga xos bir kalit vazifasini o‘taydi. Bunday misollar boshqa adiblar ijodida ham ko‘plab uchraydi. Masalan, qadimiy forsiy ibora Asqad Muxtor uchun yetuk falsafiy she’r yaratishiga asos bo‘lgani ham ibratli holdir. Birgina oddiy ibora Asqad Muxtor talqinida inson umrining mohiyati va qadri haqida teran mushohada yuritishga undovchi poetik detalga aylanadi: “«In ham meguzarad». Bali, tugib oling dilga. Chindan, hamma narsa so‘zsiz o‘tadi. Lekin o‘tgan har bir narsa o‘zi bilan birga Umrning bir qismin olib ketadi”.

Shoʻro davriga oid taʼsir xususidagi aksariyat ishlarga nazar tashlasak, XX asr oʻzbek adabiyoti rus adabiyotidan tugʻilgan bola adabiyotga mengzab talqin qilingan hollarni kuzatamiz. Goʻyo rus adabiyoti boʻlmasa, XX asr oʻzbek adabiyoti boʻlmas ekan-da, degan tasavvur paydo boʻladi. Bu bilan yirik olimlarimizning shoʻro davrida, istiqlol arafasida va undan keyin yaratilgan ishlaridagi muvaffaqiyatli natijalarni inkor etmoqchi emasmiz. Ammo adabiy taʼsir muammolarini oʻrganish borasida istiqlolgacha boʻlgan davrdagi kamchiliklardagi yetakchi tamoyillarga eʼtibor qaratmoqchimiz. Yoshlarga ehtimol noma'lumdir, lekin hozirgi keksaroq avlod yaxshi biladi: milliy adabiyotimizga doir 8-sinf darsligi Mayakovskiy portreti bilan, 10-sinf kitobi esa Gorkiy adabiy portreti bilan ochilar, ulardan keyingina "oʻzbek adabiyoti" deb nomlangan bu darsliklarda oʻzbek yozuvchi-shoirlari hayoti va ijodi haqida maʼlumot berilardi.

Buyuk rus yozuvchisi Gorkiy aytganidek, talantning 99 foizi mehnat[56]. Ijodkorda Alloh bergan ilohiy ilhomdan tashqari, oʻqib oʻrganish, tinmay izlanish, mehnat qilishga ishtiyoq boʻlmas ekan, buyuk yozuvchi boʻla olmaydi. Chingiz Aytmatov taʼkidlaganidek: "…Hech kim oʻz-oʻzidan yozuvchi boʻlib qolmaydi: yillar sabogʻi, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga boʻlgan qiziqish va eʼtiqod orqali bunga erishish mumkin". Yosh isteʼdod egalari ustozlar anʼanasi va ijodini oʻrganib, oʻz ijodiy yoʻlini topadi. Xususan, Abdulla Qahhor ijodida ham ustozlaridan oʻrgangan anʼanalar, tinimsiz mehnat qilish, hayotni teran idrok etish, sinchkov nigoh, oʻtkir zehn, shuningdek, mustahkam xotira alohida ahamiyatga ega. Adib oʻtmishni jonlantirar ekan, bolalik xotiralariga yuzlanadi. Oʻtgan kunlardagi voqealarni chuqur mushohada etib, kitobxonga hikoya qiladi, kitobxon esa oʻziga maʼnaviy va maʼrifiy ozuqa oladi.

"Oʻtmishdan ertaklar" qissasida yozuvchi koʻzi bilan koʻrganlarini, oʻtmish hayot lavhalaridan esida qolganlarini hech mubolagʻasiz qalamga olgan. Adib bu haqda shunday yozadi: "Zehnimda shunga oʻxshagan qalqib yurgan xotiralardan tashqari qalqimasdan toshdek choʻkib yotgan xotiralar ham hisobsiz ekanidan uzoq zamon bexabar ekanman. Bundan meni Anton

[56] Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 21.

Pavlovich Chexov domla xabardor qildilar. Ustodning muborak koʻzoynaklarini taqib, xalqimizning oʻtmishiga qaradim”[57]. Avtobiografik xarakterga ega ushbu qissaning “Hur qiz” deb nomlangan qismida bola Abdulla amakisining qizi Savriniso va uning bevaqt oʻlimi haqida hikoya qiladi. Savrinisoning koʻngli boʻlmaganligi uchun Azimga tegishni xohlamaganini otasi va atrofdagilar toʻgʻri tushunmaydi. Natijada, qizning otasi uni savalaydi. Bu esa uning oʻlimiga sabab boʻladi. Adib bolalik xotiralarini qogʻozga tushirar ekan, Savrinisoning oʻlim bilan olishib yotganini koʻrib, atrofidagi odamlarning harakatlarini kuzatib, unga joni achib sogʻayib ketishini xohlaydi. Keyinchalik yoshi ulgʻayib bolalik xotiralarini xotirlagan adib, oʻlim sharpasi yoshgina qizga chang solib turganidan ta’sirlangan, ongiga chuqur singib ketgan oʻsha taassurotini qalamga olgan va mahorat bilan quyidagicha tasvirlagan: “Savriniso kechgacha ham oʻziga kelmadi, aksincha, isitma chiqardi. Ayam uning yonidan jilmadi. Men goh derazadan qarayman, goh eshikka bosh tiqaman, Savriniso koʻzini ochishini, meni chaqirishini kutaman, undan koʻra ham birdan: «Va-a, hammalaringni aldagan edim», deb oʻrnidan turib ketishini xohlar edim”[58].

Yetuk adabiyotshunoslarimizdan biri Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi” darsligida ijodkor ta’sirlangan voqelikni biror kun yozilajak asarida aks ettirishi xususida fikr bildirib oʻtgan.

Ijodkorga xos xususiyatlardan biri ta’sirchanlik boʻlib, buni joʻn tushunmasligimiz kerak. Turfa hodisalarga va taqdirlarga, turli fe’l-atvorli odamlarga boy hayotimizda hamma ham ta’sirlanadi. Oʻz hayot yoʻlida fojiali qismatga duchor boʻlganda kimdir yigʻlasa, kimdir taskinni shisha tubidan izlaydi. Bunday hollarda san’atkor sirtdan beta’sir qolishi, biroq ayni damda qalbida ulkan toʻfonlar qoʻzgʻalgan, aqli-yu shuuri shu holatning mushohadasi bilan band boʻlishi mumkin. Ayni shu holatdan ta’sirlanish keyinroq biror-bir asarida namoyon boʻlishi mumkin[59].

[57] Abdulla Qahhor. Oʻtmishdan ertaklar. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 12.
[58] Abdulla Qahhor. Oʻtmishdan ertaklar. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 49.
[59] Quronov D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2018. – B. 119

San’atkorga xos muhim tug‘ma xususiyat shuki, u ong osti qatlamlaridagi, xotiradagi taassurotlarni qayta uyg‘ota oladi va ularni ijodiy tasavvurga jalb eta oladi. Shu bois ham ijodkor olis bolaligida olgan taassurotini yetuklik paytida yozgan asarida aks ettirishi mumkin. Shunda ham o‘sha taassurot bizga yangidek tuyuladi[60].

Abdulla Qahhor bola ruhiyatini, olamini chuqur anglay olgan. Albatta, muhit, sharoit va mashaqqatlar kattalar singari bolalarni ham erta ulg‘aytirib qo‘yishi mumkin. Dunyo ishlarini tushunib-tushunmagan bola psixologiyasini ochib beruvchi bu kabi tasvirlar adib mahorati, mustahkam xotirasi hamda hayotdan olgan ta’siri samarasidir. Shuningdek, buyuk rus adibi Maksim Gorkiy qalamiga mansub “Bolalik” qissasida ham qahramonlardan biri Siganok vafot etadi. Yosh Maksim buning guvohlaridan biri edi. Ikki buyuk yozuvchi asarlarida hayot manzarasi qoldirgan taassurot tasviridagi uyg‘unlikni aynan bolalarning istaklarida kuzatishimiz mumkin:

“Enaga Ivanning shapkasini oldi: uning boshi duk etib polga tushdi-da, qiyshayib qoldi. Endi og‘zidan-labining bir chetidan laxta-laxta qon kela boshladi va anchagacha to‘xtamadi. Oldiniga men, Siganok bir oz dam olgach, o‘rnidan turib polga o‘tiradi-yu, tuflab tashlab: «Voy, muncha issiq-a!» desa kerak, deb o‘ylagan edim. U yakshanba kunlari tushki ovqatdan keyin uxlab turganida shunday qilar edi. Ammo bu safar o‘rnidan turmas, borgan sari so‘lib, erimoqda edi”[61].

Siganokni katta but bosib qoldi. Uning jon berish tasviri ayanchli. Bola bu tasvirning tirik guvohi, ammo ishongisi kelmaydi. Jon berayotgan yigitning o‘rnidan turib hamma bilan hazillashganini ko‘rsatishini xohlaydi. Ikkala asarda ham asar qahramonlari o‘lim bilan olishayotgan yaqinlarining hayotga qaytishini xohlaydi. Sof qalbi ila “qaniydi…” deya tilaklar qiladi. Bolalar hamma xalqda ham sof va beg‘ubor qalb egalaridir.

Alyosha Peshkovni avvaliga bobosi unchalik xushlamagan bo‘lsa-da, keyinchalik o‘tkir zehni sababli unga muhabbati yanada

[60] Quronov D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2018. – B. 120.
[61] Максим Горкий. Болалик. – Тошкент: Ёш гвардия, 1981. – Б. 46.

ortadi. O‘qishni boboning o‘zi o‘rgatadi va o‘zi yashagan davr, rus tarixi haqida bolaga so‘zlab berishni yoqtirib qoladi. Avtobiografik asarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ijodkorning u yashagan davr tarixiy, ijtimoiy va siyosiy muhiti to‘g‘risida kitobxonda tasavvur hosil qilishdir. Avtobiografik xarakterdagi asarlar shu kabi xususiyatlari bilan ham keng qamrovlidir. Maksim Gorkiy bobosi unga aytib bergan real hikoyalaridan fransuzlar haqida, Napoleon va rus tarixida fransuz urushlari to‘g‘risida bilib olar ekan, uni quyidagicha eslaydi:

“Uning aytgan gaplaridan ko‘pini eslab qolgim kelmas, ammo ular bobomning amrisiz ham alamli tikonday xotiramga qadalardi. U hech qachon ertak aytmas, faqat bo‘lgan voqealarni hikoya qilardi, savol bergan kishini yoqtirmasligini sezib, ustma-ust savol beraverar edim”[62].

Maksim Gorkiyning savodli bo‘lishida bobosining mehnatlari beqiyos bo‘lsa, Abdulla Qahhorning ta’lim olishida ham otasining xatti-harakati o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan. Og‘ir sharoitda yashashiga qaramasdan o‘g‘lining savod chiqarishi uchun ota harakatdan bir zum to‘xtamaydi. Maksim Gorkiyning buvisi nabirasiga farishtalarni ko‘rgani, ular faqat begunoh odamning ko‘ziga ko‘rinishi, ularning tumanga o‘xshashi haqida hikoya qilib bergan bo‘lsa, adibning otasi onasiga “Kitobi bahri durur”dagi “Odamzodning har yelkasida bittadan farishta o‘tiradi, o‘ng yelkasida o‘tirgan farishta uning savob ishlarini, chap yelkasida o‘tirgan farishta uning gunohlarini yozadi…” degan jumlalarni o‘qib bergan, yosh Abdulla ularni eshitib, ulg‘aygan. Bu tahlillarimizdan ikkala yozuvchi ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni egallagani, yaqinlari ularni bilimli bo‘lishlari bilan bir qatorda imonli, sof qalbli qilib ulg‘aytirishga harakat qilganliklarini anglash mumkin.

Taniqli yozuvchi O‘tkir Hoshimov Ustoz Abdulla Qahhor haqidagi xotiralarida ustozni shunday esga oladi: “Abdulla Qahhor nihoyatda o‘qimishli, jahon adabiyotidagi har bir yangilik, har bir yo‘nalishni diqqat bilan kuzatib boradigan alloma adib edi. Rus adabiyotining buyuk namoyandalari – Chexov hikoyalarini, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopeyasini, Pushkinning nasriy

[62] Максим Горкий. Болалик. – Тошкент: Ёш гвардия, 1981. – Б. 71

asarlarini, Gogolning mumtoz dramalarini o‘zbek tiliga tarjima qilganining o‘zi ham Qahhor domlaning adabiyotimiz va madaniyatimiz oldidagi ulkan xizmatlaridan darak beradi”[63].

Ustoz Abdulla Qahhor badiiy ijodni “tirikchilik” deb hisoblash o‘rinsiz ekanini, iste’dod insonga Xudo tomonidan berilgan noyob in’om bo‘lib, uni moddiy yoki ma’naviy vositaga aylantirish gunoh bo‘lishini ko‘p bor ta’kidlagan va shu qoidaga o‘zi ham qat’iy amal qilgan. Adib iste’dodli qalamkashlarni avaylab, ularning yutug‘idan quvongan. Ammo xom asar yoza boshlasa, ularni koyib, to‘g‘ri yo‘lga solgan, maslahatlar bergan. Yozuvchi Nosir Fozilov adibni: “Nazarimda, Ustoz Chexov singari o‘zi ham shogirdlariga bitta-bittadan ko‘zoynagini ulashib ketganday”, – deya yodga oladi. U Abdulla Qahhor tilidan ancha-muncha gaplarni, mitti hangomalarni yozib olgan bo‘lib, ulardan biriga diqqatimizni qarataylik: “Ko‘pincha yoshlar: «Qanday yozish kerak?», «Qanday qilsa yaxshi yozuvchi bo‘lish mumkin?» – deb so‘rashadi. Meningcha, yozish ishi shunday murakkabki, yaxshisi uni birovdan o‘rgangandan ko‘ra o‘zing o‘rganganing osonroq. Chunki senga hech kim, mana bunday qilsang, yaxshi yozuvchi bo‘lasan, deb retsept berolmaydi”[64].

Adib yuqoridagi fikrida ijod yo‘lida yaxshi yozuvchi bo‘lish istagidagi, ammo qanday tarzda ijod qilishga ikkilangan, adabiyot olamiga endigina kirib kelayotgan yoshlarga ijodkorning o‘zi izlanishi, o‘z ustida ko‘p ishlab, bilimlarini oshirib borishi, tinimsiz mehnat natijasidagina ijod olamida o‘z yo‘lini topish mumkinligini ta’kidlab o‘tgan.

Ba’zi adabiyotshunoslar Abdulla Qahhorning voqelikni xolisona tasvirlash usulini butunlay Chexovga bog‘lab qo‘yishadi. Vaholanki, A.Qahhor Chexov ijodi bilan chuqur tanishmasdan oldinroq yozgan asarlari, chunonchi, “Sarob” romanida ham hayotni xolis tasvirlagani yirik adabiyotshunos M.Qo‘shjonovning “Adashganlar fojeasi”, O.Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor” badiasi va R.Qo‘chqorovning “Iste’dod qadri” asarlarida ham to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilgan:

[63] Abdulla Qahhor. O‘tmishdan ertaklar. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 7.
[64] Fozilov Nosir. Ustoz so‘zlaganda. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 27.

Ikkinchidan esa, yana shuni ham ta’kidlash lozimki, hayotni xolis tasvirlash usuli faqat Chexov yoki Gogolning emas, balki realistik san’at va adabiyotning azaliy, asosiy bir yo‘nalishidir. “Boburnoma” bunga eng yorqin misoldir. Boshqa tomondan, agar ijodiy ta’sir xususida gap borsa, avvalo, Gogol ta’sirini ko‘rsatib o‘tish to‘g‘ri bo‘ladi. Adibning o‘zi bu haqda shunday yozadi: “Gogol asarlarini o‘qiy boshlaganimdan keyin uzoq vaqt jiddiy hikoya yozolmay yurdim. Nihoyat, “Boshsiz odam” degan hikoya yozdim. Birinchi hikoyam (“Yosh qizlar o‘gay ota qo‘lida”) bir voqea haqida o‘quvchiga ma’lumot bergan va bu voqeaga o‘z munosabatimni har satrda ta’kidlagan bo‘lsam, “Boshsiz odam”da o‘zim “xolis” turib, o‘sha vaqtdagi hayot lavhalaridan birini ko‘rsatishga va bunda ilk marta odam xarakteriga qo‘l urishga harakat qilgan edim”.

Azaldan ma’lumki, “Har bir millat boshqa millatdan o‘rganishi mumkin va o‘rganishi lozim”[65]. Har bir millatdagi ma’lum bir ijodkor asar yozishga kirishar ekan, asarni yaratish asosida o‘tmish zamondoshlari va o‘z davri ijodkorlarining mahorati hamda ilg‘or an’analari zamirida egallagan ilmlar, tajribalar, jahon adabiyoti namoyandalarining asarlaridan olgan ijodiy taassurotlariga ham tayanishi ijod jarayonidagi muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan. O‘z xalqining turmushi, madaniyati va adabiyotidan tashqari, boshqa yaqin va uzoq xalqlarning hayoti, madaniyati, xarakteri, psixologiyasi bilan tanishishga qiziqish hamda ular turli tarixiy sharoitda yaratgan emotsional-ma’naviy boyliklarni qadrlab o‘rganish xalqlar o‘rtasidagi bir-biriga hurmat, do‘stlik xislatlarini tarbiyalagan[66]. Dastlab tanishuvdan boshlangan adabiy aloqalar, keyinchalik ijodiy ta’sir, ta’sirlanish va ilhomlanish darajasiga ko‘tarilgan. Insonning ijtimoiy shaxs o‘laroq kamol topishida o‘zga xalqlar, elatlar bilan munosabati katta ahamiyatga ega, degan tushuncha tobora kengroq tarqalib, purhikmat xotira sifatida avloddan avlodga o‘tib kelgan. O‘zbek va qirg‘iz adabiyoti o‘rtasidagi mustahkam adabiy do‘stlik aloqalari asrlar osha bizgacha yetib

[65] Адабиёт назарияси. Иккинчи том. Тошкент, 1979. – Б. 65

[66] Yuqoridagi manba. – B. 66

kelgan umuminsoniy an’analardan biridir. Bu kabi qadriyatlarimiz davomiyligida ijod ahlining, badiiy adabiyotning, shuningdek, adabiyotshunoslikning asosiy muammolaridan biri adabiy ta’sir masalasining ham o‘rni beqiyos deb o‘ylaymiz.

Chingiz Aytmatov jahon adabiyotida o‘z o‘rniga va so‘ziga ega ustoz adiblardan biri. Yozuvchi asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan va kitobxonlar tomonidan asarlari sevib o‘qilmoqda. Adib asarlarida umuminsoniy masalalarni ilgari suradi. Bashariyat uchun jon kuydiradi. O‘zga ellar qatorida o‘zbek xalqiga va adabiyotiga ham chuqur ehtirom bildiradi.

Avvalo, yozuvchi O‘rta Osiyodagi boshqa xalqlar singari o‘zbek adabiyotiga ham befarq bo‘lmadi. San’atimiz, adabiyotimizdagi har bir yangilikdan xabardor bo‘lib turdi. Xususan, Oybek, Mirtemir, Zulfiya, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirovlar ijodini e’tirof etdi, hamisha xalqimizga samimiy, sidqidildan munosabatda bo‘ldi. Chingiz Aytmatov ta’sir jarayoni, adabiy ta’sir masalasi adabiyotshunoslikda muhim jarayon ekanligini ta’kidlab, o‘zbek adabiyotini, o‘zbek madaniyatini yuksak baholab: “Qadim-qadim o‘zbek madaniyatining O‘rta Osiyoga ko‘rsatgan ta’sirini ko‘hna Vizantiyaning Qadim Rusga ta’siri bilan qiyoslash mumkin”, – deydi[67]. Asqad Muxtorning “Ildizlar” qissasida Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanining ijodiy ta’sirini kuzatish mumkin. Yangi davrning adabiyot ahllari o‘z salaflari qoldirgan san’at injularini unutmaslik uchun har vaqt merosga murojaat qilib turadilar. Ayni zamonda ular o‘z asarlarining ta’sir kuchini yo‘qotmaslik, zamon bilan hamnafas bo‘lish uchun tematikani, tasviriy vositalarni tinmay yangilab boradilar. Bundan kuzatiladigan asosiy maqsad zamondosh kitobxonlar ommasiga bo‘lgan hurmat, ularning badiiy zavqini yuksak g‘oyaviy-estetik ideallar ruhida tarbiyalash va axloqiy jihatdan boyitishdir. Shunday ekan, Asqad Muxtor ham o‘zini ilhomlantirgan asardan ijodiy zavqlanib “Ildizlar” qissasini yaratgan. Merosga vorislik, an’ana va novatorlik jarayoni shu tariqa davom etadi. Shuningdek, bir ijodkorning boshqa el ijodkori asarlaridan o‘rganishi, ijodiy

[67] https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingiz_Aytmatov

ergashishi, adabiy ta’sirlanishi ularning mushtarak dunyoqarashga ega ekanligidan ham bir darakdir.

Asqad Muxtorning “Ildizlar” qissasi va Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani o‘rtasidagi mushtaraklikni dastlab quyidagi parchalar orqali izohlashga harakat qilamiz: Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanida Kazangap vafot etgach, Edige Bo‘ron va qo‘ni-qo‘shnilar marhumni vasiyatiga ko‘ra Ona Bayit qabristoniga izzat-hurmat bilan dafn etmoqchi bo‘lganida shaharda yashaydigan o‘g‘li Sobitjon bunga norozi bo‘ladi. “Ildizlar” qissasidagi Mamat bemor onasini ko‘rgani qishloqqa kelganda vaqti ketayotganini his etishi, o‘ylari, ona vasiyatini bajarmasligi, onaizorning so‘nggi iltimosiga nopisandlik bilan qarashi “Asrga tatigulik kun” romanidagi Sobitjonni esga soladi.

Adib Asqad Muxtor Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanidan ijodiy ta’sirlanib, “Ildizlar” qissasida ochib bermoqchi bo‘lgan asar g‘oyasini ifodalashda mahorat bilan qalam tebratgan. Birgina roman sarlavhasini qissaga olib kirishi bilan kitobxon xayolida “Asrga tatigulik kun” romani voqealari jonlanadi.

– Yaxshilab dam olishingiz kerak edi, – dedi Marat, ko‘ngli biroz joyiga tushib.

– Nima o‘qiyapsiz?

U Muhsinaning qo‘ltiqlab kelgan kitobini olib ko‘rdi: Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun”.

– Yaxshi kitobmi?

Muhsina hali o‘qimagan edi, yelkasini qisdi[68].

Qissa avvalida kitobxon “Asrga tatigulik kun” romanini Muhsina o‘qiyotgan oddiy bir asar holida qabul qiladi. Biroq muallif Muhsinaning qo‘liga boshqa kitobni tutqazishi ham mumkin edi. Asqad Muxtor va Chingiz Aytmatov dunyoqarashida, tafakkur tarzida, badiiy-estetik dididа, insoniy sifatlari hamohangligi bois, Asqad Muxtor Chingiz Aytmatov ijodi va u ilgari surgan g‘oyani to‘ldiruvchi, yoshlarga ibrat bo‘luvchi badiiy adabiyot beradigan tarbiya ta’sirini kuchaytirish izidan borishni ma’qul ko‘radi.

[68] Асқад Мухтор. Илдизлар. www.ziyouz.com. – Б. 111

“Ildizlar” qissasida Mamatning ona vasiyatiga nisbatan bildirgan fikrlarini eslaylik:

– Qanaqa vasiyat? Qanaqa vasiyat? O‘zingiz o‘ylab ko‘rsangiz-chi, hozir Mirzacho‘lga endi kapa tikilgan paytlar emas axir. Odamlar kulmaydimi?

– Aytganlarini qilsangiz, ruhlari bezovta bo‘lmasmidi deyman-da… – qiz unga rahmi kelib, tovushini pasaytirdi, bosh egdi.

– Odam o‘ldi-ketdi. Yo chindan ham ruhga ishonasizmi?

– O‘zingizning ko‘nglingiz tinch bo‘lardi…

– Qanaqasiga tinch bo‘ladi: o‘likni shundan shu yoqqa olib borish yana uch kunlik tashvish-ku, bilasizmi shuni? Hali shundoq ham…[69]

Shaharda yashab o‘z tashvishlari bilan band bo‘lgan Mamat shaharda qolib ketgan ishlarini o‘ylashi, onaizor vafot etgandan keyin kechgan ichki kechinmalari bilan “Asrga tatigulik kun” romani qahramonlaridan biri Sobitjon hislari bir-biriga juda yaqin. Ikki asardagi uyg‘un bu holatlar kitobxonning Sobitjon va Mamatga bo‘lgan ishonchi va e’tiborining pasayishiga sabab bo‘ladi. Asar avvalida Mamat o‘zining izlanuvchanligi, mehnatsevarligi, o‘z oldiga maqsadlar qo‘yib, uni bajarishda mustahkam iroda egasi ekanligi bilan kitobxon qalbidan joy olgandek bo‘ladi. Xuddi kitobxon singari Mamatning suyuklisi Muhsina ham Mamatning ona vasiyatiga bo‘lgan munosabati-yu fikrlarini bilgach, Mamat bilan turmush qurish fikridan qaytadi.

Yoki qissa oxirida Muhsinaning iqroriga nazar solsak:

– Siz o‘sha-o‘shasiz, Marat aka, – deb anchadan keyin o‘ychan so‘z boshladi Muhsina. – Bilmadim, nima o‘zgardi… Bilasizmi, men ko‘p o‘yladim, hayotimizning qandaydir axloqiy sarchashmalari, ota-bobolarning ruhiy udumlari bor. Ularni oyoqosti qilgan odam samimiy bo‘lolmaydi. O‘sha kuni siz ko‘rgan kitobda bir jazo usuli tasvirlanadi. O‘sha jazodan keyin odam xotirasini tamom yo‘qotib, el-yurtini ham, erini ham, nasl-nasabini, hatto onasini ham unutar, tanimay qolar ekan. Manqurt der ekanlar shundaylarni… Manqurt bo‘lgim kelmaydi[70]. Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun”

[69] Yuqoridagi manba – B. 108

[70] Асқад Мухтор. Илдизлар. www.ziyouz.com. – B. 114

romanida ham, Asqad Muxtorning “Ildizlar” qissasida ham ota-bobolarning udumlari, millatga xos muqaddas qadriyatlar, asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan insoniy xotiralarning muqaddasligi, ularga nopisand qarash, qadrlamaslik insoniylikdan yiroqlashish bilan barobar ekanligi falsafiy teranlik bilan chuqur yoritilgan. Ikki asarda ham o‘zligini, ota-onasi-yu nasl-nasabini unutgan shaxs fojeasiga ishora qilinadi.

Qissa qahramoni Muhsina tilidan aytilgan bu gaplar zamirida yozuvchi Asqad Muxtorning jiddiy, donishmandona o‘ylari, mushohadalari va ota-bobolar an’anasini oyoqosti qilgan, o‘zligini unutgan insonga nisbatan munosabati yorqin aks etgan.

Tahliliy kuzatishlarimizdan ayon bo‘ladiki, ikki yirik adib nafaqat bir-ikki millatga taalluqli tashvishli muammoni, balki umuminsoniy muammolarni davrning ulkan bir dard-tashvishi sifatida aks ettirishida o‘zaro g‘oyaviy-badiiy hamohanglik va ijodiy mushtaraklik ko‘zga tashlanadi. Bu aslo taqlidgo‘ylik yoxud tasodifiy tashqi bir o‘xshashlik emas. Aksincha, bu ijodiy yaqinlik va aloqadorlik, eng avvalo, bu zabardast adiblarning yuksak badiiy-estetik tafakkuri va insoniyat kelajagi haqida o‘y-qarashlarining teranligi, umuminsoniy mohiyati va mushtarakligi bilan izohlanishi to‘g‘ri bo‘ladi. Bu ijodiy hamohanglik va adabiy aloqadorlik natijasi o‘laroq, bu borada A.Muxtor va Ch.Aytmatov asarlari o‘zaro bir-birini to‘ldirib, bir-birining g‘oyaviy mazmunini, fikrlarini mantiqiy davomiday hamohangligi bilan yanada boyitgan. Ya’ni A.Muxtor Ch.Aytmatov ijodiga hamohang tarzda o‘z asarida kelajak avlodga Sobitjon va Jo‘lomonlar bilan bir qatorda Marat timsolida xalq, el-yurt e’zozlagan udumlarni toptagan, o‘z manfaatlariga qorishib, o‘zligidan, yaqin jigarlaridan uzoqlashgan inson qismatini tasvirlagan.

Asqad Muxtor Ch.Aytmatov kabi bolalar adabiyoti uchun ham nodir namunalar qoldirgan ijodkorlardan biri. Uning ko‘plab qissalarida ham bosh qahramonlar sifatida bola obrazi tanlangan. Ikki ulug‘ adibga xos ijodiy mushtaraklik yana shundaki, ular bolalar dunyosini, ularning istak va xohishlarini, psixologiyasini yaxshi anglagan. Asqad Muxtorning “Mardlik cho‘qqisi”, “Chin yurakdan”, “Dunyo bolalari”, “Ildizlar”, “Jar yoqasida chaqmoq”,

“Kumush tola” kabi asarlari bolalarga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu asarlarda ham ijodiy ta’sir jarayonini kuzatishimiz mumkin. Adibning “Dunyo bolalari” to‘plamidagi “Pushkin bryusti” hikoyasida shunday fikr bor: “Kiroyi shunday joylarda yashasang”. Hikoyadagi bu jumla A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanidagi “Kiroyi kuyaving shundoq bo‘lsa” bobini yodga soladi. Xuddi shu to‘plamdan joy olgan “Buloq boshida – chanqoq…” hikoyasiga retrospektiv tarzda bolalar yozuvchisi Janni Rodari siymosi mahorat bilan olib kirilgan.

– Podarini bilasanmi, Petro?

– Bo‘lmasam-chi! – dedi Petro va sharillatib she’r o‘qib ketdi:

Prezident o‘rniga Prezident qilib,
Meni xalqlar saylab qo‘yishsa agar.
Har shaharda buyrug‘im turar osilib,
Eng qat’iy buyruq kabi yozilib dangal.

– Ko‘rdingizmi, – dedi Petro she’rni o‘qib bo‘lib. Chunki Rodaridek aqlli odamlar ham shu fikrda. Adib hikoyani shu tarzda[71] yakunlaydi.

Ushbu hikoyada adib o‘z fikr va g‘oyasini o‘quvchiga yetkazish uchun italyan bolalar adibi Janni Rodarining she’rini hikoyada keltirib, mo‘jazgina hikoya so‘nggini ham Janni Rodari bilan uzviy bog‘lagan holda yakun yasaydi. Bu ijodkorning Janni Rodari ijodini yaxshi bilishini, adib ijodi Asqad Muxtorga o‘z ta’sirini ko‘rsatganini va yozilajak hikoyasiga yordamchi manba bo‘lib xizmat qilganini anglatadi.

Adib: “Avvallari yashash uchun yozdim, endi yozish uchun yashamoqdaman”, – deb yozgan edi “Tundaliklar”ida. Asqad Muxtor ijod olamida jon kuydirgan qalam ahllaridan edi. Ijodiy jarayon, badiiy adabiyot, hayot haqida falsafiy mushohada yuritar ekan, turli mavzular yuzasidan bildirgan fikr qatralari kimgadir turtki bo‘lishi, ta’sir etishi, harakatlarini jadallashtirishini o‘ylaydi. Adib ta’kidlaganidek, ijodiy ta’sir jarayoni ma’naviy olamga, adabiyot olamiga yangi-yangi asarlar qo‘shishda ahamiyatlidir.

“Keyingi vaqtda – keksalik, xastalik sabab juda ham kam uyqu bo‘lib qoldim. Uyqu qochganda bosh keti yo‘q, uzuq-yuluq o‘y-

[71] Asqad Muxtor. Dunyo bolalari. www.ziyouz.com. – B. 40.

xayol qalashib kelaverarkan. Shunda tunchiroq ostida turgan daftarga ba’zi tasodifiy fikrlarni yozib qo‘yadigan bo‘ldim. Daftarimni “Tundaliklar” deb atadim. Bu “janr”ning “kundalik”dan farqi shuki, unda xronologik tartibdagi voqealar bo‘lmaydi. Bu gaplar, biri bog‘dan, biri tog‘dan bo‘lsa ham kimningdir fikri yo sa’y-harakatiga turtki bo‘lishi mumkin. Qolaversa, ular muallifning ruhiy holatidan darak beradi, zero biz hammamiz ma’naviy olamga hamisha qandaydir bir tarzda ulush qo‘shib yashaymiz”[72].

Asqad Muxtor “Tundaliklar”ida adabiy ta’sir masalasi, ikki muallifning bir-birini bilmay turib, ohangdosh asarlar yaratilishi haqida fikr bildirib, taqlidgo‘ylik, adabiy ta’sir masalalariga to‘xtaladi. Adabiy ta’sir masalasining nazariy ma’lumotlarida adabiyotshunos olimlar ham bu holat yuz berishi mumkin bo‘lgan hollardan ekanligini yozishgan. Adib ijodi juda serqirra bo‘lib, ijod jarayonida ijodiy ta’sir masalasini kuzatgan, qiyoslagan va xulosalagan. Qalami yanada o‘tkirlashgan vaqtda yozgan “Tundaliklar”ida adabiy ta’sir masalasi xususida o‘z mulohazalarini bildirgan:

“Biz XII–XIV asr Dashti Qipchoq (Oltin O‘rda) turkiy adabiyotini negadir yaxshi o‘rganmaymiz. Vaholangki, bu adabiyot (Qutb, Sayfi Saroyi, Hisom Kotib) sof turkiy til, xalqchillik jihatdangina emas, umuminsoniy mundarijasi bilan ham katta e’tiborga loyiq. Birgina “Jumjuma Sulton” dostonini oling, Hisom Kotib uni Farididdin Attorga (“Jumjumanoma”) taqlid qilib yozgan. Zamondoshi Dantening “Ilohiy komediyasi” bilan taqqoslasangiz, juda antiqa fikrlarga kelasiz. Masalan, dunyoni vertikal holda olib, ya’ni hamma zamonlarni bir vaqtda (xronotop), abadiyat uchrashtirib tasvirlash… Bu ikki muallif bir-birini bilmay turib, ma’nan juda ohangdosh asar yozganiga hayron bo‘lasiz”[73].

Asqad Muxtor ijodining rang-barang bo‘lishida, tarbiyaviy ta’siri yuqori bo‘lishida va badiiy-estetik zavq berishida ijodiy ta’sir masalasi muhim ahamiyatga ega. Asqad Muxtor jahon adabiyoti, o‘zbek va rus adabiyotining bilimdoni bo‘lib, yetuk qalam ahllaridan ijodiy ta’sirlangan hamda o‘zi ham zamondosh

[72] Асқад Мухтор. Тундаликлар. Kh-davron.uz
[73] Асқад Мухтор. Тундаликлар. Kh-davron.uz

va keyingi adiblar ijodiga samarali ijodiy ta’sir ko‘rsatgan. Tog‘ay Muroddek adiblarga ustozlik qilgan, ijod sirlarini anglashida ko‘makdosh bo‘lgan. Adabiy ta’sir badiiy ijod jarayonida, shuningdek, Asqad Muxtor ijodida ham alohida mavqega ega bo‘lgan masalalardan biridir.

2.2-§. Adib ijodiy takomilida rus va jahon adabiyoti ta’siri tadqiqi

Abdulla Qahhorning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni beqiyosdir. U xalqi va adabiyot ahli uchun ajoyib meros qoldirdi. Undan meros bo‘lib qolgan adabiy an’analarning umri boqiydir. Bu adabiy an’analar ham asrlar osha avloddan avlodga, xalqlardan xalqlarga o‘tib, san’atkorlar ijodida mujassamlashib, badiiy adabiyot rivojiga hissa qo‘shishi hamda jahon adabiyoti xazinasini yanada boyitishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiy ta’sir adabiy an’analarning bir ko‘rinishi bo‘lib, har qaysi ijodkorning asarlari yaratilishida o‘ziga xos o‘ringa ega. Abdulla Qahhor asarlarida adabiy ta’sir masalasi haqida ba’zi dissertatsiya, monografiya va maqolalarda qimmatli tahlillar olib borilgan, ma’lumotlar qayd etilgan, biroq adabiy ta’sir masalasi ijod qonuniyatlari nuqtayi nazaridan adib asarlarida maxsus tadqiq etilmagan. Abdulla Qahhor ijodida adabiy ta’sir muammolarini tadqiq etish va adibning adabiy ta’sir yuzasidan bildirgan adabiy-tanqidiy fikrlarini tahlil qilish adabiyotshunosligimizdagi dolzarb mavzulardan biri sanaladi.

Ma’lumki, jahon va o‘zbek adabiyoti xazinasida shunday durdona asarlar borki, bu asarlarning yaratilishida adabiy ta’sir muhim o‘ringa ega. Yozuvchi ijod laboratoriyasida shunday holatlar bo‘ladiki, kitob mutolaasi jarayonida undagi voqealardan, ilgari surilgan g‘oyalardan, obrazlardan, qahramon nutqi yoki badiiy tarjima jarayonida ijodkorga yangi bir asar g‘oyasi kelishi, adabiy ta’sirga berilishi natijasida yangi bir asar rejasi paydo bo‘lishi mumkin. Xususan, “Anna Karenina” romanining ilk rejasi L.N.Tolstoyning xayoliga Pushkinning prozasini o‘qib o‘tirgan paytida keladi. F.M.Dostoyevskiyda Raskolnikov obrazining asosiy konsepsiyasi Balzak asarlari ta’sirida tug‘iladi.

Xuddi shunday holatlarni o‘zbek yozuvchilari ijodida ham ko‘rish mumkin. Oybek “Yevgeniy Onegin” (A.S.Pushkin) tarjimasi bilan shug‘ullanar ekan, “Qutlug‘ qon”ni yozish fikriga keladi. A.Qahhor A.P.Chexov unga “narsa va hodisalarga qarab, ularni qanday ko‘rishni o‘rgatgani”ni va “Millatchilar”, “Bemor”, “O‘tmishdan ertaklar” kabi asarlarining Chexov ta’sirida yuzaga kelganligini ta’kidlaydi. A.Qahhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasini Qurbon Beregin degan tanishi aytib bergan voqealar ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lsa, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanining yuzaga kelishida Bobur haqidagi tarixiy manbalar, hujjatlar bilan bir qatorda “Boburnoma” asarining ham salmoqli ta’siri borligini ko‘ramiz[74].

Abdulla Qahhor rus hikoyanavisi A.P.Chexov asarlaridan ta’sirlangani ma’lum. Bu haqda adib bir qancha maqolalarida so‘z yuritgan. XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri, munaqqid Oybek “Chexov va o‘zbek adabiyoti” sarlavhali maqolasida o‘zbek adiblari, chunonchi, Abdulla Qahhor ijodiga Chexov ta’siri xususida so‘z yuritadi. Olim Abdulla Qahhor ijodida Chexovning ta’siri nimada ifodalanadi, degan savolga shunday javob beradi: “Abdulla Qahhor ijodiyotida biz, albatta, g‘oyaviy, ya’ni mazmun jihatidan bo‘lgan ta’sirni ko‘rmaymiz. Chexovning anchagina asarlarini qamrab olgan kayfiyat – xafagazaklik, noilojlik, umidsizlik kabi holatlar Abdulla Qahhor ijodiyoti uchun begonadir. Bu narsa o‘z-o‘zidan ma’lum. Ulug‘ rus yozuvchisi o‘z zamonasining dimiqtiruvchi davrining ifodachisidir. Chexov o‘zining kichik, mo‘jaz hikoyalarida uvadasi va rasvosi chiqqan, xunuk va razil muhitni, g‘am-g‘ussali voqelikni ko‘rsatadi. U vaqtlarda xalq hayoti, M.Gorkiy ta’biri bilan aytganda, «mudroq va chalajon» edi. Bularning hammasi allaqachonlar yo‘qolib, rivoyat bobidan joy olgan. Bizning esa endi o‘z novellistlarimiz bor. Ular Chexovdan o‘rgandilar va o‘rganmoqdalar”[75].

Munaqqid Oybek ta’kidlaganidek, Abdulla Qahhor asarlarida Chexov asarlarining mazmuniy ta’siri yo‘q. Mohir adib o‘z salohiyati va talanti ila mohirlik bilan ustozidan uslubiy sirlarni

[74] Хотам Умуров. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 73.
[75] Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 189.

oʻzlashtirgan. Chexov hikoyalari taʼsiriga butunlay berilib, Chexov hikoyalarining nusxasini yaratib qoʻymagan. Sababi Abdulla Qahhor badiiy ijod sirlarini puxta egallagan, qolaversa, yuksak talant va iqtidorga ega ediki, bu xislatlar uning Abdulla Qahhor darajasiga yetishida yetakchi omillardan biri boʻlgan desak, mubolagʻa qilmagan boʻlamiz.

Badiiylikning eng muhim belgisi oʻquvchini hayajonga sola bilish, uning qalbida chuqur iz qoldirishdir. Ana shu xususiyatga ega asargina haqiqiy badiiy asardir. Ch.Aytmatovning soʻzlari bilan aytganda, "…xuddi yozuvchi sanʼatining kishilarga emotsional-maʼnaviy taʼsir kuchi oʻsha yozuvchining badiiy talant oʻlchovidir"[76]. Abdulla Qahhor, shubhasiz, yuksak iqtidor egasi edi. Adib ustozlari asarlaridan estetik zavq oldi, badiiylik mezonlaridan biri boʻlgan adabiy taʼsir masalasini tahlil qilib, shogirdlari uchun oʻz maslahatlarini qoldirdi va maʼnaviy taʼsir kuchiga ega boʻlgan badiiy meros qoldirdi.

"Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida" kitobida adib haqida shunday deyiladi: "U adabiyotning internatsional xarakterini, oʻz xalqining va boshqa qardosh xalqlarning milliy madaniyatlariga chuqur hurmat ruhi bilan sugʻorilgan asarlarni yuqori baholardi. Milliy adabiyotlar qardosh xalqlar madaniyatidan ham oziqlanadi, derdi u. Oʻzbek va rus anʼanalarining asosida kamol topgan ijodi oʻsha soʻzlarining yorqin misolidir"[77].

Gʻarb va Sharq adabiyoti bilimdoni Abdulla Qahhorning yuqoridagi fikrlaridan koʻrinib turibdiki, adib adabiyotshunoslik nazariyasini, badiiy ijod qonuniyatini chuqur bilgan. Jahon adabiyoti namunalarini oʻrgangan va oʻzbek adabiyotida adabiy taʼsir asosida ham betakror asarlar yaratgan. Shu bilan birgalikda, yosh yozuvchilar uchun oʻzining qimmatli maslahatlarini ham qayd etgan. Bu qaydlar adabiy taʼsir masalasi bilan bogʻliq boʻlib, rus adabiyoti namunalaridan toʻgʻridan-toʻgʻri, bevosita andoza olish xato ekanligini, adabiy taʼsir natijasidan mahorat bilan foydalanish darkorligini, yozuvchi asar yaratar ekan, avvalo, koʻz

[76] Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б. 151.

[77] Кибриё Қаҳҳорова ва бошқалар. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1987. – Б. 21

oldida oʻz xalqi turmushiga mos boʻlgan voqea-hodisalar tasvirlanishi, adabiy ta’sir qolipiga tushib, unga beixtiyor ergashishdan ehtiyotkorlik zarurligi haqida toʻxtalib shunday deydi: “Ruschadan mexanistik ravishda oʻrnak olib boʻlmaydi. Biz oʻz turmushimizga muvofiq keladigan yangiliklar vujudga keltirmasak boʻlmaydi[78]”. Abdulla Qahhorning fikrlarining uzviy davomi sifatida munaqqid Oybek ham Chexov asarlariga yuqori baho bergan holda uning asarlaridan ta’sirlanish mexanik ravishda boʻlmasligi kerakligini ta’kidlaydi: “…Chexovning koʻp badiiy priyomlari, qaynab chiqqan chashma kabi bizning adabiy dala-maydonlarimizni sugʻoradi. Lekin yozuvchi bu mahorat sirlarini mexanik ravishda oʻzlashtirishi mumkin emas”[79].

Oʻzbek adabiyotining yirik ikki vakili Abdulla Qahhor hamda Oybekning bu fikrlarining tub zamirida umumiy tarzda bir asardan ta’sirlanish natijasida yangi asar yaratilishi mumkinligi, ammo adabiy ta’sirga berilib oʻqilgan asarga juda yaqin boʻlgan asarni ijodkor yaratib qoʻyishdan ehtiyot boʻlishi, his etilgan estetik zavqdan oʻziga xos yangi asar yaratilishi lozimligi haqida soʻz ketmoqda. Demak, har bir san’atkor mutolaa vaqtida, ijod jarayonida adabiy ta’sirga berilishi mumkin, ammo mahoratli san’atkorgina ta’sirlanish natijasida yangi asarini yashovchan asar darajasida yarata oladi. Shuningdek, badiiy asardan ta’sirlanish uchun ijodkorda ziyraklik, kuzatuvchanlik, sermulohazalilik kabi fazilatlar mujassam boʻlsa, asarni muallif darajasida tushunishi, kutilmaganda yangi gʻoyalar tugʻilishi, qator obrazlarni tasavvur qilishi mumkin.

Qahhorshunos rus olimasi Irina Borolina Abdulla Qahhor haqidagi chizgilarida adibdagi ta’sirchanlik va kuzatuvchanlik, ziyraklik xislatlarini iliq xotiralar bilan eslaydi: “U odamlar bilan befarq munosabatda boʻla olmagani uchun ham suhbatdoshi koʻngliga tezgina yoʻl topardi, ayni chogʻda, koʻpam hissiyotga berilavermasdi. Oʻzi kamroq gapirib, koʻproq hamsuhbatining soʻzlarini eshitishni afzal koʻrardi; kishiga diqqat bilan razm solib oʻtirardi; goʻyo qoʻl harakatlarini, imo-ishoralarini, ifoda yoʻsinini

[78] Абдулла Қаҳҳор. Олти томлик асарлари. Олтинчи том. – Тошкент, 1971. – Б. 226.
[79] Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1979 – Б. 195.

eslab qolishga urinayotgandek tuyulardi. Mabodo, hikoya qilinayotgan voqea uni to‘lqinlantirib yuborsa, u juda qiziqib tinglardi; faqat roviyga qo‘shilishib qayg‘uribgina qolmay, xuddi birovning qismatini o‘z boshidan kechirayotgandek bo‘lardi. Abdulla Qahhorga xos bunday ziyraklik, ta’sirchanlik ijod jarayonida juda qo‘l kelardi; u o‘z taassurotlarini obrazlarning nozik ichki kechinmalarida yorqin aks ettirardi – inson tabiatini kashf etardi[80]”.

Badiiylik mezonlaridan biri – ta’sirchanlikdir. Adabiyotshunos olim Hotam Umurov “Badiiy ijod asoslari” kitobida adabiy ta’sir badiiy ijod asoslaridan biri ekanligini quyidagicha izohlaydi: “Yozuvchi ma’lum g‘oya asosida to‘plangan alohida faktlarni o‘zining shaxsiy tajribasi bilan boyitib, qalbidan o‘tkazib, ko‘pchilikka xos qilib umumlashtiradi. Ya’ni aniq g‘oyaga asoslanib, yozuvchi hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to‘qiydi, umumlashtiradi va jonli, tabiiy va betakror go‘zal narsani yaratadi. Yaratgan asari (lavhasi) o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi, kitobxon o‘y-xayollarini o‘ziga tamoman band etadi[81]”.

Mahoratni egallash uzluksiz davom etadigan, chegarasiz jarayondir. Yozuvchi o‘z ijodining ma’lum davrida usta san’atkor darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Agar u shu bilan cheklansa, badiiy mahoratini o‘stirmasa, hayotdan va san’atdan o‘rganishda davom etmasa, u orqaga ketaveradi, o‘quvchilari soni kamayaveradi. Demak, o‘rganish, kashf etish to‘xtagan joyda talant kuchi, ta’siri susaya boshlaydi. Talant yangilik bermagach, chaynalgan “kashf”larni – yasama, sun’iy gullarni taqdim qila boshlaydi. S.Ahmad yozadi: “…ruhiyatimda g‘alati kayfiyat paydo bo‘lib qoladi. Muzika, qo‘shiq eshitishga mayl paydo bo‘ladi. Arzimagan kichik ko‘ngilsizlik ham menga yomon ta’sir qiladi. Arzimagan gapga ham kulgim keladi. Nazarimda, umrim bekorga ketayotganga o‘xshaydi. Nimanidir yozishim kerak, degan ichki intilish paydo bo‘ladi. Ana shundan keyin kayfiyatimga qarab mavzu kela

[80] Кибриё Қаҳҳорова ва бошқалар. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1987. – Б. 20

[81] Умуров Х. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 33.

boshlaydi. Agar g‘amgin o‘ylar chulg‘ab olgan bo‘lsa – taqdiri og‘ir kishilar hayoti, kayfim chog‘ bo‘lsa, baxtli taqdirlar ko‘z oldimdan o‘taveradi”[82].

Tashqi muhit, kishi kayfiyati, xotiralar, oniy lahzada insondagi hislar qurshovi ta’siri ham ijodkorni ijod jarayoni tomon boshlaydi. Asar yaratilish jarayonida ijodkor ham muallif, ham kitobxon, ham tanqidchi demakdir. Biror omildan ta’sirlanish natijasida asar yaratilar ekan, asarni yozish davomida yoki asar bitgach yaratuvchi o‘z asarini baholashi ham zarur sanaladi. Adabiy ta’sirga berilib, asar u ta’sirlangan asarga o‘xshab qolmadimi, qaysi o‘rinlari bilan uni ta’sirlantirgan asar bilan mushtarak va qaysi jihatlari bilan farqli, buni tekshirib turish san’atkor uchun foydalidir.

Ko‘rinib turibdiki, asar yaratish jarayonida yozuvchining ongi go‘yo ikkiga bo‘linadi: u (muallif) yaratuvchi, u (o‘quvchi) baholovchidir. Ana shu yaratuvchanlik va baholovchilik holatlarining mutanosibligi asarning ta’sir kuchini ta’minlaydi[83].

Adabiy ta’sir natijasida ko‘p hollarda san’atkorlarda yangi asar yozish fikri tug‘ilar ekan, asarni yozish jarayonida, albatta, ijodkordan yuksak mahorat, talant talab etiladi. Zero, ta’sirlanish oqibatida yoziladigan asar o‘z ta’sirini o‘tkazgan asardan farqli bo‘lishi, taqlidgo‘ylik o‘rinlari uchramasligi, mualliflar aytmoqchi bo‘lgan xulosalar juda yaqin kelmasligiga ahamiyat qaratmoq zarur. Badiiy ijod qonuniyatlaridan xabardor bo‘lgan holda o‘z novatorligini namoyon qilgan yoxud asarlari o‘ziga xos jihatlari bilan farqli bo‘lgan san’atkorlar uchun adabiy ta’sir asarlarining yaratilishida muhim ahamiyatga ega. Abdulla Qahhor jahon va rus adabiyotining durdona asarlaridan ta’sirlanib, ilhomlanib asar yaratar ekan, badiiy ta’sir ostida qolib ketmadi, mexanik andoza olish yo‘lida yurmadi, balki badiiy adabiyotning estetik zavqi ta’sirida asar yaratar ekan, o‘zbek adabiyotida o‘z uslubi, o‘z so‘zi va o‘z o‘rniga ega bo‘ldi, deb ayta olamiz. Shu o‘rinda Abdulla Qahhorga xos bo‘lgan ziyraklik, kuzatuvchanlik, o‘zgalar dardini o‘z dardidek qabul qilish kabi fazilatlar asar mohiyatini chuqur

[82] Умуров Х. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 51.
[83] Умуров Х. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 94.

anglashida va adabiy ta’sir bergan zavqdan to‘g‘ri foydalanib yangi asarlar yaratishida muhim o‘rin tutgan.

Abdulla Qahhorning suhbat va o‘gitlaridan bahramand bo‘lgan adabiyotshunos O.Abdullayev ham adibning “O‘tmishdan ertaklar”ini o‘rganishni unda rus adiblari L.Tolstoy, M.Gorkiy, Oybek va S.Ayniylarning avtobiografik asarlari ta’sirini izlashdan boshlaganini, ammo bu asar rus avtobiografik qissalariga sira o‘xshamagan va original bir asar ekanligini ta’kidlaydi[84]. “O‘tmishdan ertaklar”da voqealar yosh bola tilidan hikoya qilinsa-da, yuqoridagi yozuvchilarning asarlariga sira o‘xshamaydi. Albatta, har bir kitobxon muayyan asarni o‘z didi-saviyasi darajasida o‘qib, ta’sirlanishi va u yoki bu xil xulosa chiqarishi tabiiy. Lekin mazkur asarlar avtobiografik qissalar ekan, ularga xos o‘xshash, mushtarak jihatlar bo‘lishi ham badiiy ijodning obyektiv bir qonunidir. Masalan, Gorkiy qissasidagi yosh Alyoshaga qadrdon bo‘lib ketgan Siganok bilan “O‘tmishdan ertaklar”dagi Abdulla va Kulalaning aka-ukaday inoqligi o‘xshash. Alyosha Siganok bilan xayrlashayotganda, Abdulla ham Kulala bilan xayrlashayotganda ko‘zidan yosh keladi. Lekin bu lavha Gorkiyning Abdulla Qahhorga ijodiy ta’siri sifatida talqin etilmasligi lozim. Bunday o‘xshashlik, eng avvalo, hayot lavhalarini jonli va haqqoniy tasvirlashning namunalari sifatida baholanishi joiz. Ya’ni ikki qissadagi Siganok va Kulala obrazlari real hayotdan olingan, milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan va adiblarning yuksak badiiy mahorati bilan yaratilgan hayotiy qahramonlar. Ular A.Qahhor iborasi bilan aytganda, zamona daraxtida yetishgan bir olmaning ikki pallasiday o‘quvchida chuqur taassurot qoldiradi. Bu fikrning dalili sifatida Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi bilan Chexovning “Uyqu istagi” hikoyasini qiyosiy o‘rganish ma’qul deb o‘ylaymiz.

Ikki hikoyadagi voqea ham, obrazlar ham xalq hayotidan olingan va ulardagi mayda detal-tafsilotlar ham realligi bilan o‘quvchini to‘la ishontiradi. Qolaversa, Qahhor hikoyasidagi voqea Chexovning “Uyqu istagi” hikoyasini o‘qimasdan avval ro‘y bergani ham ayrim adib va tanqidchilarning “Qahhorning hamma

[84] Abdullayev O. Unutilmas saboqlar. // Adabiyotimiz faxri. – Toshkent: 2007. – B. 268.

hikoyalari Chexov ta’sirida yozilgan”, degan tusmol-taxminiy fikrlari butunlay asossiz ekanligini koʻrsatadi.

Rus hikoyalarini chuqur oʻrgangan taniqli adib Sergey Antonov Chexovning “Uyqu istagi”da yosh qizcha Varkaning choʻrilikdagi hayoti ayanchli ekanligi yozuvchi tomonidan juda hayotiy va tabiiy tasvirlanganini ta’kidlaydi. Varka xasta otasi vafotini eshitib, oʻrmonga oʻtinga borib, yigʻlab koʻnglini boʻshatishga ham xoʻjayini izn bermay, uni urishini hikoya ichidagi hikoya deb, Chexov badiiy mahoratiga tan beradi[85]. («Когда мать сообщает о смерти отца, Варка идёт в лес и плачет. Одна эта фраза сама по себе целый рассказ. Здесь всё детство: нужда, страх, одиночество…»)

Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasidagi bir holat: “Bir kechasi bemor juda azob tortdi. Sotiboldi qoʻshnisi bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning toʻzigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yogʻini siladi, soʻngra… oʻtirib yigʻladi”. Oʻtmish hayotining haqqoniy tasviri boʻlgan bu badiiy detalning hikoya gʻoyaviy mazmunini ifodalashda muhim ahamiyatini O.Sharafiddinov va P.Qodirovlar ham oʻz vaqtida qayd etishgan. Biz bunday hayotiy detallarni A.Qahhor rus adiblari asarlaridan emas, balki, eng avvalo, xalq hayotidan va milliy ruhiyatidan olib tasvirlaganligini ta’kidlamoqchimiz. Ayni vaqtda, A.Qahhor bunday hayotiy voqea-hodisalarni bolaligidanoq koʻp koʻrgan va hamdardlik tuygʻularini oʻzi ham boshidan kechirganini “Oʻtmishdan ertaklar” qissasida ham ta’sirchan lavhalarda aks ettirganini yana bir bor eslatish mumkin. Shunday ekan, A.Qahhor hikoyalarida, asosan, Gogol va Chexov an’analarini davom ettirgan, degan umumiy mulohazalarni takrorlayverish ham kitobxonlarni chalgʻitishi mumkin.

Abdulla Qahhor rus adiblarining avtobiografik asarlarini oʻqib-oʻrgangani, ammo ularga ergashmaganini ta’kidlagani ham aqlga ishorat emasmi? Yana muhimi, Abdulla Qahhorning “Qissadagi har bir bob alohida hikoya… Asarga oʻtmish mavzusidagi hikoyalarimning mantiqiy davomi sifatida qarang. Shunda u qanday asar ekanini bilib olasiz”, – degan soʻzlari “Oʻtmishdan ertaklar” va oʻtmish haqidagi hikoyalarining qanchalik hayotiy va

[85] Антонов С. Я читаю рассказ. – Москва: Молодая гвардия, 1973. – С. 14.

realistik asarlar ekanligini anglab olishimizda ham o‘ziga xos ochqich bo‘ladi. A.Qahhor hikoyachilikda bir umr davomida erishgan yuksak mahorati bu asarda ajoyib tarzda sintezlashgan va chinakam realist san’atkorligi, novatorligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunos Y.Solijonov aytganidek, Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor asarlari badiiyligini Sharq adabiyoti ildizlaridan izlasak to‘g‘ri bo‘ladi[86].

Afsuski, 60-yillarda keng tarqalgan bunday sun’iy bo‘rttirishlar 80-yillar tanqid-adabiyotshunosligida ham ustuvor bir tamoyil bo‘lib keldi. Bunday e’tiroz bildirishimizning jiddiy sababi shundaki, mazkur tanqidiy biografik ocherkda ham, M.Begjonova, Tohir Malik, Sh.Xolmirzayev, hatto M.Qo‘shjonov va O.Sharafiddinovdek ustoz adabiyotshunoslarning ayrim asarlarida ham rus va o‘zbek adabiyoti ta’siri masalalari ba’zan biryoqlama, ya’ni bo‘rttirilgan holatda talqin etilgan. Hatto Cho‘lpon Moskvadagi “she’riyat kechalarida Mayakovskiy bilan suhbatlashgan”, degan faraz-taxminlarda ham sun’iylik, ya’ni Cho‘lponni sovet mafkurasiga yaqinlashtirishga intilish seziladi. Aslida, o‘zbek va Sharq mumtoz she’riyatiga xos tag ma’no, fasohat va nazokat Mayakovskiy ijodiga mutlaqo begona. U asosan Lenin va Oktabr revolyutsiyasi, proletariat, sinfiy kurashni ulug‘lovchi siyosiy-publitsistik asarlari bilan dovruq qozongan va yosh umrida fojiali o‘lim topgan murakkab taqdirli bir minbar shoiri bo‘lgan.

Shayxzoda esa tabiatan mumtoz o‘zbek va Sharq adabiyoti ruhida shakllangan, “ko‘p xalqlarning madaniyatidan bahramand, tom ma’noda ziyoli shoir edi”[87]. Shunday ekan, Shayxzoda ijodini butunlay Mayakovskiy ta’siri bilan bog‘lab o‘rganish ko‘p jihatdan maqsadga muvofiq emas. Ya’ni A.Qodiriy va A.Qahhorning yorqin talanti, o‘ziga xos badiiy-estetik tafakkuri va yuksak mahorati natijasida yaratilgan yetuk asarlarni Chexov, Gogol yo J.Zaydonlar ta’siri bilan izohlash asossiz bo‘lganiday, Shayxzoda va boshqa adiblar asarlarini faqat Mayakovskiy ta’siri bilan bog‘lash ham noo‘rin bo‘ladi. Badiiy asarlarni, avvalo, muallif shaxsi va iste’dodi hamda u boshidan kechirgan dard-quvonch bilan, insoniy va

[86] Solijonov Y. So‘z sehri va mehri. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 92.
[87] G‘afurov I. Dunyoni tinglaganda. // Mangu latofat. – Toshkent, 2008. – B. 223.

hayotiy omillar, ishonchli manbalar bilan bog‘lab o‘rganish to‘g‘ri va samarali bo‘lishi isbotlangan.

Adabiyotshunoslikdagi jiddiy kamchiliklardan yana biri ayrim mualliflarning ijodiy ta’sir bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa va faktlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish mahorati yetishmasligida, o‘rganilayotgan muammo yuzasidan fikrlash darajasi sayozligida ko‘rinadi. Rus va qardosh xalqlar adabiyoti namoyandalari ijodiga bag‘ishlangan yirik tadqiqot va maqolalarda tahlil va xulosalar o‘rniga ko‘plab jiddiy xato va chalkashliklarga duch kelamiz. Masalan, taniqli adabiyotshunos H.Abdusamatovning “Hayot, adabiyot, teatr” nomli kitobida rus klassik adabiyoti va Chexov to‘g‘risida shunday asossiz fikr bildiriladi: “Yozuvchi qamoqdagi bitta palata misolida mamlakatga xos bo‘lgan mudhish manzaralarni birin-ketin ko‘z oldimizdan o‘tkazadi. Asardagi («Oltinchi palata» hikoyasi) odamlarning qamoqda hayvonlarday saqlanishi, yorug‘ dunyodan mahrum qilinishi, norozilik sadolari yangrashi, ularning omonsiz kaltaklanishi kitobxonlarni qattiq hayajonga soladi”[88]. Shu tariqa Chexov yorqin tasvirlagan kasalxona va undagi oltinchi palata negadir “qamoqdagi palata” deb o‘zgartirilib, hikoyadagi ayrim voqealar sanab o‘tiladi, asarning g‘oyaviy mazmuni, uning badiiy-estetik ahamiyati yetarli darajada ochilmay qoladi.

Yoki Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor ijodini chuqur o‘rgangan va ular haqida salmoqli tadqiqotlar yaratib, tanqid va adabiyotshunosligimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan akademik M.Qo‘shjonovning “Sarob” romaniga bag‘ishlangan “Adashganlar fojeasi” nomli yirik maqolasida ham shunday xatolikka guvoh bo‘lamiz. Olim roman qahramonlari haqida batafsil to‘xtalib, Saidiyning fojeali qismati bilan M.Sholoxovning “Tinch Don” romanidagi bosh qahramon Grigoriyning taqdirini qiyosiy o‘rganishda jiddiy bir chalkashlikka yo‘l qo‘yilgan. Ya’ni Saidiyning o‘limi bilan Grigoriyning o‘limi bir-biriga ko‘p jihatdan o‘xshash va u o‘quvchida bir xil taassurot qoldiradi, degan fikrni bildirib, shunday yozadi: “Saidiy o‘limidan achinamiz, hayotidan nafratlanamiz. Saidiy o‘limi bu jihatlari bilan «Tinch Don»dagi

[88] Абдусаматов Ҳ. Ҳаёт. Адабиёт. Театр. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1979. – Б. 235.

Grigoriy Melexovning oʻlimini eslatadi”.[89] Bizningcha, daf’atan qoʻllangan bu parallelizm koʻp jihatdan oʻzini oqlamagan. Avvalo, yetarli tahlil-dalillarsiz daf’atan bunday xulosa chiqarish oʻquvchini hayron qoldiradi. Chunki, bizningcha, Saidiy bilan Grigoriyning hayot yoʻli ham, dunyoqarashi-yu insoniy xislatlari va taqdirlari ham bir-birinikiga deyarli oʻxshamaydi. Ikkinchidan esa, M.Sholoxovning koʻp tillarga tarjima qilinib, olamshumul shuhrat topgan bu epopeyaning oxirgi – toʻrtinchi kitobida Grigoriyning oʻlimi toʻgʻrisida emas, balki uning hayoti va taqdiri haqida ta’sirchan lavhalar tasvirlanadi. “Tinch Don” romanining soʻnggi qismida Grigoriy oʻlimi haqida hech qanday xabar yo lavha yoʻq. Aksincha, roman xotimasida suyuklisi Aksinyadan judo boʻlgan Grigoriy shuncha yil sargardonlik va ma’nisiz janglardan keyin, nihoyat, oʻz qishlogʻi va uyiga qaytishi, bundan buyon muzdek sovuq olamda yolgʻiz oʻgʻli Mishatka uchun yashashga majburligi haqida yozuvchining haqqoniy va ta’sirchan fikrlari bayon etilgan: “Grigoriy miltiq bilan naganini suvga tashladi, soʻngra oʻqlarni ham tashladi-da, qoʻlini shinel etagiga yaxshilab artdi. Grigoriy oʻrmonda yurganida, kechalari bolalari esiga tushganda xayolan shivirlab gʻoyibona erkalatib aytgan shirin soʻzlari hozir butunlay xayolidan koʻtarilgandi. U choʻkka tushib oʻgʻlining qizarib ketgan muzday qoʻllaridan oʻpar, oʻpkasi toʻlib yolgʻiz bir soʻznigina takrorlar: – Oʻgʻlim… oʻgʻlim, – derdi, xolos. Shunday qilib, uyqusiz tunlarda Grigoriyning xayolini band etgan orzu-umidlardan bittasigina roʻyobga chiqdi. U tugʻilib oʻsgan oʻz uyi darvozasi oldida, oʻz farzandi bilan diydor koʻrishib, uni qoʻlida koʻtarib turardi. Unga shundan boʻlak ovunchoq qolmagandi, yolgʻiz shu bolani deb yer yuzida, muzday quyosh nuriga choʻmgan bepoyon dunyoda yurishga majbur edi”.[90] Albatta, iste’dod xarakteri bir-biridan farq qiluvchi adiblarning mashhur asarlari qahramonlari taqdirini jahon adabiyoti kontekstida qiyosiy oʻrganish tahsinga loyiq, ammo bu qiyoslashda e’tiborsizlik oqibatida chalkashlikka yoʻl qoʻyilgan.

[89] Қўшжонов М. Адашганлар фожеаси. Маҳорат сирлари. – Тошкент, 1968. – Б. 119.
[90] Шолохов М. Асарлар. 5-том. – Тошкент: Давлат бадиий адабий нашриёти, 1963. – Б. 557.

Yoxud adabiyotshunos olim M.Rasuliy qalamiga mansub “Lev Tolstoy ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri” nomli maqola sarlavhasi salmoqli, hajmi o‘n betdan ortiq, ammo uning yarmi Tolstoy asarlari qachon, kim tomonidan va qanday tarjima qilinganini sharhlashga sarflangan. Har uchala majmuada ham ba’zi fakt va misollar, ma’lum fikr-xulosalar o‘rinli-o‘rinsiz ravishda bir necha marta takrorlangan. Masalan, S.Ayniy va H.Olimjonlarning Gorkiy asarlarini ilk bora o‘qib, qanday ta’sirlanganligi haqidagi o‘quvchilarga maktab darsliklari orqali ham tanish bo‘lgan umumiy fikr va ma’lumotlar qayta-qayta ko‘chirilgan (68, 78, 101, 177, 186, 200-betlar). Yoki Tolstoyning “Odamlar nima bilan tirik” hikoyasi o‘zbek tiliga Oktabr inqilobidan ancha oldin tarjima qilingani haqidagi oddiy axborot ham to‘plamda ko‘p marta qaytariladi.

Rus va qardosh xalqlar adabiyoti namoyandalari ijodiga bag‘ishlangan yirik tadqiqot va maqolalarda tahlil va xulosalar o‘rniga ayrim jiddiy xato va chalkashliklarga ham duch kelamiz. Masalan, quyidagi fikrga e’tibor qilaylik: “Rus klassik adabiyoti Chexovgacha Pushkin, Lermontov kabi ulug‘ lirik shoirlarga ega edi”. Tabiiy savol tug‘iladi: Chexovdan oldin yashab, ijod etgan Gogol va Gersen, Goncharov va Turgenev, Saltikov-Shchedrin va Dostoyevskiylar rus adabiyoti vakillari emasmi? Pushkin va Lermontov faqat lirik shoirlarmi? Ular prozaik asarlar yaratmaganmi? U holda Chexov o‘spirin Lermontovning birgina “Taman” qissasini butun bir yozuvchilik umriga arziydigan asar, deya baholaganini qanday izohlash kerak?

Shu o‘rinda adabiy ta’sir xususidagi yana boshqa bahsli fikr va qarashlarga ham to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Masalan, O‘zbekiston FA Til va adabiyot instituti va taniqli adabiyotshunoslar tomonidan nashr etilgan va 90-yillargacha asosiy darslik sifatida foydalanilib kelingan “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi ocherklari” darsligida Mayakovskiyning o‘zbek shoirlariga ta’siri xususida bahsli mulohazalar bildirilgan, deb o‘ylaymiz[91]. Chunonchi, Maqsud Shayxzodaga bag‘ishlangan biografik ocherkda uning deyarli barcha she’rlari bevosita hayot voqeliklari va shoir tafakkuri bilan

[91] Ўзбек совет адабиёти тарихи очерки. 2-том. Ўзб.ФА нашри, 1962. – Б. 720.

emas, balki, asosan, Mayakovskiy ta’siri bilan bog‘lab o‘rganilishida shunday biryoqlamalik va sun’iy bo‘rttirish alomatini ko‘ramiz. “Davrimizning buyuk shoiri V.Mayakovskiy faqat Shayxzodaninggina emas, boshqa ko‘pgina o‘zbek shoirlarining ham ijodiy o‘sishida katta rol o‘ynagan. V.Mayakovskiy maktabini o‘tmagan, undan o‘rganmagan birorta ham o‘zbek shoiri yo‘q desak, xato qilmagan bo‘lamiz”[92]. Albatta, partiya daholarini madh etish ommaviy tus olgan 30–50-yillarda bunday ko‘tar-ko‘tar balandparvoz shiorbozliklar avj olgan va adabiyotimizdagi ma’lum bir ijodiy izlanish va poetik shakllardagi o‘zgarishlar ham, asosan, rus sovet adabiyoti, ayniqsa, Gorkiy va Mayakovskiyning ijodiy ta’siri samarasi deb biryoqlama sun’iy bo‘rttirishlar odatga aylanib ketgan. Darslikda Mayakovskiyning hamma o‘zbek shoirlariga mubolag‘aviy darajada ustozligi va ijodiy ta’siri shu qadar ko‘p (40 martalab) qayd etiladiki, beixtiyor o‘ylab qolasan kishi: bu bob Shayxzoda ijodi haqidami yo Mayakovskiyning hech bir qolip yo tasavvurga sig‘maydigan zo‘r “novatorligi” haqidami? Binobarin, bunday ko‘tarinki ta’rif Navoiy yoki Tolstoy kabi daholarga nisbatan aytilsa, mubolag‘a bo‘lmas edi. Bu muammolar alohida o‘rganishni taqozo etadi.

Adabiy ta’sir masalalarini o‘rganishda sho‘rolar davri va hukmron mafkura bilan bog‘liq qarashlarga ham guvoh bo‘lamiz. Bu davrda “ne-ne iste’dodlar qudrati kalendar she’rlarga sarf bo‘lib” (I.G‘afurov) she’riyatda mafkuraviylik chuqur ildiz otgani va u chinakam she’riyat rivojiga, erkin ijodga katta zarar yetkazgani iste’dodli adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdamovning XX asr she’riyatiga bag‘ishlangan yirik tadqiqotida ham keng yoritilgan[93].

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, nafaqat o‘zbek adiblari, balki rus va boshqa xalqlar adabiyotining Konstantin Simyonov, Boris Polevoy, Georgiy Sevuns, Leonid Lench, G‘abit Musrepov, To‘qon Alimqulov kabi taniqli adiblari hamda Vyetnam davlatining sobiq birinchi rahbari Xo Shi Min ham Abdulla Qahhorni ustoz deb bilishgan. Bunday yuksak e’tirof ham adabiyotimiz va xalqimiz

[92] Шарафиддинов О. Мақсуд Шайхзода. Биринчи мўжиза. – Тошкент: 1979. – Б. 306.

[93] Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: филол. фанлари д-ри … дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 76.

uchun bir faxr, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Hayotni teran anglash, kuzatish, undan ta’sirlanish, o‘z xalqi tarixi, urf-odat va an’analarini yaxshi bilishi va hurmat qilishi, ustozlar ijodini chuqur o‘rganishi, badiiy adabiyotga bo‘lgan yuksak muhabbati natijasida ustoz Abdulla Qahhor “O‘tmishdan ertaklar” asaridek asrlar osha qiymatini yo‘qotmaydigan asarlar yozishga muvaffaq bo‘lgan, shuningdek, A.Qodiriy va A.Qahhor rus va jahon adabiyoti klassiklari asarlarini chuqur o‘rganish, ulardan ijodiy ta’sirlanish borasida ham saboq berganligi ibratlidir.

II bob bo‘yicha xulosalar

1. Chexov va A.Qahhor hikoyalari real voqelik asosida, milliy ruhda yaratilgani va so‘z san’atining yuksakligi tahlil asosida ko‘rsatilgan va ularda taqlidchilik to‘g‘risidagi fikrlar asossizligi isbotlangan.

2. A.Qahhor yoshlar ijodiga hamisha jiddiy mas’uliyat va talabchanlik bilan yondashgan. Adib maktublari ham yosh talantlarni tarbiyalash va ularga badiiy mahorat va so‘z san’atkorligi saboqlari bo‘la oladi. Hayotni xolis, realistik tasvirlash Gogol, Chexov va Gorkiy kabi rus adiblari ta’siri emas, balki jahon adabiyotidagi ko‘p asrlik ijodiy an’ana va tasvir usuli ekanligi dalillangan.

3. Klassiklardan o‘rganish ularning mumtoz asarlaridagi go‘zallik sirlarini kashf etish va ulardan mohirona, ijodiy foydalanishdan iborat bo‘lishi jahon adabiyotida dalillangan.

III BOB. ADABIY TA’SIR MUAMMOLARI ADIBLAR TALQINIDA

3.1-§. Adabiy ta’sir, originallik va taqlidgo‘ylik muammolari bahslari

Mavzumizga bevosita bog‘liq tarzda tanqid va adabiyotshunosligimizdagi yana bir bahsli holatga e’tibor qaratish joiz. Ba’zi adib va munaqqidlarimiz so‘nggi yillardagi adabiy jarayondagi ayrim ijobiy tamoyillarni ham, asosan, G‘arb adabiyotining ijodiy ta’siri bilan bog‘lab talqin qilishga ko‘proq moyillik bildirishmoqda. Masalan, tadqiqotchi D.Toshpo‘latova o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida: “XX asr tongida Joysdan keyin maydonga chiqqan har qanday iste’dod ijodida uning «men»i sezilib turadi. F.Kafka va A.Kamyu ijodining o‘zbek adabiyotining 90-yillarida kirib kelgan vakillariga ta’siri bugun qanday asarlarning dunyoga kelganligini vaqtning o‘zi isbotlab turibdi”, – deydi. Bizningcha, bu o‘rinda adabiy ta’sir fakti bir oz bo‘rttirib yuborilgan ko‘rinadi. To‘g‘ri, ko‘p yillar davom etgan siyosiy va mafkuraviy zug‘umlardan so‘ng bizda ham falsafiy-g‘oyaviy, asos jihatdan xilma-xil yo‘nalishga mansub, yangi adabiy va badiiy mukammal asarlar paydo bo‘la boshladiki, bu esa adabiyotning san’at sifatida o‘zining turli obrazli asl tabiatini namoyon qilishga zamin tayyorladi. Realizm bilan barobar deyarli barcha adabiy tur va janrlarda diniy-ma’rifiy, modernistik, an’anaviy va noan’anaviy talqin ustuvorligi seziladigan badiiy asarlar maydonga keldi. Biroq J.Joys, Kafka va Kamyu kabi G‘arb adiblarining o‘zbek adabiyotiga ko‘rsatgan ijodiy ta’siriga ortiqcha baho berish ham biryoqlama fikr yuritish bo‘lar edi. Bu jihatdan atoqli adibimiz Odil Yoqubovning “So‘z” kitobidagi fikrlari muhimdir: “G‘arb adabiyotiga intilish masalalarida chalkashib ketishdan ehtiyot bo‘lish lozim… Men tabiatdan misollar keltiray, soddaroq bo‘lishi uchun. Afrikada boabab degan daraxt o‘sadi. Kokos degan bir daraxt ham bor. Ana shu daraxtlar O‘zbekistonga keltirilsa o‘smaydi. Adabiyotda ham ana shu tabiatdagi xususiyat bor. U ham o‘z zaminiga, ildiziga, an’analariga ega bo‘lishi kerak. Abdulla Qodiriylar buni yaxshi tushunishgan, shuning uchun ularning asarlarini xalq yaxshi ko‘radi…”[94]. Ya’ni yangi davr o‘zbek

[94] Yoqubov O. So‘z. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 420.

adabiyotining asoschilari bo‘lgan Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon yoxud Oybek va Abdulla Qahhordek buyuk adiblarimiz ijodining milliy o‘ziga xosligi va originalligini bir tomonga qo‘yib turganimizda ham, XX asr 70-yillarida ijod olamiga kirib kelgan birgina Tog‘ay Murod kabi yosh adiblarimizning betakror asarlari va sof o‘zbekona qahramonlarining, eng avvalo, milliy zaminga asoslangani va milliy tafakkur va ijodiy an’analarimiz asosida yaratilganining o‘zi ham fikrimizni to‘la isbotlaydi. Tog‘ay Murod ko‘proq an’anaviy baxshiyona yo‘nalishdagi yozuvchi sifatida talqin qilinadi. Biroq uning adabiyotimizdagi eng jiddiy badiiy kashfiyoti, Nosir Fozilov ta’kidlaganidek, shaxs talqinidagi yangilikdadir. Bu borada o‘zi sevib o‘qigan, o‘rgangan Kafka, Joys, Kamyu bisotlaridan o‘tgan nimalardir bor: shaxs tabiati, baxti, baxtsizligi, qismati talqinida. U.Normatov ta’kidlaganidek, T.Murod XX asr jahon modern adabiyotining eng muhim tamoyillariga hamohang yo‘llardan borgan. Ma’suma Ahmedovaning aytishicha, adib haqiqatan ham J.Joysning “Uliss” romanining kattagina qismini, yuz sahifasini tarjima qilgan. Afsus, qo‘lyozmaning taqdiri noma’lum: yo tarjima yoqmay yo‘q qilingan, yoki qayergadir tashlab qo‘yilgan. T.Murodning ayrim “modernchilar”ga qarata: “Men ularga o‘zbekona absurd, modern nimaligini ko‘rsatib qo‘yaman”, – deyishi ham bejiz emas edi. Ya’ni adib chinakam badiiylik milliylik va haqqoniylikda ekanligini aytmoqchi bo‘lgan. Uni faqat an’anaviy baxshiyona yo‘nalishdagi yozuvchi sifatida talqin qilish birtomonlama yondashuv oqibati bo‘lsa kerak. Masalan, Tog‘ay Murod otni shunaqa chiroyli tasvir qila oldiki, u tasvir qilgan otni beixtiyor “Boychibor” deb yuborging keladi! Nosir Fozilov yana bir ibratomiz xotira keltiradi: “Ustoz (S.Ahmad) qanchalik katta yozuvchi bo‘lmasin, baribir u kishi shaharlik-da, Tog‘aydan maslahat olibdi. Davr masalasini hisobga olsak, unda qardoshlar sahnasiga chiqqan bizning asarimiz yakka-yu yagona shu Tog‘ay Murodniki bo‘lib qoladi”.

Bu mulohazalarga adabiy ta’sir va ijodiy an’ana kabi muammolarga bog‘liq yana bir muhim tarixiy fakt va xotirani ham qo‘shimcha qilish lozim. Ba’zi yosh adabiyotshunos va kitobsevarlar uchun ham foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan bu tarixiy misol T.Murod va rus adabiyoti mavzusiga ham muayyan aniqlik kiritadi.

Darhaqiqat, Tolstoy, Dostoyevskiy, Mandelshtam kabi ulug‘ klassiklar shaxsi va ijodini chuqur ixlos bilan o‘rgangan Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi o‘zbek ayollarining o‘ziga o‘t qo‘yishdek fojeali taqdirlariga yuksak insoniylik bilan hamdardlik ko‘rsatgan rus shoiri Mixail Dudinning kuchli bir she’rini keltirishi ham adibning didi va madaniyati baland ekanligidan guvohlik beradi. Muhimi shundaki, ushbu she’r romanning yetakchi g‘oyaviy-badiiy mazmuniga hamohang ekanligi bilan tasvirni yanada kuchaytirishga xizmat qilganligini ham e’tirof etish lozim. Shuningdek, Tog‘ay Murod Valentin Rasputinni “Rossiyaning eng kuchli yozuvchisi”, deb bilardi. Ularning milliy tafakkuri, keng dunyoqarashi va adabiyotga, ijodkor shaxsiga munosabatlarida ham havas qilsa arziydigan mushtarak xususiyatlar ko‘pligi uchun ham T.Murod o‘z asarlarini V.Rasputin rus tiliga tarjima qilishini xohlagan bo‘lsa kerak. Valentin Rasputin ham bunga mamnuniyat bilan rozilik bildirganligi haqida yetarli ma’lumotlar endilikda ayonlashmoqda. Bugungi kunga kelib u adabiyotimizning mumtoz siymosiga aylandi. Endilikda bunga yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

O‘zbek adabiyoti tarixida shunday siymolar borki, ularning muborak asarlari avlodlar ijod yo‘lini so‘nmas nur, tolmas kuch bo‘lib nurafshon etadi. Yillar, asrlar o‘tar, bir avlod o‘rniga yangi avlod kelar, ammo o‘zbek adabiyotining Navoiy, A.Qodiriy, Cho‘lpon, A.Qahhor kabi ijodkorlari yaratgan ma’naviy boyliklari eskirmaydigina emas, balki, aksincha, ularning yildan yilga yangi qirralari ko‘rinib, o‘zining butun ulug‘vorligi va go‘zalligini namoyon qila boradi hamda adabiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga yosh san’atkorlar uchun haqiqiy ijod maktabi vazifasini ham o‘taydi.

Ma’lumki, adabiy ta’sir bir yozuvchi dunyoqarashi va ijodiy usullarining boshqa bir yozuvchi ijodiga ta’siri demakdir. Badiiy asar kishiga nafaqat mazmuniy jihatdan, balki muallif tomonidan qo‘llangan o‘ziga xos yutuqlari bilan ham ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab ijodkorlar badiiy asarni chuqur tahlil etish jarayonida yoki asar muallifi bilan bo‘lgan suhbatdan ham ta’sirlanadi va bu ta’sir natijasi ijod yo‘llarining qaysidir pog‘onasida yaratajak asari yoxud ijodi jarayonida asarlarining ma’lum o‘rinlarida aks etadi.

Adabiy ta’sir san’atkorlarga badiiy ijod olamining sir-asrorini anglashida yordam beradi. Jumladan, har bir so‘zni taroziga solib ko‘radigan, og‘ziga kelgan har bir so‘zni aytavermaydigan, o‘ylab, mushohada etib, so‘ngra so‘zlaydigan adib Abdulla Qodiriyning ijodkor sifatida o‘zini tutishi, badiiy ijod haqidagi sermazmun fikrlari, ijod ahliga, suhbatdoshlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Xususan, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek “Realist san’atkor” sarlavhali maqolasida Abdulla Qodiriy bilan bo‘lgan suhbatlaridan birini shunday xotirlaydi:

“Hozirgi zamon temasi shundaygina yoz-yoz deb turibdi, biroq biron narsa chiqara olarmikanman? Uh, bilmayman, aqlim yetmay qoldi… – U kulimsirab qo‘ydi-da, o‘ziga o‘zi: – Hamma gap mana shu bilmasligimda! Kam narsa bilaman. Men og‘irkarvon odamman, ko‘p kuzatishim kerak! – deb qo‘ydi”.[95] Ushbu suhbat adib Oybek uchun juda foydali kechadi. Adibning o‘ziga xos kamtarinligi, o‘z davrining ilg‘or yozuvchisi bo‘lishiga qaramasdan kam narsa bilaman deya o‘yga tolishi, hayotni ko‘p kuzatishi kerakligini ta’kidlashi, fikrlari bevosita Oybekka ta’sir ko‘rsatadiki, keyinchalik Oybek maqolasida: “Men keyinchalik proza yozishga o‘tganimda «ko‘p kuzatishim kerak», degan so‘zlarni tez-tez eslab turardim”, – deya ta’kidlaydi. Shunday ekan, Oybekning prozada yaratgan asarlarining zamirida A.Qodiriy bilan bo‘lgan suhbat va adabiy ta’sir o‘z o‘rniga egadir. Abdulla Qodiriydagi har bir detalni sinchkovlik ila kuzatish usuli ma’lum vaqt o‘tgach, Oybekday buyuk san’atkor uchun dasturulamal vazifasini bajargan. Ko‘plab adabiy-tanqidiy maqolalarda ba’zi munaqqidlar adabiy ta’sir va taqlidchilik masalalarini farqlashda ba’zi bir kamchiliklarga yo‘l qo‘yadilar. Chunonchi, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani arab yozuvchisi Jurji Zaydon romanlariga taqlidan yozilgan yoki “Baxtsiz kuyov” pyesasi Behbudiyning “Padarkush” dramasiga taqlidan yozilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Ma’lumki, A.Qodiriy arab yozuvchisi Jurji Zaydon asarlarini chuqur mutolaa

[95] Ҳабибулло Қодирий. Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1986. – В. 5.

etgan, shuningdek, adibning o‘zi Behbudiyning “Padarkush” dramasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” pyesasini yozganini ta’kidlaydi.

Adabiy ta’sir va taqlidgo‘ylik bir-biridan farqli tushunchalar bo‘lib, taqlidchilik – badiiy, ilmiy yo‘nalishga, uning namoyandalariga xos g‘oya va usullarni tushunib-tushunmagan holda g‘ayriixtiyoriy qaytarish, takrorlash demakdir. Taqlidchi an’analarga ijodiy yondashmaydi, balki mexanik yondashadi. U shoir yoki yozuvchini ijodiy mustaqillik, o‘ziga xoslikdan, originallikdan mahrum etadi.

“Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da taqlidgo‘y haqida shunday izoh bor: “Epigon (yun. epigonos – keyin tug‘ilgan so‘zidan) – o‘z umrini tugatgan adabiy oqimga ergashuvchi, o‘z salaflarining g‘oyasi, metodi va badiiy tasvir vositalarini mexanik ravishda takrorlovchi yozuvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan salbiy ma’nodagi so‘z”. Bunday quruq taqlidchi yozuvchilar o‘zlaridan avval o‘tgan yozuvchilar tomonidan ijod qilingan mazmun, so‘z va obrazlarni mexanik ravishda takrorlovchi narsalar yozadilar va chizadilar[96].

Adabiy ta’sir esa adabiy izdoshlikni yaratadi. Adabiy ta’sir natijasida o‘ziga xos, takrorlardan holi bo‘lgan, ustoz-salaflarning an’analarini davom ettiruvchi va boyituvchi, boy adabiy tajribani rivojlantiruvchi asarlar dunyoga keladi. Shu o‘rinda, taqlidchilikni izdoshlikdan farqlash kerak. Masalan, A.Navoiyning Jomiy va boshqa shoirlar g‘azallariga tatabbu’lari, Muqimiy va Furqatning Navoiy va Fuzuliy g‘azallariga taxmislari ijodiy izdoshlikning, adabiy ta’sir asosida yaratilgan namunalaridir.

Taqlidchilik ijod tabiatiga zid. Shuning uchun ham Abdulla Oripov taqlidchi shoirga haqli ravishda mana bunday kinoya qiladi:

Taqlid qila bergin yetsa bardoshing,
Modomiki senda bor ekan havas.
Faqat bir qora kun ko‘tarib boshing,
Asl nusxaman deb dod solmasang bas[97].

[96] Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С., Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – B. 251.
[97] Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 226.

Shoir misralarida taqlid asosida yaratilgan asarni oʻqigan adabiyot ahli asl nusxani esga olishiga, ular oʻrtasida farqni sezmasligiga va kitobxon yoki munaqqid uni ijobiy baholamasligiga ishora bor. Taqliddan dunyoga kelgan asarlar barhayot boʻlmasligi, asl nusxaning soyasida qolib ketishi tabiiy holdir.

Oʻzbek mumtoz adabiyotida asrlar davomida koʻplab anʼanaviy tasviriy vositalar, xususan, qayta-qayta qoʻllanadigan oʻxshatishlar vujudga kelgan. Chunonchi, goʻzal qizning qomatini sarvga, yuzini oyga, koʻzlarini yulduzga, qoshlarini yoyga, sochlarini ilonga, lablarini olchaga oʻxshatish odat tusiga kirib qolgan. Choʻlpon ham bunday obrazlardan koʻp foydalangan. Shu bilan birga, u bunday takrorlanishlarni koʻp ham maʼqullamay, “Bir xil, bir xil, bir xil” deb taʼriflagan[98]. Choʻlpon ijodida takrorlardan, bir xillikdan qochib, asarlarini turli noanʼanaviy ifoda vositalari bilan boyitishga harakat qilgan. Natijada “Goʻzal”, “Koʻngil”, “Roʻmolim” kabi sheʼrlarida yangicha oʻxshatish va ifodalardan foydalangan. Takrorlardan qochish ijodkorlarni novatorlikka, betakror asarlar yaratishga undaydi.

Qodiriy XX asr 20–30-yillarida yozgan adabiy-tanqidiy maqolalarida badiiy asar tabiati, yozuvchi masʼuliyati, ijod psixologiyasi, dunyo adabiyoti tajribalaridan oʻrganish kabi masalalarni muhokama qiladi.[99] Xondamir Qodiriyning “Abdulla Qodiriy” sarlavhali toʻplamida Abdulla Qodiriyning birinchi oʻrinda Sharq adabiyotini mukammal oʻrganganligi, shu bilan birga Gʻarb adabiyotini ham puxta egallaganligi, bu ikki maktabdan olgan bilimlarini, tajribalarini oʻz ijodida mohirona qoʻllay olganligi, uning asarlarining sevib oʻqilishining omili ekanligi taxmin qilinadi. Shunday ekan, Sharq va Gʻarb xalqlarining tajribalari, badiiy adabiyoti taʼsiri Abdulla Qodiriy asarlarining sevimli boʻlishi sabablaridan biri boʻlsa, ajab emas.

A.Qodiriy asar yozishdan avval yurt kezib xalqni yaqindan tanib, soʻngra asar yozishga oʻtirgan. Bu kabi taassurotlar haqida “Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida” kitobiga Yoʻldosh

[98] Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – B. 201.
[99] Bahodir Karim. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. – B. 48-49.

Shamsharovning “Ulug‘ adib edi” sarlavhali maqolasi kiritilgan bo‘lib, unda maqola muallifi Abdulla Qodiriyning Namanganga tashrif buyurgani, namanganliklar bilan suhbatda bo‘lgani, ularni ko‘p kuzatgani, Boborahim Mashrab haqidagi fikrlariga to‘xtaladi va Namangandagi suhbatdan so‘ng Abdulla Qodiriy namanganlik paxtakor Mallaboy aka haqida bir ocherk e’lon qilganligini, bunda o‘sha o‘rganish ta’siri baralla sezilib turganligini qayd etadi. Demak, A.Qodiriyning Namangan taassurotlari Mallaboy aka haqidagi ocherkning yozilishiga turtki bo‘lgan. Bunday ta’sir badiiy ijod taraqqiyotidagi muhim omillardan biridir. San’atkorlar qoldirgan badiiy meros bilan birga ijodkorlar bilan bo‘lgan suhbatlar, shoir-yozuvchilarning o‘zini tutishi, ma’lum masala yuzasidan bildirgan nuqtayi nazari ham bevosita tinglovchiga ta’sir ko‘rsatadi. Agar tinglovchilar talant egalari bo‘lsa, bu adabiy ta’sir kuchi ijod jarayonida ularning mukammal asarlar yozishida foyda beradi. Ijod ahlining ko‘pchilik qismi sayohatlarni xush ko‘radi, sababi, undan olgan taassurotlaridan ilhomlanadi. Ko‘rgan-kechirganlari ta’sirida sayohatdan so‘ng yangi asarlar yozadi. Buni yuqorida keltirilgan A.Qodiriyning Namangan safaridan anglash qiyin emas. Shuningdek, badiiy asarlar tahlilida adabiy taqlid va adabiy ta’sir masalalarini chalkashtirib yubormaslik lozimki, adabiy ta’sir natijasida yangi, o‘ziga xos asar yaratilsa, taqlidchilik takrorlarga asoslangan, mustaqil yaratuvchilikdan holi bo‘lgan asarlarning yaratilishi demakdir.

Adabiy an’ana va ijodiy ta’sir adabiyot taraqqiyoti va rivojiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Ichki va tashqi ta’sir sintezlashuvi natijasida adabiyot taraqqiyoti jadallashadi. Ustoz adiblar yosh yozuvchilarga badiiy ijodning sirlari, mohiyati haqida o‘ziga xos qarashlarini, tavsiyalarini, tahlillarini jamlab, turli maqolalar, to‘plamlar yozib qoldirishi badiiy ijodning azaliy an’analaridan sanaladi. Bu an’analar monografiyamizda o‘rganilayotgan adabiyotimizning to‘rt avlodi vakillari: Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog‘ay Murodlar ijodida ham muvaffaqiyatli davom ettirilgan. A.Qodiriy “Yosh yozuvchilarimizga” nomli maqolasida ijodkorlik mashaqqatlari va kuzatuvchanligi zarurligi va so‘z qo‘llash talab-mezonlari haqida ibratomiz

fikrlarni bayon etib, oʻz ijodining ijod sirlari va usullari bilan ham samimiy oʻrtoqlashgani yosh qalamkashlarda chuqur taassurot qoldirgan boʻlsa, xuddi shundayin, Abdulla Qahhor ham “Yoshlar bilan suhbat” toʻplamiga kiritilgan maqolalarida yosh ijodkorlarning yetuk, eng sara asarlari va yutuqlarini e’tirof etish bilan birga ularning xato-kamchiliklarini ham koʻrsatib oʻtadi. Ijodkor talantini xalqining bebaho mulki deb bilgan Abdulla Qahhorning iste’dodli yoshlarga gʻamxoʻrligi va homiyligi ham juda ibratli va samarali boʻlganligi koʻplab zamondoshlari va adabiyotshunoslarning xotiralarida yaxshi yoritilgan. Zotan, Abdulla Qahhorning adabiyotga va ijod ahliga jonkuyarligi, ayniqsa, iste’dodli yoshlarga talabchan murabbiyligi, eng avvalo, bu ulkan ijodkorning adabiyotimiz va ma’naviyatimiz ravnaqi yoʻlidagi jonkuyarligi va mas’uliyati bilan izohlanadi. Ustozning gʻoyat samarali bu faoliyati bugungi adabiy jarayon uchun ham bir namuna boʻlishini va bevosita mavzuga daxldorligini e’tiborga olib, bu xususda kengroq fikr yuritish lozim, deb oʻylaymiz. Yoshlarga e’tibor va gʻamxoʻrlik Abdulla Qahhorga xos noyob fazilatlardan biri edi. Abdulla Qahhor yoshlarning asarlarini oʻziga xos sinchkovlik va talabchanlik bilan muttasil kuzatib, tahlil etib borar ekan, yosh ijodkorlarning intellektual qobiliyati va ijodiy salohiyatini oʻrni kelganda yuksak baholagan.

Asqad Muxtor esa “Yosh doʻstlarimga” deb nomlangan kitobida yosh yozuvchilar uchun keng qamrovli hamda foydali boʻlgan qimmatli mulohazalarni bayon etadi: “Ayniqsa, yosh yozuvchi boʻlish qiyin. Chunki ham oʻzingni, ham birovlarni tarbiyalashing kerak. Yosh boʻlish qiyin. Hamma senga nasihat beravergani uchungina emas, yosh boʻlish, avvalo, shuning uchun qiyinki, yoshlikning ishi, mas’uliyati ogʻir boʻladi: oʻqish, ustozlardan oʻrganish kerak, oldingi avlodlar yaratgan hamma bilim va mahoratni egallash kerak, eng muhimi – ustozlarni quvib yetishgina emas, oʻtib ketish, ular yaratgan xazinaga nimadir qoʻshish kerak. Aks holda, taraqqiyot boʻlmaydi. Ba’zan shogird ustozdan oʻtibdi, deb hayron boʻlishadi, bu – notoʻgʻri. Ustozdan oʻtmasa, shogird boʻlishning nima mohiyati bor?! Shogirdlar ustozlardan oʻtmasa,

taraqqiyot to‘xtab qoladi-ku, axir?”[100] Adib oldingi avlodlar yaratgan barcha bilim va mahoratni egallash muhimligi, adabiy an’analarni davom ettirish lozimligini, qolaversa, ustozlardan nafaqat o‘rganib, balki yana yosh adiblar ijodiy yondashib o‘zlaridan yangiliklar qo‘shishlari xususida ham to‘xtalar ekan, bu o‘rinda adabiy an’ana va ijodiy ta’sir masalasining nechog‘lik muhimligiga ishora bor, deyish mumkin. Ijodiy ta’sir adabiy jarayonni nafaqat tezlashtiradi, balki adabiyot taraqqiyotida ham yetakchi omil vazifasini o‘taydi. Adabiy ta’sir bergan ilhom, estetik quvvat va ijodkorlardagi mavjud bilimlar sintezi natijasida ko‘p hollarda novatorlikka asoslangan yangi asarlar dunyoga keladi. Adabiy ta’sir turtkisi hamda iste’dod hosilasi birgalikda adabiy jarayonni boyitadi. Shuningdek, Asqad Muxtor “Yosh do‘stlarimga” kitobida Abdulla Qahhorning “Talant – xalq mulkidir” maqolasidagi fikrlarni uzviy tarzda davom ettiradi. Asqad Muxtor Abdulla Qahhor bilan bu masalada hamfikr bo‘lishi bilan birga uning maqolasidan ijodiy quvvat olib, o‘z mulohazalarini to‘ldirishda foydalanadi. Asqad Muxtor: “Adabiyot jarayoni uzluksiz; qancha yozuvchi bo‘lsa, shuncha usul, hayot murakkabliklarining mag‘zini hamma o‘zicha izlaydi, hamma o‘z yuragida qaynatadi, o‘z ilhomini, o‘z ehtirosini taqdim etadi. Ozgina so‘z aytish uchun juda ko‘p bilishi, juda ko‘p ko‘rishi, voqealarni, biografiyalarni, faktlarni, hislarni, o‘ylarni, psixologiyani bilishi kerak”, – deydi. Shuningdek, “Yosh do‘stlarimga” kitobida adib Pushkin, Lermontov, Blok, Lev Tolstoy kabi ulug‘ san’atkorlarning badiiy ijod, yaxshi she’r xususidagi qarashlariga ham to‘xtaladi va ularni o‘ziga xos teranlik bilan tahlil qiladi. Shu munosabat bilan bu o‘rinda adabiy an’ana va ijodiy ta’sir masalasiga oid ayrim ilmiy-nazariy qarashlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Adabiyotshunos A.S.Bushmin adabiy ta’sirni qo‘zg‘atuvchi sabablardan biri ijodkorlar o‘rtasidagi ichki yaqinlik yoki qarama-qarshilik, munozaralik ekanligini ta’kidlagan[101]. Alisher Navoiy asarlarini chuqur anglagan adib Asqad Muxtor va Navoiyning voqelikka bo‘lgan munosabatlarida shunday ichki yaqinlik borki,

[100] https://yoshlikjurnali.uz/publitsistika/asqad-muxtor-yosh-yozuvchi-bolish-qiyin/
[101] Нурмуҳаммедов А. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 57.

Asqad Muxtor Navoiy satrlaridan ilhomlangan, ijodiy ta’sirlangan. Adib yoshlikning bebaho ne’mat ekanligi, vaqtni behuda narsalarga sarflamasdan inson jamiyati, o‘zi uchun foydali mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi haqida yozar ekan, ushbu fikrlarining mazmunini boyitish maqsadida Navoiyning quyidagi misralarini keltiradi:

Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani,
Qarilik chog‘i xarj qilg‘il ani!

Adib umrning behuda sovrilishiga befarq qarab tura olmaydi. Mazmunsiz o‘tgan soatlar tugul soniyalarning ham uvoliga qayg‘urar ekan, minutlar ham umr parchalari ekanligini, yoshlarni har onni, hayotimizning har bir qismini qadrlashga, kelajak uchun foydali harakatlar qilishga undaydi. Bu o‘rinda Navoiy misralaridan ijodiy foydalanish adib asarining badiiy-estetik ta’sirini oshirish bilan bir qatorda yosh yozuvchilarni adabiy an’ana va ijodiy ta’sir saboqlaridan bahramand etadi.

Asqad Muxtor xalqimizning donishmand adiblaridan biri. Asarlarida bir qancha muammolarni aks ettiradigan, shu bilan birgalikda bir jumla yoki iboraga katta mazmunni yuklab kitobxonni o‘ylatadigan hamda mag‘zini chaqqan sayin unga estetik zavq beradigan nodir iste’dod sohibidir. Adibning umr daqiqalarining ma’noli yo mazmunsiz o‘tishi haqidagi fikrlari Navoiyning quyidagi misralari bilan hamohang:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin no tamom o‘tmoq baayni,
Erur hammomdin nopok chiqmoq…

Alisher Navoiyning yuqoridagi misralari Asqad Muxtorni ijodiy ta’sirlantirgan. Navoiy asarlari bilimdoni bo‘lgan adib bu misralardan “Bo‘ronlarda bordek halovat” qissasida ham ijodiy foydalangan. Qissada Gubanovning inson bo‘lish eng og‘ir ishligini, o‘g‘ri-bezorilar o‘rgangan egri harakatlarini tashlab odamlarga o‘xshab to‘g‘ri hayot kechirishlari oson kechmasligi haqidagi fikrlariga javoban Bobosh hunar o‘rganishga vaqt ketishi tabiiyligini, ammo ablahlikni tashlash uchun vaqt emas, farosat kerakligini kuyunib gapiradi. Xayolan o‘g‘ri-muttahamlarga

qarata: “Farosating bo‘lsa, tashla qo‘y-da! Nima uchun kelgansan dunyoga? Iflosligingcha o‘tib ketganimi? Adabiyot o‘qituvchimiz bir vaqtlar Navoiyning mana bu so‘zlarini yod oldirgan edi”,[102] – deya “Kamol et kasbkim, olam uyidin” misrasi bilan boshlanuvchi baytni keltiradi. A.Muxtorning bu kabi asar parchalarini, ya’ni reminissensiyalarni qissada mohirona qo‘llagani ijodiy ta’sirning yaqqol bir namunasi bo‘la oladi. Ushbu misollar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, Navoiy asarlari Asqad Muxtor ijodiga g‘oyaviy, estetik tomondan ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Yoxud adib “Kumush tola” qissasida Navoiyning “Badoye ul-bidoya” devonidagi “Qurt jondin kechib ipak bo‘ldi, Pilla qurticha himmating yo‘qmu?”[103] misralaridan epigraf sifatida ham o‘rinli foydalangan. Tanlangan epigraf asar mazmunini ochib berishda, boyitishda, qolaversa, kitobxonning qissadan keng xulosa chiqarishiga yordam beradi. Qissa qahramoni Tojixon aya mahalla ahliga yaxshilik va jonkuyarlik qilib, og‘ir damlarda, urush paytlarida sog‘lig‘ini ham o‘ylamay, erkaklar bajaradigan ishlarni bajaradi va natijada befarzandlik dardiga yo‘liqadi. Odatda, ba’zi insonlar bir-ikki marta og‘ir ish qilganidan keyin o‘zini avaylaydi. Ammo Tojixon aya hech o‘zgarmaydi. Yaqinlari, yurti uchun harakatdan to‘xtamaydi. Adib ipak qurti boylik kabi e’zozlansa, Tojixon ayaning qalbi, xalqqa ko‘rsatgan yordami, undagi insoniy ezgu xislatlar el-yurt uchun xazina ekanligini bayon etadi. Adibning barcha asarlarida inson va uning qadr-qimmati ulug‘lanadi. Insonlarga nisbatan adibning yuragi o‘ziga xos, takrorlanmas, iliq mehr-muhabbatga to‘la. Bu hislarini asarlarida bir necha tasviriy ifodalarda mahorat bilan tasvirlaydiki, undan olingan estetik zavq ancha paytgacha o‘quvchini o‘yga cho‘mdirib, bezovta qiladi. Qissada el xizmatini qilib charchamagan, xalq dardi va manfaatini o‘z osoyishtaligidan ustun qo‘ygan Tojixon aya vafot etganidan so‘ng muallim va uning qizi o‘rtasidagi suhbat orqali anglash mumkin bo‘lgan g‘oya diqqatga sazovordir. Adib birgina tasviriy ifodaga jamlagan ma’no kitobxon qalbini larzaga soladi. O‘quvchi adibning badiiy niyatini o‘sha nuqtada yanada yorqinroq

[102] Asqad Muxtor. Bo‘ronlarda bordek halovat. – Toshkent: Oltin Qalam, 2023. – B. 44.
[103] Asqad Muxtor. Kumush tola. – Toshkent: Zabarjad media, 2022. – B. 3.

anglaydi. Asardan zavq olish, ta’sirlanish barobarida o‘zi uchun zarur xulosalarni chiqaradi.

– Ayang senga nima dedi, qizim, oxirgi marta?

– “Kumush tola…” dedilar.

– Yana?

– Shu.

– O‘sha tola uzulmasin, demoqchi bo‘lganlar. Ayaning ishini davom ettirish kerak, qizim.

Muallim uning boshini bag‘riga bosdi, qizining yig‘lamaganiga hayron edi. Yo tushunmayapti, yo yig‘lashni bilmaydi bola boyaqish.

– Gap ipak tolaning uzilmasligidagina emas, oppog‘im. Ayangday odamlarning ruhiyati, ma’naviy dunyosi davom etishi kerak[104].

Yoki “Bo‘ronlarda bordek halovat” qissasida qissa qahramoni Mardonqul Zargarov yordamchisi Boboshning sahroni o‘zlashtirish ishlarida qatnashayotgan ishchilar orasida ashaddiy banditlar, qamoqdan chiqqan har xil odamlar, o‘g‘rilar ham borligini, ular bilan ishlash og‘irligini nazarda tutib, ularni “chiqit”, pastkashlar deb ataganida Zargarov unga shunday deydi: “Hamma narsa boylik. Hatto go‘ng ham… Endi o‘yla: odam nima uchun chiqit bo‘lar ekan? Kishining o‘zigina emas, hayotigina yoki ishigina emas, quvonchi, husni, axloqi, sevgisi, olimi – xullas, hamma narsasi odamlar xizmatida bo‘lishi kerak. – U Boboshdan ham ko‘ra bu fikrni o‘ziga ma’qullayotgandek gapirar, to‘g‘rirog‘i, bu to‘g‘rida oshkora o‘ylamoqda edi. Birozdan keyin yana davom etdi: – Nega shug‘ullanasiz, deysan. Sen Dmitriy Kazimirovichdan so‘ra. Har bir yomon odamning ham, mana shu sahronikiga o‘xshash oltin tomiri bo‘ladi, deydi u. Ana shu tomirni topish kerak. Bo‘lmasa, uvol ketishi mumkin”.[105] Zargarov sahroni o‘zlashtirishga bel bog‘lar ekan, albatta, unga katta ishchilar kuchi kerak bo‘ladi. U to‘plagan ishchilar orasida jinoyatchilar, o‘g‘ri-bezorilar ham anchagina bo‘lib, Bobosh Zargarovga ular bilan ishlash ancha mashaqqatli ekanligini aytganida, Zargarov dunyoda yomon odam bo‘lmasligini, biz yomon deya sifat bergan

[104] Asqad Muxtor. Kumush tola. – Toshkent: Zabarjad media, 2022. – B. 246.

[105] Asqad Muxtor. Bo‘ronlarda bordek halovat. – Toshkent: Oltin Qalam, 2023. – B. 122.

odamda aslida koʻplab yaxshi xislatlar ham boʻlishi mumkinligi haqida teran fikrlar aytadi. Biz faqat ularni ziyraklik bilan koʻra olishimiz kerakligini uqtiradi. Insondagi ezgu xislatlarni oltin tomir deya nomlaydi. Shuningdek, Asqad Muxtor ham A.Tvardovskiy, Ch.Aytmatov, A.Qodiriy va A.Qahhor kabi ulugʻ adiblarning mushtarak fikrlariga qoʻshilgan holda yozuvchining hayot tajribasi, biografiyasini “oltin fond-zahira” deb ataydi. Binobarin, Asqad Muxtorning “Kumush tola”, “oltin tomir” yoki “oltin fond” kabi tasviriy ifodalari zamirida ham yozuvchi keng ma’no singdirishi bilan oʻziga xos mahorat ustasi ekanligini anglashimiz mumkin. Bu kabi tasviriy vositalar asar jonliligini va badiiyatini oshiruvchi, emotsionallikni kuchaytiruvchi omillardan biri deyish mumkin. Badiiy nutqning ta’sirchanligini ta’minlovchi tasviriy ifodalar “poetik vosita”, “stilistik figura”lardan biri boʻlib, muallif his-tuygʻu va kechinmalarini yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Stilistik figura va nutq troplari tilning obrazli tuzilishining asosidir. Yozuvchining mahorati siyqasi chiqqan eski soʻzlardan doimiy foydalanishdan iborat emas. Aksincha, iste’dodli muallif hatto hammaga ma’lum boʻlgan iboraga ham hayotiy mazmun singdira oladi, shu bilan oʻquvchi e’tiborini tortadi, badiiy matn idrokini tetiklashtiradi[106]. Asqad Muxtor asarlarida xalq maqollari va matallaridan, iboralar, tasviriy ifodalardan oʻrinli foydalanishi ijodining oʻziga xos uslubga egaligining ifodasidir, desak, adashmagan boʻlamiz. Adib xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan ham ijodiy ta’sirlanib, ularni oʻrni bilan asarlarida, jumladan, “Kumush tola” qissasida keltirib oʻtgan.

Boychechagim tillolik…
Qattiq yerdan tatalab chiqqan
Boy-chechak![107]

Asqad Muxtor oʻzbek adabiyoti nasri bilan bir qatorda nazmida ham birdek qalam tebratgan yetuk shoir, publitsist hamdir. Iste’dodli va koʻpqirrali adib qissada “Taqdirin oʻz qoʻli-la yaratur inson!”, deya yosh raisning kelgusi rejalarini «birma-bir

[106] https://cyberleninka.ru/article/n/tilshunoslikda-badiiy-tasvir-vositalaridan-foydalanishning-o-ziga-xosligi/viewer
[107] Asqad Muxtor. Kumush tola. – Toshkent: Zabarjad media, 2022. – B. 137.

oʻzimiz bajaramiz», degan chorlovlarini Gʻ.Gʻulomning misralari orqali aks ettirishi ham ijodiy ta’sirning ilhom mahsulidir. Yoki adibning tarixiy asarlaridan biri “Amu” romanida tarixiy faktlarga, yaqin va uzoq oʻtmish voqealariga murojaat qilishi bilan birga buyuk shoir Firdavsiyning “Shohnoma” asari voqealari bilan bogʻlaydi: “Bu joylar afsonaga boy, – deb asta davom etdim, – oʻsha otashnafas togʻlar orasida Raxshkoʻl bor. Osmonday tiniq togʻ koʻli, suvining mavji bahorgi maysadek yam-yashil. Afsonalarga koʻra “Shohnoma”dagi Rustami dostonning olov qanotli dulduli Raxsh shu koʻlning tubida oʻtlar ekan”[108].

Buni Asqad Muxtorning adib shaxsi haqidagi fikrlari bilan bogʻlash mumkin. Ayniqsa, A.Muxtorning quyidagi fikrlari juda qimmatli: “Asarning saviyasi muallif saviyasidan oshiq boʻlmaydi. Muallifning zavqi, bilimi, xulqi, qalbi, qarashlari, tajribasi – asarga muhr boʻlib bosiladi. Kitob bu jihatdan nihoyatda subyektiv narsa. Shuning uchun yozuvchi, avvalo, oʻzini xalq hayotidagi muayyan, zarur oʻringa qoʻya bilishi kerak. Xalq hayotining hamma tomonlari – ogʻir tomonlari ham, goʻzal tomonlari ham yaqqol koʻrinadigan joyga qoʻya bilishi kerak”[109]. Adib bu oʻrinda koʻp oʻqigan, ustozlar oʻgitlaridan bahramand boʻlib, xalq hayotini yaqqol ochib berish uchun chuqur ilm, tajriba kerakligini ta’kidlagan.

Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Togʻay Murodlar adabiyotimiz an’analari davomchilari boʻlishi bilan bir qatorda bu an’analarni davom ettirish asnosida oʻzaro adabiy ta’sir doirasida boʻlganlar. Avvalgi avlod an’analari keyingi avlod tomonidan uzviy davom ettirilgan, takomillashtirilgan. Shuningdek, boshqa adiblarimiz qatorida Asqad Muxtor ham ijodiy ta’sirdan olgan taassurotlaridan asarlarida mahorat bilan foydalangan. Adabiy ta’sir asosida adiblar ijodiga yondashuvlar, misollar, faktlar keltirish asar mazmunini boyitish bilan bir qatorda adibning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashi va egallagan bilimlari darajasi haqida ham tasavvur paydo qilishi bilan ahamiyatlidir.

Milliy, hududiy va jahon adabiyoti doimo oʻzaro aloqada rivojlanadi va bir-birini boyitadi. Jahonda biror adabiyot faqat oʻz

[108] Asqad Muxtor. Amu. – Toshkent. Oltin Qalam, 2024. – B. 21.
[109] https://yoshlikjurnali.uz/publitsistika/asqad-muxtor-yosh-yozuvchi-bolish-qiyin/

qobig‘ida, o‘z adabiy an’analari doirasida rivojlanmaydi, balki boshqa adabiyotlarning ilg‘or tajribalariga tayangan holda o‘z taraqqiyotini belgilaydi[110]. Har bir ijodkor jahon adabiyoti va o‘z milliy adabiyotidan bahramand bo‘lgan holda badiiy ijod sirlarini o‘zlashtiradi. Ijodkorning diqqat-e’tiborini tortgan mavzu yoki o‘ziga manzur bo‘lgan san’atkor ijod mahoratini tadqiq etishi va bevosita o‘rganishi badiiy ijoddagi tabiiy jarayondir. Tog‘ay Murod ham jahon va milliy adabiyotimiz bilimdonlaridan biri bo‘lib, xalq hayotini teran tasvirlagan yozuvchidir. O‘zbek adabiyotida hech kimnikiga o‘xshamagan uslubi, shirali, ohangdor tili, kitobxonni uzoq o‘yga cho‘mdiradigan obrazlari, asarlarida ko‘tarilgan mavzu va g‘oyalari bilan o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan. Qisqa, ammo mazmunli umri davomida Tog‘ay Muroddan bebaho asarlar meros qoldi. Tog‘ay Murod ijodi o‘zbek nasri taraqqiyotida alohida o‘ringa ega. “Yozuvchi shaxsiyatiga xos asosiy jihatlarning asarlariga ko‘chishi, milliy ruhga xos belgilarni teran anglash, badiiy ifoda o‘zgachaligiga erishish, jonli til tarovatidan o‘rinli foydalanish hamda koloritli yumorga egalik xususiyatlari adib ijodining betakrorligini belgilagan omillardir”[111]. Shuningdek, jahon va o‘zbek adabiyotini chuqur o‘rganishi, sinchkov nigoh, xalq hayotini teran mushohada etish kabi fazilatlarning adib tabiatida mujassamligi yaratgan asarlarining ta’sirchanligini ta’minlagan omillardan hisoblanadi.

Tabiatda sof holdagi hodisa bo‘lmaganidek, adabiy jarayonda va yozuvchi-shoirlar ijodida ham sof holdagi o‘ziga xoslik bo‘lishi mumkin emas. Shunday ekan, “sof holdagi milliy yoki xalqaro ta’sir ham bo‘lmaydi. Har qanday yuksak iste’dod egasining ijodi haqida o‘zaro adabiy ta’sir nuqtayi nazaridan gapirar ekanmiz, masalaga ikki tomonlama yondashishimizga to‘g‘ri keladi: birinchidan, yozuvchi kimdandir yoki nimadandir ta’sirlanadi, ikkinchidan, uning o‘zi ham boshqalarga ta’sir o‘tkazadi”. Lekin har qanday katta adabiy hodisa yoki buyuk yozuvchi ham o‘z

[110] Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 158.
[111] Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – B. 278.

atrofida ta’sir maydoni yarata olmasligi mumkin[112]. Tog‘ay Murod bebaho asarlari bilan o‘z ta’sir maydonini yarata olgan ijodkor, deb ayta olishimiz mumkin. Asarlari ta’sirli, esda qolarli, kitobxonni uzoq o‘yga toldiruvchi bo‘lib yaratilishi uchun adib ko‘p zahmat chekdi. Tog‘ay Murod umri davomida o‘qish va izlanishdan tinmagan. O‘zi ta’kidlaganidek, o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlargacha uylanmadi, oila qurmadi. Biror idorada faqat tirikchilik uchun ishladi. Faqat bir maqsadni: o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlargacha jahon adabiyotini o‘qishni, qo‘l qotib qolmasligi uchun mayda-mayda hikoyalar mashq etib turishni ko‘zladi. Adib o‘ttiz besh yoshida oila qurdi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldosh “Badiiyat qirralari” maqolasida Tog‘ay Murodning jahon adabiyotini chuqur o‘rganib, uning ta’sirida qolib ketmaganini, jahon adabiyoti ta’siri adib mahoratini oshirishda alohida ahamiyatga egaligi xususida shunday yozadi: “«Men» degan maqolasidan ma’lumki, Tog‘ay Murod ochun adabiyotini chuqur o‘rgangan. Ayrimlar dunyo adabiyotini o‘rgansa, ortiga qaytolmay, o‘rgangan estetik aura ta’sirida qolib ketadi. Tog‘ay Murod esa ochun adabiyotini o‘ziga qaytish, o‘zinikini bo‘rttiribroq ko‘rsatish, milliy ruhiyatni o‘zgalarda ta’sir etadigan qilib tasvirlay bilish uchun o‘rgandi”[113]. Olim Qozoqboy Yo‘ldosh adib bilan shaxsan tanish bo‘lmasa-da, “Men” sarlavhali maqolasi qattiq ta’sir qilganini jurnalist Azim Ro‘ziyev bilan bo‘lgan suhbatida ham ta’kidlaydi: “Tog‘ay Murod bilan tanishishimiz, asosan, kitoblari orqali bo‘lgan. Ayniqsa, romaniga ilova qilingan «Men» nomli so‘ngso‘z qattiq ta’sir qilgandi. Boisi, asarlari siyratini, ichki olamini teran ochib bergan” (kh-davron.uz). Tog‘ay Murod asarlari nafaqat keng kitobxon ommasini, balki qalami va so‘zi o‘tkir olim Qozoqboy Yo‘ldoshni ham ta’sirlantirgan.

Xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir masalasi Yevropa olimlari tomonidan ko‘p yillar davomida, asosan, bir

[112] Қосимов У. Адабий-эстетик тафаккур тадрижи: анъанавийлик, ворисийлик ва ўзига хослик (Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор ва Тоғай Мурод ижоди мисолида). Филол.фанлари д-ри… дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 31.

[113] Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – B. 281

yoqlama – G‘arbning Sharqqa ta’siri asnosida o‘rganib kelindi[114]. Adabiy aloqa va adabiy ta’sir masalasi sof holda uchramaydigan o‘zaro qorishiq holda kechadigan jarayon ekanligini hisobga olsak, adabiy ta’sir, avvalo, bir millatning o‘z milliy adabiyoti, shuningdek, jahon adabiyoti an’analari misolida ham yuzaga chiqadi. Ya’ni adabiy ta’sir masalasini G‘arbning Sharqqa ta’siri tarzida bir yoqlama o‘rganish yuzaki tadqiqotga asos bo‘lishi mumkin. Adabiyotshunoslikda ma’lum bir yozuvchi yoki shoir ijodini milliy va xalqaro adabiy an’analar bilan qiyoslab o‘rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, bunday qiyoslashlar orqali yozuvchining ijodiy mustaqilligi, uning milliy va jahon adabiyoti rivojidagi o‘rni anglab yetiladi. Yozuvchi ijodining o‘ziga xos qirralarini o‘rganishda va anglab yetishda uni boshqa bir ijodkorning o‘xshash asarlari yoki asarlaridagi mushtarak obrazlari bilan qiyoslab tahlil qilish muhimdir. Asarlari ila o‘zbek millatiga haykal qo‘yishni istagan yozuvchi “Otamdan qolgan dalalar” romani va qator asarlari bilan haykal qo‘ydi. Tog‘ay Murodning muxlislaridan biri Karimberdi To‘ramurod adib asarlarini o‘qib, ulardan ta’sirlanib, adib tavalludining yetmish yilligiga bag‘ishlab “Kechikish”[115] essesini yozdi. Esse she’riy usulda bo‘lib, unda Tog‘ay Murod uslubi, ohangini va muallifning Tog‘ay Murod asarlaridan to‘lqinlanib, ta’sirlanganini anglash mumkin. Adib Said Ahmad Tog‘ay Murod ijodiy mahoratiga yuqori baho bergan ijodkorlardan biridir. Ko‘p hollarda ustozlar ijodidan shogirdlar bahramand bo‘lib, asarlaridan ta’sirlanib, ba’zi o‘rinlarda badiiy asar qahramonidan zavqlanib ilhomlanadi. Tog‘ay Murod noyob iste’dod egasi ediki, kezi kelganda ustoz ijodkorlar ham adib asarlari va qahramonlari xususida to‘xtalib ularni e’tirof etadi. Chunonchi, Said Ahmad Tog‘ay Murodning “Momo yer qo‘shig‘i” qissasidagi serjant Orziqulov haqida: “…Masalan, qissada original bir obraz bor, badiiy baquvvat bir obraz. Men serjant Orziqulov obrazini nazarda tutayapman.

[114] Қосимов У. Адабий-эстетик тафаккур тадрижи: анъанавийлик, ворисийлик ва ўзига хослик (Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор ва Тоғай Мурод ижоди мисолида). Филол.фанлари д-ри… дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 27

[115] Xabar.uz internet sayti.

Serjant Orziqulov oʻzbek adabiyotida mutlaqo yangi obraz”[116], – deya fikr bildirgan. Togʻay Murodning “Momo yer qoʻshigʻi” qissasi qahramoni serjant Orziqulov va Said Ahmadning “Qorakoʻz majnun” hikoyasi qahramoni Boʻrixon obrazlari ifodasida quyidagi mushtarak jihatlarni kuzatishimiz mumkin: “Qorakoʻz majnun” hikoyasida Boʻrixon armiya xizmatiga ketib, oʻttiz yildan oshiqroq muddatda qaytishi oqibatida oʻz tilini unutib, oʻylab-oʻylab jigarlariga “Salyam” deya olishi yoki:

“Qassob shunday deb qoʻyning boʻgʻziga pichoq tortdi.

– Ну зачем, зачем? – dedi Boʻrixon. – Ведь барана жалко, все равно я столько мяса не ем! У нас баранину не едят”[117] tasvirlari va Togʻay Murodning “Momo yer qoʻshigʻi”da:

“Odamlar davra boʻldi. Hol-ahvol soʻra-soʻra boʻldi. Askar bosh irgʻadi. Loʻnda-loʻnda javob berdi:

– Да! Ничего! Спасибо!

Askar davraga alangladi. Onasidan soʻradi:

– Мамаша, где папаша?” –[118] deya oʻz ona tilida emas, ruscha soʻzlashlari, ikki onaning ham oʻgʻillarini kutishi, qoʻni-qoʻshni, qarindosh-urugʻning jigarlarini kutib olish ifoda yoʻsinida ikki ijodkor ijodida mushtaraklik kuzatiladi. Albatta, avvalo, bu voqelik hayot hodisasi sanaladi. Bir qaraganda, oʻzga yurtga ketib, u yerda uzoq yillar yashagan Boʻrixon ona tilini unutishi mumkin va rus tilida soʻzlashi tabiiy holdek tuyuladi. Biroq serjant Orziqulov harbiy xizmatga ikki yilga ketib, ikki yildan soʻng uyiga qaytadi va ota-onani hayron qoldirib, rus tilida soʻzlashi Togʻay Murod talqinida yumoristik tarzda oʻz aksini topadi. Adib Said Ahmadning serjant Orziqulov haqida bildirgan fikrlarini inobatga olgan holda fikr yuritadigan boʻlsak, “Qorakoʻz majnun” hikoyasida Boʻrixonning uyiga qaytib, onasi va qarindoshlari bilan soʻzlashish oʻrinlarini ifodalashda adabiy ta’sirdan ilhomlangan boʻlishi va uni oʻz yangiliklari bilan boyitgan boʻlishi mumkin. Iste’dodli yozuvchi Nosir Fozilov Said Ahmad bilan boʻlgan suhbatlarida Togʻay Murod va Said Ahmad ijodiy aloqasini

[116] Togʻay Murod. Momo yer qoʻshigʻi. – Toshkent: Nurafshon – kitob ta’minot, 2022. – B. 7.
[117] Said Ahmad. Qorakoʻz majnun. – Toshkent: Sano-standart, 2016. – B. 96
[118] Togʻay Murod. Momo yer qoʻshigʻi. – Toshkent: Nurafshon – kitob ta’minot, 2022. – B. 10.

shunday izohlaydi: “Bir mahallar shunaqa bo‘ldiki, ustoz Said Ahmad «Jimjitlik» romanini boshlaganida (bu asarda ot haqida, uning fe’l-atvori haqida gap borar edi), ustoz mendan ot haqida maslahat oldi. Kunlardan birida uyushmada ko‘rishib qolib: «Men ot haqida yaxshi biladigan zo‘r maslahatchini topdim», deb maqtanib qoldi. «Kim ekan u zo‘r?!» – deb so‘rasam, Tog‘ay Murodni aytdi. Buni qarangki, ustoz qanchalik katta yozuvchi bo‘lmasin, baribir u kishi shaharlik-da. Tog‘aydan maslahat olibdi. Buning hech aybi yo‘q. Yozuvchi ko‘rgan narsasi haqida yozsa ta’sirliroq chiqadi. Bu ayni haqiqat. Ot haqida ustoz muayyan tasavvurga ega bo‘lmasligi tabiiy, lekin u odamlar haqida va ularning o‘zaro muloqotlari haqida qalam tebratganda ustasi farang bo‘lib ketadi. Ustozimiz Said Ahmadki, undan o‘rganibdimi, demak, Tog‘ay ham ma’lum ma’noda ustoziga ustozlik qilibdi”[119].

Ma’lumki, Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasida Hamidaning savollariga adabiyot fani muallimi Boqijon Baqoyev o‘z bilganicha javob beradi. Chexov va Pushkinni bir davr ijodkorlari sanagan vaqtda ziyrak Mukarram maktabida Chexov va Gorkiyning birga tushgan surati borligini aytganida, Boqijon Baqoyev biroz o‘ng‘aysizlanib: “Sizlar qaysi Chexov to‘g‘risida gapirayotibsizlar? Choydan quy!.. Bu Chexov haqidami? To‘g‘ri, bu 1904-yilning birinchi yarimidami, ikkinchi yarimidami o‘lgan… Boshqa ro‘molcha ber, bundan piyoz hidi kelayotibdi. Men ana u Chexov, ilk burjuaziya realizmining namoyandasi bo‘lgan Chexov haqida so‘zlayotibman”[120], – deydi. Tog‘ay Murodning “Momo yer qo‘shig‘i” qissasida Daho va uning do‘stlari tabiat qo‘ynida dam olmoqchi bo‘lib yig‘ilganlarida Daho va shoirlar o‘rtasida shunday suhbat bo‘ladi:

“Shoirlar shu bahona o‘zlarini ko‘z-ko‘z qilgisi keldi. Kimlarni o‘qishlarini bildirgisi keldi.

– Kafka.

– Kamyu.

– Prust.

Shoirlar bir-birlari sog‘lig‘i uchun qadah ko‘tardi.

[119] Ma’suma Ahmedova. Men qaytib kelaman. – www.ziyouz.com – B. 26.

[120] Abdulla Qahhor. Hikoyalar. – Toshkent. – B. 54.

– Joze Mariya!
– Keyrosh!
– Iya, salomat boʻlsinlar, ikkovi bitta odam-ku!
– Ha, Saltichkov Shcherdin deganday gap-da!
– Shundaymi? Uf-f, kayfim oshdi…

Daho oʻzini mastlikka olib yonboshladi. Uyatdan koʻzlarini yumib mudradi". Ikki asarda ham qahramonlar[121] oʻz sohasini yaxshi bilmaganliklaridan notoʻgʻri boʻlsa-da, javob berishadi. Ikkisi ham badiiy adabiyotga aloqador shaxslar. Ammo Boqijon Baqoyevning ham, Dahoning ham tabiatida ilmga, ijodga nisbatan beparvolik bor, xato soʻzlaganda undan uyalish oʻrniga biri odamlarni chalgʻitishga urinsa, ikkinchisi aybini aroqqa agʻdaradi. Togʻay Murod ham Said Ahmad singari yozmoqchi boʻlgan mavzusini chuqur oʻrganadi, izlanadi. Ustozlari, tengqur ijodkorlardan maslahat soʻraydi, fikr almashadi. Asarlardan taʼsirlanadi. Ijodiy niyati yetilib boʻlgandan keyingina asar yozishga qoʻl uradi.

Folklorshunos olim Toʻra Mirzayev bu haqda shunday eslaydi: "Adibning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi adabiyotshunoslikda ijobiy baholandi. Bu holat yosh yozuvchini yangi-yangi ijobiy marralarga yoʻllagani shubhasiz. Yangi asarlariga materiallar toʻplash maqsadida u boʻlimga yana kelib qoldi. Bu gal uni folklorda otning tasvirlanishi masalalari qiziqtirayotgan edi. Yozuvchi atoqli folklorshunos Hodi Zarifning (1905–1972) «Oʻzbek xalq dostonlarida jangovar ot obrazi», «Ot asboblari» tadqiqotlari bilan tanishib chiqdi. Unga jangovar ot tarbiyasi, uning turli holatlari tasvirlangan «Alpomish», «Goʻroʻgʻlining tugʻilishi va bolaligi», «Xushkeldi» kabi dostonlarni sinchiklab oʻqishni maslahat berdik. Suhbatlarimiz davomida kutilmaganda: «Otlar ham yigʻlaydimi?» – deb soʻrab qoldi. Biz unga xalq orasida ot bilan bogʻliq turli-tuman tasavvur va afsonalar koʻpligi, hatto ot egasi vafot etganda, otni egar-abzallab, egasining etigini egar qoshiga ilib, ayollarning otni oʻrtaga olib yigʻi berish odatlari mavjudligini, folklor asarlaridagi shunday holatlarda otning

[121] Togʻay Murod. Momo yer qoʻshigʻi. – Toshkent: Nurafshon – kitob taʼminot, 2022. – B. 108.

yig‘laganligi tasvirlarini so‘zlab berdik. Shundan keyin yozuvchining «Ot kishnagan oqshom» qissasi paydo bo‘ldi”[122].

Tog‘ay Murod Abdulla Qodiriy asarlarini sevib mutolaa qilgan. Qodiriy asarlari ta’siri uning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Qissada Qoplon do‘konga kirganida, sotuvchi qiz undan qaysi kitob kerakligini so‘raganida qissa qahramoni bergan javob o‘quvchini ham “O‘tkan kunlar”dan, ham “Oydinda yurgan odamlar”dan ta’sirlantiradi.

Otamiz eshitgan-bilgan kitoblarini bir-bir yodga oldi.

– Shu, Kumushbibidan bormi? – dedi.

– Qanaqa Kumush?

– Haligi, marg‘ilonlik Kumushbibi.

– Yozuvchimi?

– E, yog‘-e, haligi… Otabekning qaylig‘ichi?

– Ha-a, “O‘tkan kunlar” deng. Bor, bor.

– Shundan ber, Kumushbibidan ber.

Qiz kitobni topib keldi.

– Otabek kerak emasmi? – deya jilmaydi.

– Kumushbibi qayerda bo‘lsa, Otabek-da shu yerda bo‘ladi-da[123].

Said Ahmad “Tog‘ay Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirsangiz ham, o‘zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham boshqa xalqqa umuman o‘xshamaydi”, degan gapni juda topib aytgan. Mana shu milliy ruhni, mentalitet va o‘zbekona kayfiyatni asarlarida bera olish uchun, tabiiyki, adib xalqning fikrlash yo‘sini, his etish tarzi, badiiy-falsafiy tafakkuri manzaralarini yaxshi bilishi, undan unumli foydalanishi kerak bo‘ladi. Tog‘ay Murodning o‘ziga xos uslubida xalq og‘zaki ijodi (doston, maqol, ertak, tez aytish) va, qolaversa, mumtoz adabiyotimiz an’analari, mashhur turkiy bitiklar ifoda yo‘sinining o‘zaro uyg‘unlashib ketishini ko‘ramiz. Masalan, “Saraton balolardan sariq bo‘ldi, balolar saratondan-da sariq bo‘ldi” jumlasida mumtoz she’riyatimizga xos tardi aks

[122] Ma’suma Ahmedova. Men qaytib kelaman. www.ziyouz.com. – B. 17.

[123] Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Nurafshon – kitob ta’minot, 2022. – B. 82.

san’ati qo‘llangan. “Qizillar qulog‘i qirqta bo‘ladi” satrida uchraydigan alliteratsiya – tovushlar tovlanishi ham she’riyatga xos. Shuningdek, tez aytishlar shu san’at asosiga quriladi. Shoir Yo‘ldosh Eshbek aytganidek, Tog‘ay Murodning asarlari proza emas, poeziya.[124] Tog‘ay Murod she’riyatni ham sevgan, uning ta’sirida shoirlarning she’rlarini ham tahlilga tortgan. O‘zbek she’riyatida Mirtemir ijodiga havasi baland bo‘lgan. Bu haqda “Men qaytib kelaman” kitobiga Mirpo‘lat Mirzo tomonidan yozilgan maqolada: “Men ba’zan Tog‘ayga qoralamalarimni o‘qib berganimda, u fikrini lo‘nda qilib aytar, keyin: «Mirtemirni o‘qish kerak, Mirtemirni! Ana u – haqiqiy shoir!» – deya, yoddan uning she’rlaridan parchalar o‘qirdi. Men shunda uning she’riyatni nozik tushunishiga hayron qolardim”, – deydi[125]. Shuningdek, Tog‘ay Murodni mumtoz adabiyotimiz bilimdonlaridan biri, deb hech ikkilanmay ayta olamiz. Bilamizki, Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida odam yaratilgandan so‘ng, uning ustiga o‘ttiz to‘qqiz kun quvonch yomg‘iri va bir kun g‘am yomg‘iri yog‘ganligi haqida ma’lumotlar berilgan. Tog‘ay Murodning “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida ham bu voqealar tasvirlangan. Aytish mumkinki, Tog‘ay Murod mumtoz adabiyotimizni izchil o‘rgangan. Bizningcha, mumtoz adabiyotimiz ta’siri adib asarlarida ham sezilarli o‘rin olgan va asarlari milliyligi darajasini belgilashda o‘ziga xos o‘ringa ega, deyish mumkin.

Badiiy adabiyot ijtimoiy hayotga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Bugungi kunda milliy kurashimiz jahon sporti darajasiga ko‘tarildi. Milliy kurashimizning shu darajaga erishishida Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasining ham o‘z o‘rni va ta’siri bor. Agar yozuvchining o‘zi shaxs bo‘lmasa, u yaratgan asarlar ham biror qiymatga ega bo‘lmaydi. Tog‘ay Murod asarlari uning shaxsini ko‘rsatib turadi. Tog‘ay Murod asarlarining yaratilishida adabiy aloqadorlik, adabiy ta’sir alohida o‘ringa ega. Adib ko‘p o‘qib-izlanishi, ustoz ijodkorlar bilan fikr almashib, ular bergan maslahatdan unumli foydalanib, tavsiyalarini o‘rganib, ilg‘or adabiy an’analar: adabiy aloqadorlik va adabiy ta’sir

[124] Ma’suma Ahmedova. Men qaytib kelaman. www.ziyouz.com. – B. 11.
[125] Yuqoridagi manba. – B. 53

jarayonlarini chuqur tahlil etib, bebaho asarlar yaratdi. Shu sababli ham Said Ahmaddek qalami o‘tkir ijodkor Tog‘ay Murod bilan fikr almashdi, asarlariga yuqori baho berdi.

3.2-§. A.Qodiriy, A.Qahhor, A.Muxtor, Tog‘ay Murod ijodiy an’analari va badiiy mahorat saboqlari

Jahon adabiyotshunosligida adabiy ta’sir masalasi ham muhim muammolardan biri sanaladi. Ayniqsa, vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyingi davr adabiy ta’sir masalasi yuzasidan to‘g‘ri xulosalar chiqarishni, adabiy ta’sir mazmun-mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borishni, tadqiq va tahlil etishni taqozo qilmoqda. Dunyo adabiyotshunosligida, xususan, adabiy ta’sir masalasi muammosiga badiiy-estetik kategoriya sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Zero, adabiy ta’sir masalasidagi muammolarga yechim topish, ijodiy ta’sir jarayonini to‘g‘ri baholash san’atkor iste’dodini yuzaga chiqarishda, ijodkorlarning adabiy-tarixiy jarayondagi o‘rnini ko‘rsatishda asosiy omillardan biri sanaladi. Adabiy ta’sir masalalari tadqiqida Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod ijodiy an’analari hamda badiiy mahorat saboqlari ahamiyatli sanaladi, chunki ijodkorlarning ijodiy jarayon, badiiy olam, ijod sirlari haqidagi va o‘z tajribalari asosida to‘plagan fikr-mulohazalari adabiyotshunoslik ilmida adabiy ta’sir yuzasidan to‘g‘ri xulosalar chiqarishga, san’atkor va ijodiy ta’sir masalalarini asoslashda alohida o‘ringa ega.

Ma’lumki, adabiy-tarixiy jarayonga san’atkorlar faoliyati o‘z ta’sirini yoki aksincha, adabiy-tarixiy jarayon san’atkorlar ijodiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Adabiy-tarixiy jarayon, umuman, ancha murakkab tushuncha, u o‘z ichiga talay masalalarni, jumladan, novatorlik, badiiy yo‘nalish va oqimlar, metod va uslub, mavzular, janrlar rivoji, san’atkor dunyoqarashi va ijodiy faoliyatidagi o‘zgarishlar evolyutsiyasini oladi[126]. Adabiy ta’sir bu evolyutsiyaga har qaysi davrda ham o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Ya’ni muayyan talant sohibining ijodiy takomili asosida badiiy adabiyotning u yoki bu yo‘nalishi yanada rivojlanmoqda.

[126] Алиев А. Адабий мерос ва замонавийлик. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 1983. – Б. 7.

Ijod jarayonida har qanday yozuvchi oʻzga sanʼatkor taʼsirini his etmasligining iloji yoʻq. Binobarin, uning asarlari oʻzi yashab turgan zamon talablariga javob berishga intilishning natijasi oʻlaroq paydo boʻladi. Ijod jarayonida sanʼatkorga taʼsir koʻrsatadigan birlamchi narsa tashqi muhitdir. Uning taʼsirida yozuvchi voqelikni idrok etadi va muayyan bir shaklda aks ettiradi. Bu har bir sanʼatkorning adabiy jarayon bilan sodir boʻladigan munosabati va bir-biriga koʻrsatadigan taʼsiridan kelib chiqadi. Adabiy hayotda bunday jarayondan chetda qoladigan hodisa boʻlmaydi. Shuning uchun ham adabiy jarayonni adabiy hayotda ishtirok etgan oʻnlab yoki yuzlab ijodkorlar birgalikda yaratadi. Demak, har bir yozuvchiga oʻzidan avvalgi buyuk yozuvchilar ijodi ham, zamondosh yozuvchilar ham maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadi. Binobarin, bu taʼsirlar yozuvchi ijodiy faoliyatida roʻy beradigan yangilikka – novatorlikka turtki boʻladi[127].

Adabiy-tarixiy jarayonning yana bir muhim xususiyati shundaki, har bir xalq adabiyoti, eng avvalo, oʻzining milliy oʻziga xos xususiyatlarini, fazilat va nuqsonlarini, urf-odatlarini aks ettiradi. Biroq bu har bir adabiyot faqat shu bilangina cheklanib qolishi kerak, degani emas. Har qanday adabiyot boshqa xalqlar adabiyoti bilan maʼlum aloqalar jarayonida rivojlanadi. Bunda, shubhasiz, koʻproq rivojlangan adabiyot boshqasiga oldinroq taʼsir koʻrsatadi. Bu jarayon ham har bir xalq adabiyotida oʻziga xos yoʻl bilan kechadi. Chunonchi, Muso Toshmuhammad oʻgʻli Oybek endigina adabiyot olamiga kirib kelganida Gorkiy asarlarini zavq-shavq bilan oʻrganganini oʻzining M.Gorkiyga atab yozgan “Hurmatim cheksiz” maqolasida eslab oʻtar ekan, rus adabiyotining oʻz ijodiga taʼsiri yuzasidan quyidagicha fikrlarni bildiradi:

“U vaqt sheʼrlar, dostonlar yozardim, sekin-sekin prozaga orzu-havas oshardi koʻnglimda, chunki yoshligimdan bilgan ertaklar, choʻpchaklar, Oʻzbekistonda u zamon chiqqan birmuncha kitoblar, hikoyalar, ayniqsa, bolaligimda oʻzbek xalqi turmushi xotiralari menga koʻp taʼsir qilgan edi. Men proza sohasida qiziqib, oʻrganchiq mashqlar bilan mashgʻul boʻldim. Lev Tolstoy, Turgenev asarlaridan ham taʼsirlanar edim, lekin, asosan, Gorkiy

[127] Алиев А. Адабий мерос ва замонавийлик. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 1983. – Б. 19.

asarlari menda chuqur ta’sirli iz qoldirgan edi. Gorkiy asarlarini mukammal o‘rganib, hazm etdim, singdirdim va Gorkiyning asarlari xazinasidan olgan saboqlarim yordami ila o‘zim proza sohasida yo‘l topdim, “Qutlug‘ qon”, “Navoiy”, “Oltin vodiydan shabadalar” asarlarimni yaratdim”[128].

Oybekning bolaligida eshitgan ertaklari, ko‘rgan hayot manzaralari va rus adabiyoti ta’sirini uning yetuk ijodkor bo‘lib yetishishidagi yetakchi sabablar sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Adabiy ta’sir keng qamrovli bo‘lib, unda aynan bir xalq adabiyotining ta’siri nazarda tutilmaydi, balki ijodkor shaxsiy hayoti va kechinmalari ham alohida ahamiyatga ega bo‘lishi, ma’lum asardan ta’sirlanganda yana ko‘plab o‘z o‘y-kechinmalari, xotiralari asosida ta’sir jarayoni san’atkor qalbida boyib borishi mumkin. Ijodiy ta’sir jarayoni har bir ijodkor ongida o‘ziga xos tarzda amalga oshadigan jarayondir. Yuksak talant egalari tashqi muhitdan tez ta’sirlanishi mumkin. Sababi ular oddiy odamlar ilg‘ay olmaydigan haqiqatlarni tez anglab olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Hammaga ayonki, badiiy talant tug‘ma bo‘ladi, agar odamda badiiy ijodkorlik xislatlari bo‘lmasa, uni tarbiya, o‘qitish yo‘li bilan hosil etish aslo mumkin emas. Biroq shu tug‘ma talantli kishidagi iste’dod qirralarining ochilishida tevarak-atrofdagilarning, muhit, sharoitning roli juda katta[129].

Abdulla Qahhorning “Yoshlar bilan suhbat” to‘plamida yosh ijodkorlar asarlarining o‘ziga xos yutuq va kamchiliklari ko‘rsatilgan maqolalar jamlangan bo‘lib, adib ushbu maqolalarida yosh iste’dodli ijodkorlarning ayrim asarlarini tahlil qilish, ularda uchragan qusurlarni ko‘rsatib o‘tish bilan birgalikda bu muammolarga yechimlarni ham beradi. Masalan, adibning “Soxtagarchilik” sarlavhali maqolasida spektaklning tomoshabinga ta’siri xususida so‘zlaydi va qachon va qanday hollarda badiiy asar ta’sirining yo‘qolishiga oid fikr-mulohazalarini bayon etadi: “Faraz qilaylik, bir spektaklda o‘tiribmiz. Sahnada 70–80 yashar bir chol biron yovuz qo‘li bilan o‘ldirilgan o‘g‘lining tobuti ustida faryod

[128] Қаюмов Л., Иноғомов Р. Устоз. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1968. – Б. 71.
[129] Erkin Vohidov. Iztirob. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – B. 332.

chekayotibdi. Biz, albatta, ta’sirlanamiz, cholning qayg‘usiga qo‘shilamiz, yovuzga nisbatan qattiq dushman kayfiyatida o‘tiramiz. Bordi-yu, shu paytda «chol» (aktyor)ning soqoli tushib ketsa nima bo‘ladi? Hech shubhasiz, shu kartinaninggina emas, butun spektaklning ta’siri yo‘qoladi. Holbuki, agar cholning soqoli grim ekanini o‘zimiz yaxshi bilganimizni e’tiborga olsak, soqolning tushib ketishi anchayin bir qusur.

Mana shunga o‘xshash hikoya, qissa, roman va, umuman, hamma janrda bo‘lgan, muallif tomonidan kiritilgan soxta detal, hatto bir so‘z ham butun asarning ta’sirini yo‘qotadi[130].

Ayrim mualliflar o‘z asarlarida bo‘lgan bu xildagi soxtaliklarga sabab qilib o‘zlarining yoshliklarini, tajribasizliklarini pesh qiladilar. Fikrimizcha, bunday aybni “yoshlik”, “tajribasizlikka” to‘nkab bo‘lmaydi. Bu beparvolik kitobxonni hamisha ko‘z oldida tutmaslik, mas’uliyat his qilmaslikning natijasidir. Yozuvchining birpas ham kitobxonni unutishga haqqi yo‘q”.

Abdulla Qahhor o‘ziga nisbatan juda talabchan san’atkorlardan biri. So‘zni behuda isrof etmaydigan adib o‘z zamonasida ham yosh ijodkorlarning asarlariga befarq qarab turolmaydi. Mazmunli asar bo‘lsa, qutlashga shoshiladi. Saviyasiz asar yozgan shogirdlariga ijod jarayonidagi kamchiliklarni ko‘rsatib, o‘z maslahatlarini ayamaydi. Ijod sirlari, mahorat saboqlarini berishdan charchamagan.

O‘zbek adabiyotining ulug‘ adibi Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida “Kiyiksovdi momo” ziyoratgohiga Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon tashrif buyurishgani hamda bu ziyoratgohga oid rivoyat yuzasidan Abdulla Qodiriy Cho‘lponga qimmatli tavsiyalar bergani xususida ma’lumotlar bor. Tarixchi Alaviya 1927-yilda bu maqbarani ziyorat qilgani kelganida Abdulla Qodiriy va Cho‘lponni shu yerda uchratganini aytadi:

“O‘sha kelganimda “Nomoz o‘g‘ri” romaniga material yig‘ib yurgan Abdulla Qodiriy bilan shoir Cho‘lponni shu yerda uchratganman. Qodiriy Cho‘lponga shunday degan edi: «Abdulhamid, shu rivoyatni bir doston qilmaysizmi? Juda o‘qishli bir narsa bo‘lardi. Rivoyat – nasrdan ko‘ra nazmga yaqin. Siz buni juda eplardingiz. Qadim afsonalardagi Kleopatralarni yozdingiz.

[130] Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 53.

Bu undan yaxshi chiqadi. Insonning tabiat bilan birligi, jonivorlar bilan doʻstligi toʻgʻrisidagi bu doston yoshlarimizga tabiatni gʻorat qilish emas, uni avaylash, unga mehr qoʻyishni oʻrgatardi». Choʻlpon Qodiriyning bu iltimosini bajonidil qabul qildi. «Agar oʻrni kelib qolsa, men ham yangi romanga kiritishga urinib koʻraman. Shu joylarga Namoz botirni olib kelaman», – dedi Qodiriy".[131]

Bu kabi manbalardan bilishimiz mumkinki, Abdulla Qodiriy Choʻlpondek iste'dodli san'atkorga ham oʻz adabiy maslahatlarini bergan, ijodiy izlanishlar olib borgan, fikr almashishgan, ijodiy aloqada boʻlishgan. Va ayni damda bu maslahatlar hozirgi avlod uchun ham dasturulamal vazifasini oʻtaydi. Abdulla Qodiriy shunday yozadi: "Soʻz soʻzlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining oʻzigina tushunib boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi boʻlgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir. Bundan boshqa, fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan soʻz va jumlalarga yozuvchi aslo oʻrin bermasligi lozim"[132].

Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini bir butunlikda oʻrganish, hayotiy haqiqatning badiiy voqelikka aylanish jarayonini, ijodkor hayotida sodir boʻlgan voqealarning adib tafakkuriga ta'siri hamda ijodida aks etishini tadqiq etish adabiyotshunoslik oldidagi muhim masalalardan biridir.

Abdulla Qodiriy adabiyot, badiiy ijod qonuniyatlarining bilimdoni boʻlib, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda oʻziga xos mahoratiga egaligi, ilmiy-estetik qarashlari bilan ajralib turadigan adiblarimizdandir. Abdulla Qodiriy ijodida an'ana va ijodiy ta'sir omillarini badiiy asarlarining koʻplab oʻrinlarida kuzatishimiz mumkin. Jumladan, adibning "Mehrobdan chayon" romanining "Baxmalbofda faqir bir oila" deb nomlanuvchi faslida Anvarning dunyoga kelishi va unga ism qoʻyilishi haqida shunday hikoya qilinadi: "Anvarning «chillasi charogʻ koʻrmagan» boʻlsa hech borki yoʻqdir, biroq yigirma kunlab beshikda ismsiz yotishi qiziqdir, chunki yangi "qadrlik mehmon"ga ot qoʻyish na otasining

[131] Said Ahmad. Jimjitlik. – Toshkent: Sano-standart, 2024. – B. 140.
[132] Анорбоев С., Қўшжонов М. Бадиий ижод ҳақида. – Тошкент, 1960. – Б. 203.

esiga va na onasining xotiriga kelgan edi. Oradan yigirma kun o‘tsa-ku, bolag‘a ism qo‘ymasalar, deb ota-onani ayblash og‘ir. Balki Salim bo‘yoqchining tiriklikdan qo‘li bo‘shamag‘andir”[133].

“Mehrobdan chayon” romanini qayta va qayta o‘qigan kitobxon har safar shu o‘rinlarni o‘qiganida ta’sirlanishi tabiiy bir holdir. Buning sababi esa adib hayotiy materialni romanida mahorat bilan qo‘llay olganidadir. Hozirgi davrda o‘zbek xonadonlarida ko‘p hollarda chaqaloqning dunyoga kelishi bir bayramdek gap. Unga tug‘ilishidan avvalroq yaxshi niyatlar ila ism topib qo‘yuvchi ota-onalar anchagina. Shu sababli ham Anvarning yigirma kunlab ismsiz qolishi o‘quvchini ajablantiradi.

Sherkon Qodiriyning “Qodiriyni qo‘msab” yodnomasida Abdulla Qodiriyning ikkinchi o‘g‘li Mas’ud Abdullayev xotiralari o‘rin olgan bo‘lib, unda yozilishicha, yozuvchining o‘g‘liga u ikki oylik bo‘lganida ism qo‘yilgan ekan: “Dadam qamoqdan chiqqunlariga qadar men ismsiz yotavergan ekanman. Dadam 1926-yil 12-iyunda qamoqdan chiqib, meni ikki oyligimda birinchi bor ko‘rgan ekanlar. Ehtimol, ozodlikka chiqqanlaridan xursand bo‘lib menga Mas’ud deb ism qo‘ygandirlar[134]”.

Ma’lumki, Abdulla Qodiriy “Mushtum” jurnalida e’lon qilingan “Yig‘indi gaplar” maqolalaridan so‘ng 1926-yil qamoqqa olinadi. Mas’ud Abdullayev esa 1926-yil 12-aprelda dunyoga keldi. Balki, Abdulla Qodiriyning oila a’zolari adibning qamoqdan qaytib o‘g‘liga ism qo‘yishlarini kutgani uchun chaqaloqqa ikki oyligida ism qo‘yilgandir. Chunki katta o‘g‘li va qizlariga ham adibning o‘zi ism qo‘yganligi ushbu yodnomada ta’kidlangan.

Bizningcha, ushbu hayotiy material, ya’ni Mas’ud Abdullayevning dunyoga kelishi va bir muddat ismsiz qolishi “Mehrobdan chayon” romanida Anvar obrazining dunyoga kelishini tasvirlashiga turtki bo‘lgan bo‘lishi, yozuvchi boshiga tushgan tashvishdan va qamoqdan qaytgach, ikki oylik farzandiga ism qo‘yish onlaridan qattiq ta’sirlangan bo‘lishi mumkin.

Adabiyot va san’atdagi asosiy ijodiy metodlardan biri realizmdir. Tadqiq qilish, hayotni estetik o‘zlashtirish, badiiy

[133] Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 46
[134] Sherkon Qodiriy. Qodiriyni qo‘msab. – Toshkent: Xalq merosi, 1994. – B. 24

ifodalash va baholash usulining bir-birini to‘ldiruvchi belgilari: voqelikni aks ettirish, hayotni tipiklashtirish, asar g‘oyasini tashuvchi obrazlarni qiyoslab, rivojini ko‘rsatish, hayot hodisalarini tanlash va baholash, voqelikni qayta yaratish muhim estetik tamoyillardir[135].

Adabiy ta’sir yangi, o‘z davri talablariga javob beruvchi yuksak san’at asarlarining vujudga kelishiga imkon yaratishi mumkin[136]. Adabiy ta’sirning turli ko‘rinishlari ijodkorlarning ijodiy o‘sishiga ko‘makdosh bo‘la olishi bilan ahamiyatlidir.

Qahhorshunos olimlarimizdan biri U.Qosimov “Adabiy-estetik tafakkur: Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Tog‘ay Murod” nomli monografiyasida: “Alisher Navoiy ijodi va hayotbaxsh adabiy-estetik an’analari ko‘plab shoir-yozuvchilarimiz tomonidan ijodiy davom ettirilayotgani va ular bugun ham tuganmas ilhombaxsh manba, yuksak badiiy mahorat namunasi bo‘lib xizmat qilayotgani ko‘p asrli adabiyotimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz tadrijini o‘rganishda ham muhim bosqich bo‘lishi shubhasizdir. Navoiyning benazir shaxsi, ulkan iste’dodi va beqiyos haqgo‘yligi ifodalangan asarlari millatparvar jadid adabiyotimizga, ayniqsa, Qodiriy va Qahhor kabi keyingi davr adiblari ijodi va ijtimoiy-estetik pozitsiyasiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatganligi ayni haqiqatdir”, – deya ta’kidlaydi.

Abdulla Qodiriy hazrat Alisher Navoiy ijodidan bahramand bo‘lish bilan bir qatorda o‘z zamonasining ilg‘or yozuvchilari uslubiga ham o‘zining xolis munosabatini bildirgan. Xususan, XX asr o‘zbek adabiyotining iste’dodli adiblaridan biri Fitrat Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romaniga muharrirlik qilish nashriyot tomonidan taklif etilganida: “Xo‘p, Julqunboy asariga qalam urib buzib bergin desanglar, marhamat tahrir qilay”, – deya Abdulla Qodiriy romaniga yuksak baho bergan bo‘lsa, Xondamir Qodiriy tomonidan nashrga tayyorlangan “Adabiyot – badiiyat abadiyat” nomli xotiralar, badialar, maqolalar to‘plamida Abdulla Qodiriy ham zamondoshi Fitrat domla ijodini quyidagicha

[135] Тошмуҳаммедова Л. Абдулла Қодирийнинг адабий-эстетик қарашлари. Филол.фан. доктори дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 15

[136] Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С., Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б. 15.

baholagan: “Fitratning «Qiyomat» nomli kitobini oʻqib oʻtirgan edim. Dadam kitobni qoʻlimdan olib, undan bir necha satr oʻqidilar va dedilar: «Buni qara jumlalari qanday ixcham, pishiq tuzilgan, undan biror soʻzni ololmaysan ham, qoʻsholmaysan ham». Ketidan bolalarga xos maqtanib: «Mening ham tuzgan jumlalarimga biror soʻz qoʻshib yoki olib oʻzgartirib koʻr-chi, qilolmaysan…», deb faxrlanib qoʻydilar”[137].

Ijodkorlar dunyoni boshqalardan farqli ravishda oʻzgacha nigoh orqali koʻradi, his qiladi. Vatanga boʻlgan muhabbat hissi ijodkorning qoʻliga qalam olishiga va ijod etishiga sabab boʻlgan oʻrinlarni ham koʻplab uchratishimiz mumkin. Abdulla Qahhor oʻz asarlarining yaratilish tarixi masalasiga toʻxtalib, shunday deb yozadi: “Tabiatni oʻzgartirish, yangi yerlar ochish temasi meni juda qiziqtirdi, obod kolxoz, qishloqlarda yurib, boʻlayotgan bu ulugʻvor ishlarni oʻz koʻzim bilan koʻrdim. Menda shu ishlarni qilayotgan odamlarni koʻrsatish orzusi tugʻildi. Shuning natijasida «Shohi soʻzana» pyesasi maydonga keldi”[138].

A.Qahhor jonli xalq tilidan badiiy asarda qanday foydalanish, asar gʻoyasini ochib berish, voqelikni tasvirlash uchun qanday qilib muvaffaqiyatli ishlatishni oʻzbek klassik adabiyotidan, ayniqsa, ulugʻ rus adabiyotining klassiklaridan oʻrgandi, ularga ergashdi hamda ularning bu sohadagi boy tajribasini yangi sharoit va vaziyatlarda davom ettirdi va rivojlantirdi[139].

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy hamda Abdulla Qahhor ijodida adabiy ta’sir omillari turli koʻrinishda namoyon boʻladi. Hayotiy voqealardan ta’sirlanish, adiblar ijodini sinchkovlik asosida tahlil qilish, ustoz adiblar ijodini chuqur oʻrganish, davrni va unda boʻlayotgan oʻzgarishlarni kuzatish va ularga nisbatan munosabat bildirish, bu kabi voqeliklardan ta’sirlanish natijasida koʻplab badiiy asarlar yaratildi.

Togʻay Murod “Tanlangan asarlar”ining III jildidagi “Kundalikda qolgan bitiklar” qismida “Yozuvchilik siri nimada, aytaymi?” sarlavhali bitik ulugʻ ijodkorlar fikrlaridan olingan

[137] Xondamir Qodiriy. Adabiyot – badiiyat abadiyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 5.
[138] Абдусаматов Ҳ. Абдулла Қаххор. – Тошкент, 1960. – Б. 23.
[139] Абдусаматов Ҳ. Абдулла Қаххор. – Тошкент, 1960. – Б. 33.

parchalardan iborat bo‘lib, adib bu fikrlardan kelgusi asarlarida foydalanishni reja qilgan bo‘lishi mumkin. Masalan, bu bitikda Robindranat Tagor ijodidan: “Haqiqatning o‘zidek qilib yozilgan narsa adabiyot emas”, “Adabiyotning vazifasi, ichkini tashqiga, fikrni tilga, shaxsiy narsani ijtimoiy narsaga aylantirishdir”, “So‘zning kuchi yetmagan narsani surat ifodalaydi” kabi bir nechta iqtiboslar keltirilgan. Fikrimizcha, adib Robindranat Tagor fikrlari tarafdori bo‘lgan. Bu fikrlar ta’sirining keyingi asarlariga turtki bo‘lish ehtimoli ham bor edi.

Asqad Muxtor ko‘plab iste’dodli yoshlarga ustozlik qilgani, ularga mahorat saboqlarini bergani barchamizga ma’lum. Tog‘ay Murod ham ustoz Asqad akaning saboqlarini olgan va bu uchrashuv dilbar “Oydinda yurgan odamlar” qissasining yaratilishiga turtki bo‘lgan edi[140].

Tog‘ay Murod tabiatan samimiy va ta’sirchan qalb sohibi edi. Adibning “Men” sarlavhali maqolasidan ham bilishimiz mumkinki, g‘animlari tosh otganda hech biri adib qalbini tirnamay o‘tmagan. Har qanday masalaga jiddiy qaragan adib uchun ijod ahli, ustozlari dastxatlari ham tabarruk edi. Adabiyot esa uning tomirida oqqan qoni kabi muqaddas edi. Tog‘ay Murod xotiralarida dastxat va undan olgan ta’sirini shunday eslaydi:

“Men Abdulla Oripovdan dastxat olish uchun … nonga navbatda turganday turib edim. Men Chingiz Aytmatovdan dastxat olish uchun… aeroportga borib poylab edim. Uyimda ana shu zotlar dastxati bor. Men ushbu dastxatlarga qarab-qarab yashayman. Men xayolimda Oripov bilan yonma-yon yashayman. Men xayolimda … Aytmatov bilan qo‘shni yashayman. Men ushbu dastxatlarga qarab-qarab … o‘zimni dadil ham ulug‘vor chog‘layman”[141].

Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod badiiy asarning ta’sirchanligini oshiruvchi yoki, aksincha, uning o‘quvchiga ta’sir etuvchi o‘rinlarini tushiruvchi omillar haqida badiiy mahoratdan saboq bergan ekan, bu yosh avlod uchun haqiqiy ijod maktabi vazifasini o‘taydi. Abdulla Qodiriy o‘z davrida

[140] Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 171.
[141] Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019. – B. 54.

yuksak asarlar yaratish bilan birga badiiy mahorat sirlarini Cho‘lpon, Oybek kabi yozuvchilar bilan bo‘lishgan. Tog‘ay Murodning o‘ziga xos ijod olami, kichik jihatlardan ham ta’sirlana olish qobiliyati, ziyrakligi, qarashlari badiiy mahoratini ham ochib beruvchi jihatlardan biridir, deyishimiz mumkin.

Eng avvalo, boy va qadimiy folklorimizda, ko‘p asrlik adabiyotimiz tarixida, ayniqsa, Navoiy va Boburlar, Muqimiy va Furqatlar tabiat va inson tuyg‘ulari uyg‘unligi tasvirining eng go‘zal namunalarini Ch.Aytmatovdan necha yuz yillar ilgari yaratib berganligini unutmasligimiz lozim. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, nafaqat Cho‘lpon-u Oybek va Qahhorlardan boshlab Odil Yoqubovlar avlodigacha, ulardan so‘ng O‘.Hoshimov va Tog‘ay Murod kabi talantli prozaiklarga benazir ustoz bo‘lgan Abdulla Qodiriyning tengsiz badiiy mahoratidan XX asrdagi turkiy xalqlar adabiyotining Muxtor Avezov, Berdi Kerboboyev, Sadriddin Ayniy, Sotim Ulug‘zoda, Chingiz Aytmatov, Abdujamil Nurpeisov singari zabardast namoyandalari ham saboq olganliklarini chuqur minnatdorlik va yakdillik bilan e’tirof etganlar. Taniqli adib va olim Xurshid Do‘stmuhammad ta’kidlaganidek, ulug‘ adib mahoratining nurli bir qirrasi uning asarlaridagi tabiat va inson ruhiyatini yorqin tasvirlash san’atida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, T.Murod jahon adabiyotidan, jumladan, E.Seton-Tompson, Ch.Aytmatovlar ijodi bilan birga, eng avvalo, xalq og‘zaki ijodidan ko‘p bahramand bo‘lganligini o‘zi ham minnatdorlik bilan e’tirof etgan.

Darhaqiqat, Tog‘ay Murod xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot bilan bir qatorda, jahon adabiyotini ham yaxshi bilgan, tabiatan vazmin va mulohazakor, ammo ruhan kurashchan adib edi. Adib ijodidagi jo‘shqinlikning bir ildizi folklorga, ikkinchi ildizi Qodiriy va Qahhor felyetonlariga xos hajviy-satirik uslub, ijtimoiy-siyosiy tanqid va davr muammolariga badiiy-publitsistik hozirjavoblik bilan Oybekona ko‘lamdorlik va falsafiylikka tutashadi, desak xato bo‘lmaydi. Tog‘ay Murod ijodining uchinchi ildizi jahon adabiyotidan oziqlanadi. Zotan, u 1985–1987-yillarda Moskvadagi Adabiyot institutida tahsil oldi. Amerikalik adib Jek Londonning bir necha hikoyalari va “Boyning

qizi” dramasini, kanadalik adib Ernest Seton-Tompsonning mashhur “Yovvoyi yo‘rg‘a” kitobini mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qildi. 1999-yili adib haqli ravishda “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” degan faxrli unvonga loyiq ko‘rildi. Bunga adibning U.Normatov bilan suhbati ham dalil bo‘ladi.

Folklorshunos olim akademik To‘ra Mirzayevning eslashicha, T.Murod XX asrning 70-yillarida, endigina bir necha hikoyalari matbuotda bosilib chiqqan va anchagina tanilib qolgan boshlovchi yozuvchi ekanidayoq Muhammad Jomurod o‘g‘li Po‘lkan shoir haqida qo‘shimcha materiallar to‘plash uchun O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti folklor bo‘limiga tez-tez kelib turgan. T.Mirzayev maslahati bilan H.T.Zarifov, M.Afzalovlarning Po‘lkan shoir haqidagi maqola va risolalarini o‘qib chiqqan[142], shoirning o‘g‘li Umarqul, nevarasi Amirqul shoirlar bilan tanishgan. Bu hol T.Murod ijodiga qanday ta’sir qildi, degan haqli savol tug‘iladi. Bizningcha, T.Murod Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining taniqli vakillaridan biri Jasoq baxshining shogirdi Po‘lkan shoir ijodi orqali mavzu va janr jihatidan turli-tuman bo‘lgan va xalqimizning o‘tmishidagi hayoti, urf-odatlari, intilishi va orzu-umidlari, kurashlari ifodalangan dostonlar ruhiga kirib borgan. Po‘lkan shoir kuylagan 70 dan ortiq xalq dostonlarining orasida “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi “Qironxon”, “Orzigul”, shuningdek, “Alpomish” turkumidagi “Yodgor”, “Rustam” kabi dostonlarning borligini eslasak, T.Murodning asarlaridagi ona zaminga muhabbat va kurashchanlik motivlarining asl ildizlari milliy folklorga borib bog‘lanishini tasavvur etamiz. Akademik T.Mirzayev Tog‘ay Murodning mehnat va marosim folklori namunalari, xususan, xalq qo‘shiqlari bilan astoydil qiziqqani, bu haqda o‘zi va atoqli olima Muzayyana Alaviya bilan bir necha bor suhbatlashganini eslaydi. Institutning folklor arxivida o‘tirib, qo‘shiqlarning o‘nlab variantlari, topishmoq, maqol, latifalar bilan atroflicha tanishganini xotirlaydi. Tog‘ay Murod yangi ijodiy izlanishlariga turtki bera oladigan hayotiy materiallarni sinchkovlik bilan kuzatishga ishtiyoqmand ijodkor edi. Agar biz adibning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasini

[142] Афзалов М. Пўлкан шоир. Мақолалар тўплами – Тошкент: 1955. – Б. 176.

kuzatsak, unda Surxondaryo va Qashqadaryo folklorining[143] ohanglari va ruhining yorqin izlarini koʻrishimiz mumkin. T.Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi ham bir ildizi bilan xalq ogʻzaki ijodidan suv ichadi. Akademik T.Mirzayev xalq dostonlari va folklorshunos olimlar yozuvchini yangi-yangi ijodiy marralarga yoʻllaganini eslaydi: bu haqda yuqorida toʻxtalib oʻtgan edik[144]. Anglashiladiki, T.Murod har bir asarini yaratishga jiddiy tayyorgarlik koʻrgan va tasvir obyektiga har tomonlama yondashgan. Oʻzbek xalq folklori uning ijodiy-uslubiy izlanishlarida badiiy-estetik omillardan biri boʻlgan. Ona-zamin va tabiat mavzusi T.Murod uchun qanchalar qadrli boʻlgani uning dastlabki hikoyalarida ham yaqqol namoyon boʻlganidek, suhbat va maqolalarida ham aks etgan. Bu jihatdan adibning ba’zi soxta tabiat kuychisi va Orol “jonkuyari” bilan suhbati tagma’nodorligi bilan alohida ajralib turadi: “Ajab ijodkorlar bor-da. Bir ijodkor meni passivlikda aybladi. Adib grajdan boʻlishi kerak, mana, Orol qurib ketyapti, deya piching qildi. Darhaqiqat, bu ijodkorning tala-toʻpi olamni buzadi. U – «otashin grajdan», u – tirnogʻidan sochigacha qayta qurish, oshkoralik, demokratiya «yalovbardor»i. Ekran, radio, matbuot, minbarlarni hech kimga bermay na’ra tortadi. Shu «yoniq» ijodkordan Orolning eng chuqur joyi necha metr, deya soʻradim. «Otashin grajdan» yelkasini qisdi, bilmadi. Soʻng: «Orolning jami maydoni qancha?» – deb soʻradim. «Jasur vatanparvar» bosh irgʻab, bilmayman, dedi. «Oʻzi, Orol qayerda?» – deya tagʻin soʻradim. «Tabiat muhofazachisi» shimol tarafga qoʻl siltab: «Gde-to, Qoraqalpogʻistonda», dedi. Men xaritani ochib, unga Orolni koʻrsatdim. U Orolga tikilib: «I-ya, Orolning yarmi Qozogʻistonga qarar ekan-ku!» dedi. «Tabiat kuyunchagi» Orolning yuziga aqalli xaritadan boʻlsayam bir qarab qoʻymagan ekan! Shu ijodkor Orol haqida she’r yozdi. She’rdagi har bir satr oxirida «Orol» soʻzi takrorlanadi. Men «Orol» soʻzining oʻrniga «sevgilim» soʻzini qoʻyib chiqdim. Hech nima oʻzgarmadi!”

[143] Safarov O. Ochilov K. Boychechak. Bolalar folklori. Mehnat qoʻshiqlari. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom,1984. – B. 34

[144] http://togaymurod.uz/tura-mirzaev-otlar-ham-yigʻlaydimi

“Momo yer qo‘shig‘i” qissasidagi Pahlavon Daho va sheriklari obrazlari ham tabiat va inson muammolari hamda milliy qadriyatlarga munosabat masalalari o‘ziga xos tarzda yoritilganligi bilan o‘quvchi e’tiborini jalb etadi[145].

Shu munosabat bilan adabiyotimiz va T.Murod shaxsi va ijodining betakror ekanligidan yorqin dalolat beruvchi, ammo tanqid va adabiyotshunosligimizda e’tiborsiz qolib kelayotgan yana bir unutilmas voqeani tilga olib o‘tishni joiz deb bilamiz. Xotiralarda bayon qilinishicha, 2004-yili “Дружба народов” jurnali muharriri, mashhur adib L.Terakopyan Toshkentga kelgan. Ozod Sharafiddinov uyida bo‘lgan suhbatda o‘zbek adabiyotining bugungi kuni haqida fikr yuritiladi. Moskvadan kelgan muharrir uyushma bilan kelishgan holda o‘zbek adabiyotiga bag‘ishlangan maxsus son rejalashtirilayotganini aytib, kimning asarlarini tavsiya etasizlar, deb so‘raganda, Odil Yoqubov ham, Pirimqul Qodirov va Ozod Sharafiddinov ham “Prozadan Tog‘ay Murodni tavsiya etgan bo‘lardik. Chunki Tog‘ay Murod adabiyotga o‘zbek mentalitetini olib kirdi. Dunyo adabiyotida hozir xalqlar etnosiga qiziqish juda kuchaygan. Tog‘ayning asarlari xuddi shu jihati bilan e’tibor qozonishi shubhasiz”, – deyishadi ular (Mirpo‘lat Mirzo). Bu yakdillik ham Tog‘ay Murodning betakror iste’dodi va o‘ziga xos ijodiga berilgan yuksak e’tirof edi. Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanida ham ijodiy ta’sir yaqqol seziladi. Adib ijodiy niyatni badiiy voqelikka aylantirish borasida anchayin ter to‘kkanligi bilinib turibdi. Chunki Rumiy chashmasidan ilhomlanish va undan ifodalash yo‘sinida murojaat qilish yaqqol seziladi. Adib Rumiy asarlari tarjimoni hamdir. Shu maqsad miqdoricha ifodalash prinsiplariga ko‘ra – roman voqelikni ifodalash takomilida taqlid va ta’sir bo‘lishi mumkin, albatta! Bunday hikmatga murojaat Akbarning asar voqeligidagi konseptual harakatlarida ko‘rinadi. Jaloliddin Rumiyning “Ichindagi ichindadir” nomli mo‘jaz kitobidagi mana shu fikrlar so‘zimizni to‘laqonli quvvatlaydi: “Azaliy hukm to‘g‘risida bilmoqchi bo‘lgan narsangni o‘rgatdik, atroflicha tushuntirdik. Bu aslo o‘zgarmaydi. To‘g‘ri, ba’zan qilgan

[145] Xidirova M. Tog‘ay Murod asarlari poetikasi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoreferati. – Jizzax, 2022.

yaxshiliging yoki yomonliging miqdoricha muqobilini ololmaysan. Biroq yaxshilik va yomonlikning javobi mutlaqo bo‘lajakdir, ya’ni hukm mutlaqo o‘zgarmasdir. Bir mahmadona kimsa: «Biz Tangri saodatidan mahrum bo‘lgan gumrohning oxirat saodatiga muyassar bo‘lgan said (qutli – tarj.)ning esa gumroh bo‘lganini ko‘ryapmiz», – dedi. Mavlono buyurdiki: «Bo‘lishi mumkin. Chunki gumroh yaxshilik qilgani uchun said, said esa yomonlikka yaqin yurgani uchun gumroh bo‘lgandir. Masalan, Iblis „Meni olovdan, uni (odamni) esa tuproqdan yaratding“, – deb Odamning yaratilishiga e’tiroz qilgani uchun Tangrining abadiy la’natiga uchradi va malaklarga rahbarlikdan, bizning huzurimizdan quvildi. Shuning uchun biz ham „Yaxshilikning javobi yaxshilik, yomonlikning jazosi yomonlik“, deymiz»”. Xuddi ana shu manba “Isyon va itoat” romani leytmotivini tashkil qiladi. Adib keltirilgan misolga bot-bot murojaat qiladi. Demak, muallif Akbar ko‘targan isyon jamiyat a’zolarida kuzatilgani bilan “qorin g‘ami”dan boshqasiga, ya’ni tirikchilikdan ortmasligiga amin bo‘ladi. Azal va abad orasida kechadigan mangu kurash ham aslida Shayton vasvasidan yiroq bo‘lishdir. Akbar ham o‘z qilmishlari oqibatida – tozarish istagida isyon qiladi. Buning tagida nomukammallikdan mukammallik sari tashlangan qadam, deb tushunadi. “Roman hamma narsa haqida va har qanday hajmda bo‘lishi mumkin. Roman janrini vazni yoxud bosma tobog‘iga qarab belgilab bo‘lmaydi. Sh.Xolmirzayev aytganidek, «romandan katta hikoyalar» bo‘lgani singari novelladan kichik romanlar ham yozilaveradi. Islomdagi niyat amaldan ustun, degan aqidaga tayanib, romanning janrini belgilashda muallif niyati hal qiluvchi ko‘rsatgich qilib olinsa, to‘g‘ri bo‘ladi. «Mini-roman» atamasi ham eksperiment bo‘lishi bilan birga vaqt o‘tishi bilan adabiy an’anaga aylanishi mumkin va buni zamonning o‘zi taqozo etmoqda[146]. Ijodning bir sohasi borki, unda uslub birinchi qarashdayoq ko‘zga yarq etib tashlanib turadi. Bu yozuvchining tili. Tilda yozuvchining mahorati ham, estetik prinsiplari ham, hayot ranglarini payqay olishi ham, nozik farqlarni his etish qobiliyati ham aniq ko‘rinadi”. Badiiy til va uslub ijodkor ruhi, iste’dodi va o‘ziga xosligini

[146] Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. – Toshkent: Akademnashr. 2019. – B. 93.

ifodalovchi bir koʻzgu ekan, uni ijodkorning dunyoqarashi, tili, adabiy-estetik ideali va badiiy mahorati masalalari bilan uzviy aloqadorlikda oʻrganish maqsadga muvofiq boʻladi. Yozuvchining hayot voqea-hodisalariga falsafiy-estetik munosabati va milliy xarakter yaratish va badiiy tasvir vositalarini qoʻllash mahorati hamda uning tafakkur va mushohada yoʻsinidagi hayotiylik va izchillik, shuningdek, ijodkor biografiyasi va shaxsiyatidagi oʻziga xosliklar – hammasi birgalikda uning individual va takrorlanmas uslubini shakllantiradi va mukammallashtiradi. Serqirra va murakkab hodisa boʻlgan uslub adib tilida nisbatan toʻliq va yaqqolroq namoyon boʻladi. Adabiy asarning tili va uslubida yozuvchining hayot ranglari va boʻyoqlarini farqlay olishi, soʻz va uning maʼnolarini chuqur his etish mahorati, soʻzning tagmaʼnolari, ifoda imkoniyati va jilolarini nozik ilgʻay olish qobiliyati ham namoyon boʻladi. T.Murod asarlari tili-uslubidagi oʻzbek tilimiz meʼyorlaridan bir oz chekinish hollari bugungi nasrimizda, jumladan, isteʼdodli yosh adib Javlon Jovliyevning “Qoʻrqma” romani tilida ham takrorlangan. Shu kabi holatlarga munosabat bildirib, ilmiy-adabiy jamoatchilik eʼtiborini jalb etish ham vazifamiz boʻlishi lozim. Zero, yetuk badiiy asarlar tili va uslubi ham mukammal boʻlishi, xalqchillik va milliyligi bilan ajralib turishi – sanʼatning oltin qoidasi, yuksak bir mezoni boʻlib sanaladi. Shu munosabat bilan bugungi adabiy jarayonimizdagi yangi asarlar yaratilishi bilan koʻzga tashlangan bir holatga ham eʼtibor qaratishni istar edik. Albatta, shakl va mazmun ifodasidagi poetik izlanishlar va yangi asarlar yaratilishi quvonarli hol. Chunonchi, shunday ijodiy izlanishlarning bir namunasi boʻlgan yosh yozuvchi Javlon Jovliyevning 2020-yili nashr etilgan “Qoʻrqma” nomli romani muhim mavzuga bagʻishlangan. Ammo ushbu asar tilida ham, bizningcha, adabiy tilimiz meʼyorlaridan chekinish holatlari koʻp uchraydi. Misollar: “Eskidan qolgan bir kapkir qargʻish badaliga havo oʻtib turar edi, tomogʻimdan qum sizgani kabi chanqagan sahroyi tanasiga” (6-bet); “Gʻalati edi, savollarim va oʻzim kabi betartib…” (9-bet). Balki murakkab kechadigan adabiy jarayonda bunday ijodiy-uslubiy eksperiment-tajriba va badiiy-uslubiy izlanishlar boʻlib turishi tabiiy bir holdir.

Ammo tilimizning ko‘p yillik an’ana va me’yorlariga rioya etmaslik badiiy yoki uslubiy kashfiyot bo‘lmasa kerak.

III bob bo‘yicha xulosalar

1. Adabiy ta’sir, an’anaviylik badiiy ijod sohasida samarali bo‘lishi bilan birga yosh adiblarning adabiy-estetik qarashlari shakllanishi va boyishida ham muhim ahamiyat kasb etishi ibratli misollar tahlilida ko‘rsatildi.

2. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va A.Muxtor ijodi bilan birga ularning adabiy-tanqidiy maqola, taqrizlarida ham adabiy an’ana va ta’sir jarayonida milliylik va so‘z san’atiga alohida e’tibor qaratilgani diqqatga sazovor. Bunday haqli e’tiroflar adabiy ta’sir muammolarini kengroq qamrab olishda istiqbolli yo‘nalish sifatida ham muhimdir.

3. Aksariyat adiblar ilk ijodida adabiy ta’sirning taqlid va ergashish shakli kuzatiladi. A.Qahhor “Millatchilar” hikoyasida Chexovga ergashish ta’siri mavjud. So‘nggi yillarda bir guruh yosh adiblar ijodida tabiat tasvirining keng o‘rin egallashini Ch.Aytmatov ijodining ta’siri natijasi sifatida talqin etish bahsli ekanligi ko‘rsatib berilgan.

4. O‘z navbatida, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor hamda Tog‘ay Murod ijodi ham keyingi avlod vakillari uchun o‘ziga xos bir ijodiy mahorat maktabi bo‘lib xizmat qilayotganligi dalillangan. XX asr o‘zbek adabiyoti rivojini va adiblarimiz ijodini ham, asosan, sotsializm g‘alabalari va Oktabr revolyutsiyasi bilan bog‘lab talqin etish, Gorkiy va Mayakovskiy kabi adiblar ijodining ta’siri sifatida tavsiflash kabi sun’iy bo‘rttirishlar ham ildiz otganligi sabab-oqibatlari ochib berildi.

UMUMIY XULOSALAR

Adabiy ta’sir muammolarini Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog‘ay Murod ijodi misolida tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ijodiy ta’sir, an’ana va novatorlik badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur rivojining muhim va zaruriy sharti, qudratli omili, badiiy ijodning obyektiv qonuniyatidir. Hech bir yozuvchi o‘z ijodini boshdan boshlamaydi: u milliy adabiyot va jahon adabiyotining ilg‘or an’analaridan o‘rganadi, ularni o‘z davri qo‘ygan badiiy-estetik vazifalarga moslab, ijodiy davom ettiradi.

2. Adabiy ta’sir va an’anaviylik serqirra jarayon bo‘lib, mavzu-g‘oya va janrlar bardavomligida, xarakter yaratish, tasvir, til, uslub va poetik detallardagi mushtaraklikda namoyon bo‘ladi. O‘zbek-fors-tojik adabiyotlari o‘zaro ta’sirining ijodiy xarakteri va samaradorligiga Alisher Navoiy ijodi yorqin va ibratli namuna bo‘la oladi: shoir salaflari Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy va Jomiy an’analarini davom ettirish bilan cheklanmay, ular bilan ijodiy musobaqaga kirishib, yangi badiiy kashfiyotlar yaratgan.

3. Adabiy an’ananing alohida ko‘rinishi mumtoz shoir va adiblarimiz asarlarida fors-tojik va arabcha so‘z-iboralarning qo‘llanishi, zullisonaynlik an’anasining davomiyligida namoyon bo‘ladi. Bu an’ana Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor ijodida ham badiiy tilning serqirraligini ta’minlagan.

4. Adabiy ta’sirni tipologik yaqinlikdan farqlash zarur. Fitratning “Temir sag‘anasi oldida” (1917) asari bilan Ivan Buninning “Amir Temur haqida qo‘shiq” (1921) hikoyasi, Fitratning “Shaytonning Tangriga isyoni” bilan Anatol Fransning “Farishtalar isyoni” romani o‘rtasidagi o‘xshashliklar, E.Vohidov, A.Oripov, M.Ali asarlari bilan 1970–80-yillar rus she’riyati o‘rtasidagi mushtaraklik bevosita ta’sir emas, balki har bir xalqning o‘z estetik ehtiyojidan tug‘ilgan tipologik hodisalardir.

5. Sho‘ro davrida sobiq Ittifoq miqyosida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham adabiy ta’sir masalasiga badiiy mezonlardan ko‘ra, asosan, sotsialistik g‘oya, mavzu va dunyoqarash nuqtayi

nazaridan qaraldi. Har bir yozuvchimiz mahoratining takomili koʻp hollarda faqat rus adabiyotiga bogʻlab qoʻyildi, Gorkiy va Mayakovskiyning ta'siri sun'iy ravishda boʻrttirildi. Bu holat adabiy ta'sirning faqat ijobiy emas, salbiy boʻlishi ham mumkinligini koʻrsatadi: Oktabr revolyutsiyasini madh etish, shiorbozlik, formalizm va deklarativlik kabi illatlar ana shunday mafkuraviy ta'sirning oqibatidir.

6. M.Begjonovaning Abdulla Qodiriy ijodini Gogol ta'siri bilan, Tohir Malikning adibning ijtimoiy muammolarni koʻtarishini rus adabiyotidan oʻrganganligi bilan izohlashi kabi qarashlar asossizdir. Qodiriy asarlarining badiiy ildizlari milliy hayot, xalq ogʻzaki ijodi, Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy va Furqat kabi mumtoz adiblarning hajviy va realistik an'analariga borib taqaladi. "Oʻtkan kunlar" romani esa oʻz navbatida turkman, tatar va boshqa xalqlar adiblari ijodiga samarali ta'sir koʻrsatgan.

7. Abdulla Qahhor asarlari, xususan, "Oʻtmishdan ertaklar" qissasi va oʻtmish mavzusidagi hikoyalari muallifning shaxsiy hayot tajribasi, xalq hayotini teran kuzatishi asosida yaratilgan. L.Tolstoy va M.Gorkiyning avtobiografik asarlarini oʻqib-oʻrgangan adib uslub, shakl va kompozitsiyada ularga ergashmagan. Hayotni xolis, realistik tasvirlash usuli faqat Chexov yoki Gogolga xos boʻlmay, "Boburnoma" kabi asarlarda namoyon boʻlgan koʻp asrlik ijodiy an'anadir. Chexov va Qahhor hikoyalari real voqelik asosida, milliy ruhda yaratilgani tahlil asosida koʻrsatilib, ularda taqlidchilik toʻgʻrisidagi fikrlarning asossizligi dalillandi.

8. Asqad Muxtorning "Ildizlar" qissasi va Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani oʻrtasida ota-bobolar an'analarini e'zozlash, oʻzlikni unutmaslik muammosini badiiy talqin etishda gʻoyaviy-badiiy hamohanglik mavjud. Asqad Muxtor Aytmatov va Janni Rodari ijodidan ijodiy ta'sirlangan holda oʻziga xos asarlar yaratgan; bu ijodiy ta'sir mexanik taqlid emas, balki yozuvchi mahoratini boyitgan samarali jarayondir.

9. Adabiy ta'sir va taqlidgoʻylik bir-biridan farqli tushunchalardir. Taqlidchi an'analarga mexanik yondashib, ijodiy mustaqillik va originallikdan mahrum boʻladi; adabiy ta'sir esa ijodiy izdoshlikni yuzaga keltiradi. Navoiyning Jomiy gʻazallariga

tatabbu'lari, Muqimiy va Furqatning Navoiy va Fuzuliy g'azallariga taxmislari ijodiy izdoshlikning yorqin namunalaridir. Ko'pchilik adiblarning ilk ijodida ta'sir taqlid va ergashish shaklida kuzatiladi: Abdulla Qahhorning "Millatchilar" hikoyasida Chexovga ergashish sezilsa, yetuk asarlarida adib to'la o'ziga xos uslubga erishgan.

10. So'nggi yillar o'zbek qissa va romanchiligini, asosan, J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu kabi G'arb adiblarining ta'siri bilan izohlashga moyillik ortib bormoqda. Shuningdek, bir guruh yosh adiblar ijodida tabiat tasvirining keng o'rin egallashini faqat Ch.Aytmatov ta'siri bilan bog'lash ham bahslidir: tabiat va inson tuyg'ulari uyg'unligining go'zal namunalarini Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat va Qodiriy Aytmatovdan necha yuz yillar avval yaratgan. Adabiy ta'sirni G'arbning Sharqqa ta'siri tarzida bir yoqlama o'rganish yuzaki xulosalarga olib keladi.

11. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog'ay Murod adabiy an'analarni davom ettirish bilan birga o'zaro ijodiy ta'sir doirasida bo'lgan: Qodiriyning Cho'lponga ijodiy maslahatlari, Qahhorning yosh ijodkorlar asarlariga talabchan munosabati, Asqad Muxtorning Tog'ay Murodga ustozligi, Tog'ay Murod asarlarida Qodiriy romanlariga muhabbat ana shunday avlodlararo ijodiy rishtaning dalilidir. Asqad Muxtor ijodida Navoiy hikmatlarining, Tog'ay Murod ijodida xalq og'zaki ijodi va jahon adabiyotining samarali ta'siri kuzatiladi.

12. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor va Tog'ay Murod ijodi ham keyingi avlod vakillari uchun o'ziga xos ijodiy mahorat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Adiblarning adabiy-tanqidiy maqolalari, maktublari va yoshlar bilan suhbatlari yosh ijodkorlar uchun badiiy mahorat va so'z san'atkorligi saboqlari bo'la oladi.

13. Adabiy ta'sir masalasini xolis, ilmiy asosda o'rganish ijodkorlarning asl mahoratini yuzaga chiqarish, milliy adabiyotimizning jahon adabiy jarayonidagi o'rnini to'g'ri belgilash va XX asr adabiyoti tarixini haqqoniy yoritish uchun muhim mezon vazifasini o'taydi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni o'zbek adabiyotining qardosh turkiy xalqlar adabiyotiga ta'siri misolida davom ettirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ–3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ–3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish to‘g‘risida”gi qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ–2894-son “Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘da Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida”gi qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

6. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. // Xalq so‘zi. – 2018-yil, 8-avgust.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

7. Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 156 b.

8. Абдулла Қаҳҳор. Ёшлар билан суҳбат. – Тошкент, 1968.

9. Abdullayev O. Unutilmas saboqlar. // Adabiyotimiz faxri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 324 b.

10. Абдусаматов Ҳ. Ҳаёт. Адабиёт. Театр. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 235 б.

11. Абдусаматов Ҳ. Абдулла Қаҳҳор. – Тошкент, 1960. – 207 б.

12. Алиев А. Адабий мерос ва замонавийлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1983. – 259 б.

13. Анорбоев С., Қўшжонов М. Бадиий ижод ҳақида. – Тошкент, 1960. – 203 б.

14. Афзалов М. Пўлкан шоир. Мақолалар тўплами. – Тошкент, 1955. – 398 б.

15. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1979. – 406 б.

16. Adabiyotimiz faxri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 324 b.

17. Асримизнинг буюк адиби. – Тошкент, 1975. – 151 б.

18. Бегжонова М. Гоголь и Абдулла Кадыри. – Ташкент: Фан, 1983. – 146 с.

19. Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – 262 б.

20. G‘afurov I. Dunyoni tinglaganda. // Mangu latofat. – Toshkent, 2008. – 223 b.

21. Горький М. Адабиёт ҳақида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1960. – 902 б.

22. Дониярова Ш. Ижодкор ва услуб. – Тошкент, 2014.

23. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 406 б.

24. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005.

25. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 252 b.

26. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 256 b.

27. Karimov B. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 160 b.

28. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Муҳаррир, 2011.

29. Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2016. – 232 б.

30. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.

31. Nazarov B. Ijodning jon tomiri. – Toshkent, 2024. – 267 b.

32. Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008. – 224 б.

33. Нурмуҳаммедов А. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1978.

34. Ойбек. Абдулла Қодирийнинг ижодий йўли. // Мукаммал асарлар тўплами. 9-том. – Тошкент: Фан, 1978.

35. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўққиз томлик. 14-том. – Тошкент: Фан, 1979. – 439 б.

36. Quronov D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 480 b.

37. Quronov D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2018. – 475 b.

38. Қурамбоев К. Адабий таъсирдан ўзига хосликка. – Нукус, 2007. – 49 б.

39. Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. – 208 b.

40. Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur: Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Tog‘ay Murod. – Toshkent, 2023. – 179 b.

41. Qosimov U. Yozuvchining sirlari. Abdulla Qahhor saboqlari. – Toshkent, 1995.

42. Қўчқоров Р. Истеъдод қадри. – Тошкент, 1989. – 265 б.

43. Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – 232 б.

44. Қўшжонов М. Адашганлар фожеаси. // Маҳорат сирлари. – Тошкент, 1968. – 119 б.

45. Қўшжонов М. Ижод масъулияти. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – 344 б.

46. Қаҳҳорова К., Наҳанов О. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1987. – 198 б.

47. Қаюмов Л., Иноғомов Р. Устоз. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1968. – 220 б.

48. Ma’suma Ahmedova. Men qaytib kelaman. Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. // www.ziyouz.com, 2008.

49. Раҳимжонов Н. Бадиий асар биографияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 263 б.

50. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 101 б.

51. Solijonov Y. So‘z sehri va mehri. – Toshkent: Sharq, 2018.

52. Умуров Ҳ. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 120 б.

53. Fozilov N. Ustoz so‘zlaganda. – Toshkent: Sharq, 2007. – 45 b.

54. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

55. Xondamir Qodiriy. Adabiyot – badiiyat abadiyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 234 b.

56. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – 301 b.

57. Ҳабибулло Қодирий. Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1986. – 172 б.

58. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент, 1996.

59. Цейтлин А.Г. Труд писателя. – Москва: Художественная литература, 1969. – 542 с.

60. Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Тошкент, 1988. – 255 б.

61. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 640 б.

62. Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари. // Биринчи мўъжиза. – Тошкент, 1979. – 245 б.

63. Шарафиддинов О. Мақсуд Шайхзода. // Биринчи мўъжиза. – Тошкент, 1979. – 306 б.

64. Шукуров Н., Хатамов Н., Холматов Ш. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 157 б.

65. Ўзбек совет адабиёти тарихи очерклари. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1962. – 720 б.

66. Yo‘ldoshev Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Toshkent: Tafakkur, 2023. – 626 b.

67. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – 502 b.

68. Yoqubov O. So‘z. – Toshkent: Sharq, 2019.

69. Sherkon Qodiriy. Qodiriyni qo‘msab. – Toshkent: Xalq merosi, 1994.

70. Safarov O., Ochilov K. Boychechak. // Bolalar folklori. Mehnat qo‘shiqlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1984.

III. Xorijiy nashrlar

71. Антонов С. Я читаю рассказ. – Москва: Молодая гвардия, 1973.

72. Beston J. The Influence of John Steinbeck’s The Pastures of Heaven on Patrick White. // Australian Literary Studies. – 1974. – Vol. 6, no. 3.

73. Blazek W. Literary Influences. // F. Scott Fitzgerald in Context / ed. B. Mangum. – Cambridge University Press, 2013. – P. 45–55.

74. Гамсун К. Голод. – Москва: Иностранная литература, 1992. – 692 с.

75. Касымова З.Л. Об одном литературном влиянии. // Вестник ТГПУ. – 2009. – № 4.

76. Крылов В., Ян Янь. Литературное влияние и реминисценции из повести К.Г.Паустовского «Золотая роза» в цикле очерков Цинь Му «Отрывочные мысли об искусстве». // Филология и культура. – 2019. – № 2 (56).

77. Манн Ю.В. Литературные связи и влияния. // Краткая литературная энциклопедия. Т. 4. – Москва: Советская энциклопедия, 1967. – С. 313–315.

78. Pons X. The Battlers: Kylie Tennant and the Australian Tradition. // Australian Literary Studies. – 1974. – Vol. 6, no. 4.

79. Poole J. ‘Damned Scamp’: Marcus Clarke or James Erskine Calder? // Australian Literary Studies. – 1974. – Vol. 6, no. 4.

80. Sinha M. Literary Influence: A Pivotal Aspect in the Domain of Comparative Literature. // PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 18(4).

81. Wallace-Crabbe C. True Tales and False Alike Work by Suggestion: The Poetry of A.D. Hope. // Australian Literary Studies. – 1990. – Vol. 14, no. 4.

IV. Lug‘atlar

82. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

83. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 298 б.

V. Badiiy adabiyotlar

84. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. // To‘la asarlar to‘plami. 8-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 432 b.

85. Абдулла Орипов. Сўз сеҳри. – Тошкент, 1992. – 129 б.

86. Abdulla Qodiriy. Diyori bakr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

87. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Media press, 2008.

88. Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён. – Тошкент, 1994.

89. Abdulla Qahhor. O‘tmishdan ertaklar. – Toshkent: Sharq, 2014.

90. Abdulla Qahhor. Hikoyalar. – Toshkent.

91. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Sharq, 2013. – 287 b.

92. Абдулла Қаҳҳор. Олти томлик асарлар. 6-том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 475 б.

93. Asqad Muxtor. Dunyo bolalari. // www.ziyouz.com kutubxonasi.

94. Asqad Muxtor. Ildizlar. // www.ziyouz.com kutubxonasi.

95. Asqad Muxtor. Tundaliklar. // kh-davron.uz.

96. Asqad Muxtor. Amu. – Toshkent: Oltin qalam, 2024. – 234 b.

97. Asqad Muxtor. Bo‘ronlarda bordek halovat. – Toshkent: Oltin qalam, 2023. – 250 b.
98. Asqad Muxtor. Kumush tola. – Toshkent: Zabarjad media, 2022. – 156 b.
99. Vohidov E. Iztirob. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 214 b.
100. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
101. Vohidov E. Saylanma. 1–4-jildlar. – Toshkent: Sharq, 2000–2001.
102. Горький М. Болалик. – Тошкент: Ёш гвардия, 1981. – 278 б.
103. Dostoyevskiy F. Telba. – Toshkent, 2019. – 567 b.
104. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent: Sharq, 2000.
105. Said Ahmad. Jimjitlik. – Toshkent: Sano-standart, 2024. – 415 b.
106. Said Ahmad. Qorako‘z majnun. – Toshkent: Sano-standart, 2016.
107. Tog‘ay Murod. Momo yer qo‘shig‘i. – Toshkent: Nurafshon kitob ta’minot, 2022. – 156 b.
108. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Nurafshon kitob ta’minot, 2022. – 165 b.
109. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019.
110. Tog‘ay Murod. Saylanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
111. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2018.
112. Ҳикоя ва очерклар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955.
113. Шарафиддинов О. Халқ устозим, мен эса толиб. // Ҳақиқатга садоқат. – Тошкент, 1989.
114. Шолохов М. Асарлар. 5-том. – Тошкент: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1963. – 557 б.

VI. Dissertatsiyalar va avtoreferatlar

115. Зиёдуллаева Н. Ўзбек адабиётшунослигида ижодкор биографиясини ўрганиш муаммолари: филол. фанлари д-ри … дисс. – Тошкент, 2000. – 145 б.

116. Xidirova M. Tog‘ay Murod asarlari poetikasi: filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoreferati. – Jizzax, 2022.

117. Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazining poetik talqini: filol. fan. … diss. avtoreferati. – Jizzax, 2024.

118. Қосимов У. Адабий-эстетик тафаккур тадрижи: анъанавийлик, ворисийлик ва ўзига хослик (Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор ва Тоғай Мурод ижоди мисолида): филол. фанлари д-ри … дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 77 б.

119. Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: филол. фанлари д-ри … дисс. – Тошкент, 2017.

120. Солижонов Й. XX асрнинг 80–90-йиллар ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси: филол. фанлари д-ри … дисс. – Тошкент, 2002. – 302 б.

121. Тошмуҳаммедова Л. Абдулла Қодирийнинг адабий-эстетик қарашлари: филол. фанлари д-ри … дисс. – Тошкент, 2005. – 155 б.

122. Тўлаганова С. Ижодкор шахси ва адабий қаҳрамон муаммоси (А.Қодирий ижоди мисолида): филол. фанлари д-ри … дисс. – 2019. – 148 б.

VII. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

123. Davronova Sh. Adabiy ta’sir va ijodiylik. // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim. – 2016. – № 2 (59). – B. 40–46.

124. Дўстмуҳаммад Х. Ёлғиз. // Шарқ юлдузи. – 2018. – № 5.

125. Saitov S. AQSH va o‘zbek adabiyotida adabiy ta’sir va milliy mentalitet. // Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2024. – ISSN 2181-2594.

126. Тожиева Л. Влияние зарубежной литературы на современную литературную культуру. // Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – 1(1). – С. 693–697.

127. Шоймуротов У.Қ. Влияние художественной литературы на художественное мышление. // Прикладные

науки в современном мире: теория и практика. – 2023. – DOI: 10.5281/zenodo.7927735.

VIII. Internet saytlari

128. https://ziyouz.com
129. https://kh-davron.uz
130. http://togaymurod.uz/tura-mirzaev-otlar-ham-yiglaydimi
131. https://yoshlikjurnali.uz/publitsistika/asqad-muxtor-yosh-yozuvchi-bolish-qiyin/
132. https://xabar.uz
133. https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingiz_Aytmatov
134. https://malumot.ru/navoiy-ijodi-va-adabiy-ta%CA%BCsir/
135. https://inlibrary.uz
136. https://cyberleninka.ru

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

I BOB. ADABIY TA'SIR BADIIY IJOD TARAQQIYOTINING OBYEKTIV QONUNIYATI 9
1.1-§. Adabiy an'analar tadriji tarixidan.....9
1.2-§. Adiblar ijodida an'ana va ijodiy ta'sir omillari 33
I bob bo'yicha xulosalar.....54

II BOB. ADIBLAR IJODIGA RUS VA JAHON ADABIYOTI TA'SIRI 56
2.1-§. Adib asarlarining milliy o'ziga xosligi: ijtimoiy-estetik omillari 56
2.2-§. Adib ijodiy takomilida rus va jahon adabiyoti ta'siri tadqiqi.....74
II bob bo'yicha xulosalar.....87

III BOB. ADABIY TA'SIR MUAMMOLARI ADIBLAR TALQINIDA.....88
3.1-§. Adabiy ta'sir, originallik va taqlidgo'ylik muammolari bahslari.....88
3.2-§. A.Qodiriy, A.Qahhor, A.Muxtor, Tog'ay Murod ijodiy an'analari va badiiy mahorat saboqlari.....110
III bob bo'yicha xulosalar 125

UMUMIY XULOSALAR.....126
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....129

Saidova Rizvon Mustofo qizi

ADABIY TA’SIR MUAMMOLARI TADQIQI

(Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Tog‘ay Murod ijodi) misolida

Monografiya

Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.
Monografiyada keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma’lumotlarning aniqligiga hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik muallifning zimmasidadir.

Nashr uchun mas’ul: I.Ashurmatov
Texnik muharrir: O.Umarov
Musahhih: A.Xotamov
Dizayner-sahifalovchi: J.Usmonov

9096

“Bookmany print” nashriyoti
Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.
Buyurtma raqami №106. Bosishga ruxsat etildi: 4.11.2026.
“Cambria” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 $^{1}/_{16}$
Nashriyot bosma tabog‘i 7,8. Shartli bosma taboq 8,1.
Adadi 50 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint ✆ +998 99 180 97 10